

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
TA'LIM VAZIRLIGI**

URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

Qo'lyozma huquqida

UDK 821.512.136

SOBIROVA SAODATJON TOXIRJON QIZI

O'zbek tili antroponimlarining imloviy, lug'aviy va lahjaviy variantlari

5A 120102 – Lingvistika (o'zbek tili)

Magistr

akademik darajasini olish uchun yozilgan

dissertatsiya

Ilmiy rahbar: f.f.n., dots.v.b. R.Y.Xudoyberganov



Urganch-2019

MUNDARIJA

KIRISH	3-6
I BOB. VARIANTDORLIK VA VARIANTLARGA YONDOSH HODISALAR	7-24
1.1. Variantdorlikning sinonimiyaga munosabati.....	7-10
1.2. Onomastik parallellar ..	10-16
1.3. Qo‘shnomlilik, ko‘pnomlilik va onomastik variantdorlik.....	16-24
I bob bo‘yicha xulosalar ..	24
II.BOB. ISMLARNING IMLOVIY VARIANTLARI	25-58
2.1. Orfografiya qoidalari va ilmiy tadqiqot ishlarida antroponimlar imlosiga munosabat ..	25-34
2.2. O‘zbek tilshunosligining fonetika bo‘limini o‘qitishda antroponimik materiallardan foydalanish ..	34-39
2.3. Unlilar imlosi bilan bog‘liq imloviy variantlar.....	39-45
2.4. Undoshlar imlosi bilan bog‘liq imloviy variantlar.....	45-52
2.5. Ism asosida yuz bergan fonetik o‘zgarishlar natijasida hosil bo‘lgan variantlar ..	52-58
II bob bo‘yicha xulosalar.....	58
III. BOB. ISMLARNING LAHJAVIY VA ERKALASH-KICHRAYTIRISH XUSUSIYATLARI ..	60-77
3.1. Ismlarning lahjaviy va erkalash-kichraytirish shakllari hamda ularning o‘rganilishi ..	60-64
3.2. Ismlarning qisqargan variantlari ..	64-73
3.3. Antroponimik variantlar hosil bo‘lishining boshqa tiplari ..	73-77
III bob bo‘yicha xulosalar ..	77
UMUMIY XULOSALAR ..	79-81
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR	82-86

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. O‘zbek tilshunosligining onomastika sohasi uning boshqa sohalariga nisbatan keyinroq shakllanib boshlagan. Umuman, onomastika tildagi atoqli otlarni o‘rganuvchi tilshunoslikning bir bo‘limidir. O‘zbek tilidagi atoqli otlarning lug‘aviy tizimi nihoyatda boy va serqirra bo‘lib, uning ayrim tiplari monografik planda qoniqarli darajada o‘rganilgan.

O‘zbek antroponimiyasining tadqiq qilinishida professor E.Begmatov va uning shogirdlari tomonidan muhim tadqiqotlar olib borildi. Ayniqsa, G‘.Sattarov, N.Husanov, M.Norqulova, S.Rahimov va R.Y.Xudoyberganovlarning monografik plandagi tadqiqotlarini ta’kidlash o‘rinlidir. Yuqorida qayd qilingan mualliflar va qator tilshunoslarning sa’y-harakatlari tufayli o‘zbek antroponimikasining ba’zi muammolari o‘z yechimini topdi. Bular o‘zbek ismlarining lisoniy tarkibi, o‘z va o‘zlashgan qatlamlari, ularning lisoniy tuzilishi hamda ma’nosi; ismlar imlosi, ismlar variantdorligi va mintaqaviy antroponimiyaga xos bo‘lgan ayrim xususiyatlar¹ va shu kabi boshqa mavzular ochib berildi.

O‘zbek antroponimiyasi oldida turgan galdagi vazifalardan biri o‘zbek ismlarining erkalash-kichraytirish variantlari muammosidir. Avvalo, ismlarning erkalash-kichraytirish variantlari an’anaviy-tarixiy hamda yangi ismlar asosida yuzaga kelgan.

Ikkinchidan, ushbu variant ismlarni ilmiy nuqtayi nazardan tadqiq etish adabiy ism va dialektal ism kabi tushunchalar mohiyatini anglab yetishga imkon beradi. Masalan, *Nilufar – Nilu*, *Bahodir – Baho* va boshqalar. Chunki variant ismlarning ma’lum qismi adabiy, umumnormaga solingan va mintaqaviy-lahjaviy omillar asosida yuzaga keladi.

Uchinchidan, ismlardagi variant hodisalari o‘zbek antroponimiyasi tizimidagi xususiyatlarni ochishga yordam beradi va boshqalar.

Qayd qilingan muammolarning o‘rganilishi, o‘z navbatida, antroponimik tizimning adabiy normaga munosabatini belgilaydi va ularning yozilishini

¹Бу ҳақда қаранг: Худойберганов Ровшан Юсупович. Ўзбек антропонимияси тизимининг вариантдорлиги // Филология фанл. номз. диссерт-си автореферати. –Тошкент, 2008.

muayyan normalarga solish imkoniyatlarini oydinlashtiradi. Yuqorida ta'kidlab o'tilganlar mazkur ishning dolzarbligini tasdiqlay oladi.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Bizga ma'lumki, o'zbek antroponimiyasi tizimidagi ko'p sonli ismlar xalqimizning ulkan madaniy hamda ma'naviy boyligining benazir durdonalaridan biridir. Har bir xalqda o'zining ko'hna tarixi bo'lganidek, o'zbek tilidagi ismlarning ham turli davrlarda, xilma-xil sharoitlar tufayli vujudga kelgan va rivojlanib borgan qiziqarli tarixi bordir. O'zbek antroponimiyasini tadqiq etishda F.Abdullayev, X.Doniyorov, A.Ishayev, E.Begmatov, N.Husanov, G'.Sattarov, S.Rahimov, A.Otajonova, S.Nuriddinova va boshqalarning xizmatlari benihoya kattadir. Shuningdek, R.Y.Xudoyberganovning "O'zbek antroponimiyasi tizimining variantdorligi" mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasi (2008) mazkur tadqiqotning o'rganilishida asosiy manba sifatida xizmat qiladi. Ayniqsa, E.Begmatovning 1997- va 2007-yillarda nashrdan chiqqan "O'zbek ismlari" nomli ensiklopedik lug'ati mazkur ishda asosiy manba vazifasini o'taydi.

Tadqiqotning maqsadi. Ishning asosiy maqsadi o'zbek antroponimiyasi tizimidagi ismlarning erkalash-kichraytirish variantlarini to'plash, ularni ilmiy nuqtayi nazardan tadqiq etish, ulardagi lisoniy va nolisoniy qonuniyatlarni belgilash, ilmiy umumlashtirishdir.

Tadqiqotning vazifalari.

- antroponimik tizimdagi lisoniy hamda nolisoniy vositalarni ilmiy jihatdan tadqiq etish;
- tilshunoslikda invariant va variantdorlik tushunchalarining talqinini o'rganish hamda uning antroponimik tizimga munosabatini belgilash;
- atoqli otlar, jumladan, o'zbek ismlari tizimidagi erkalash-kichraytirish variantlari hodisasining lisoniy mohiyatini ochish;
- ismlarning erkalash-kichraytirish variantlarini yuzaga keltiruvchi lisoniy asoslar va sabablarni o'rganish;

-ismlarning erkalash-kichraytirish variantlarini yuzaga kelish usul va yo‘llarini belgilash;

- ismlarning erkalash-kichraytirish variantlarini adabiy tilning imloviy norma talabi nuqtayi nazaridan ma’lum me’yorlarga solish imkoniyatlarini tadqiq qilish va boshqalar.

Ishning ilmiy yangiligi. Mazkur dissertatsiya ishida quyidagi ilmiy natijalarga erishildi:

- o‘zbek tili antroponimlarini o‘rganish dolzarb ekanligi aniqlanildi va ilk bor dastlabki tadqiqotlar ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilindi;

- mavjud tadqiqotlar, o‘quv qo‘llanma va darsliklarda antroponimlarning o‘rganilish holatini ilmiy tanqidiy o‘rganildi va baholandi;

- ta’lim jarayoniga ta’sis etilgan mavjud ona tili darsliklari, o‘quv va o‘quv-uslubiy qo‘llanmalardagi ayrim mulohazali o‘rinlarga munosabat bildirildi;

- yig‘ilgan faktik materiallarga antroponimik variantdorlik nuqtayi nazaridan yondashildi va ular ilmiy tahlil qilindi;

- unlilar va undoshlar imlosi bilan bog‘liq bo‘lgan ismlar to‘plandi va ular guruhlariga ajratilib, lisoniy jihatdan tahlil etildi;

- ismlarni buzib talaffuz qilish va noto‘g‘ri yozilishi natijasida yuzaga kelgan imloviy va lug‘aviy variantlari lisoniy tadqiq etildi va ularni bartaraf qilish yuzasidan tavsiyalar berildi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Ushbu tadqiqotning ilmiy xulosalari o‘zbek ismlarining, shu jumladan, lug‘aviy fondining rivojlanish va boyish qonuniyatlarini ochishga imkon beradi. Shuningdek, ishning ilmiy tahlillari, nazariy xulosalari o‘zbek nomshunosligi, uning tarkibiy qismi bo‘lgan o‘zbek antroponimikasi, o‘zbek tili leksikologiyasi va semasiologiyasining atoqli otlarga oid ba’zi hal qilinmagan muammolarni yechishga, bu boradagi imloviy kamchiliklarni bartaraf etishga, kelgusida atoqli otlarning ba’zi tiplarini tahlil qilishga yo‘l ochadi. Shuningdek, ishning nazariy xulosalari hamda tahlillari oliy o‘quv yurtlarida o‘zbek nomshunosligi bo‘yicha maxsus kurslarni o‘qitishda, unga

oid amaliy mashg'ulotlar olib borishda va atoqli otlarga oid lug'atlar tuzishda qo'l keladi.

Ishning metodologik asosi va tahlil usullari. Mazkur ishning metodologik asosini dialektik materializmning narsa va uning nomi, ma'no va shakl munosabatiga oid qarashlari tashkil qiladi. Shuningdek, o'zbek nomshunosligi, uning tarkibiy qismi bo'lgan o'zbek antroponimikasida keyingi yillarda bajarilgan fundamental tadqiqotlar, ulardagi nazariy va amaliy xulosalar hamda tadqiqot usullaridan ishda qo'llanma sifatida foydalanildi. Kuzatishlar, asosan, sinxron usulda olib borildi.

Tadqiqotning obyekti va manbasi. Ushbu magistrlik dissertatsiyasining tadqiqot obyekti hozirgi davr o'zbek antroponimiyasi tizimidagi ismlarning imloviy, adabiy va lahjaviy variantlari tashkil etadi. Bular umumo'zbek antroponimiyasi va mahalliy-mintaqaviy antroponimiyasi tizimini kuzatish orqali to'plangan materiallardir. Diplomant belgilashga muvaffaq bo'lgan ismlarning umumiy miqdori 1000 tadan oshadi. Shuningdek, ishda E.Begmatovning 1997- va 2007-yillarda nashrdan chiqqan "O'zbek ismlari" nomli ensiklopedik lug'ati mazkur ishda asosiy manba vazifasini o'tay oladi.

Tadqiqot ishining tuzilishi va hajmi. Tadqiqot kirish, uch bob, umumiy xulosalar hamda foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Ish kompyuter yozuvida 84 sahifani tashkil qiladi.

I BOB. VARIANTDORLIK VA VARIANTLARGA YONDOSH HODISALAR

1.1. Variantdorlikning sinonimiyaga munosabati

Variantdorlik hodisasi onomastik tizimga, jumladan, antroponimiya uchun ham xos. Ammo kuzatishlar bu tushuncha yuzasidan bir xil nuqtayi nazarda emaslikni ko'rsatadi. Buning ustiga variantdorlik hodisasiga yaqin turuvchi bir qator li-soniy vositalar, jumladan, sinonimlar, mutlaq sinonimlar, dubletlar, lug'aviy paralellar, "o'rtoq" ismlar, polionimlar kabi hodisalar ham mavjudki, ularning mohiyatini ochmasdan turib, variantdorlik tushunchasining mohiyatini to'la belgilash mumkin bo'lmaydi. Mana shularni hisobga olgan holda quyida ana shu hodisalar talqiniga qisqacha to'xtalib o'tamiz.

Onomastik tadqiqotlarda atoqli otlarning, shu jumladan, ismlar va toponimlarning sinonimik munosabatda bo'lishi haqida aytilgan fikr bor. Masalan, U.D.Bandaletov rus ismlaridagi emotsional va ekspressiv ma'noning ifodalanishi haqida yozar ekan, *Nikolay-Kolya-Nikoli-Nikolushka-Kolyan-Kolyay, Kolk* ismlarini sinonim nomlar deb hisoblaydi hamda oddiy so'zlardan antroponimik sinonimlar farqini quyidagicha belgilaydi: "Shunday qilib, antroponimlarning sinonimik qatoridagi tayanch so'zlar harakatchan va o'zgaruvchan. Bunda sinonimik qatordagi antroponimlarning o'ziga xosliklaridan biri turdosh otlardagi sinonimik qatordan farq qilishidir"¹.

Ozarbayjonlik nomshunos M.M.Guliyevaning antroponimlar sinonimiyasiga oid maxsus maqolasi mavjud. Uning fikricha, onomastik tizimda, shu jumladan, antroponimiyada variant otlar bor va unga yondosh bo'lgan sinonim ismlar ham mavjud. Ushbu muallif variantlar deb *Soltan//Sultan, Yadikar//Yadujar//Yedujar, Chelal//Chalol* kabi ismlarni tushunadi. Uning fikricha, bu kabi variantlar har ikki adabiy tilda qo'llaniladi, ba'zi hollarda ular adabiy til doirasidan tashqari bo'ladi².

¹Бандалетов В.Д., Долина Е.Р. Средство выражения эмоционально-экспрессивных оттенков в русских личных именах//Антропонимика.-М.: Наука, 1970,- С. 196.

²Гулијева М.М, Синоним антропонимлар//Азәрбајҹанономастикасы проблемлэри.ІІІ.-Бақы, 1990, 29-бет.

M.M.Guliyeva onomastik sinonimlarni variantlarga yondosh hodisa deb baholaydi. Uning fikricha, antroponimik sinonimlar o'z so'zdan yoki o'zlashtirilgan atoqli otdan bo'lishi mumkin. Muallif antroponimik sinonimlarning hosil bo'lishiga ko'ra quyidagicha guruhlaydi:

1. Ozarbayjon so'zlari asosida yuzaga kelgan sinonim ismlar: *Ajdʼyn-Ajaz, Yeter-Gʻyzbas-Besti, Gorxmaz-Donmez* kabi.

2. Ozarbayjon va arab tili so'zlari asosida: *Arslan-Esed-Hejder, Uldur-Kevkeb, Yeter-Kifojet, Sevinch-Fereh* kabi.

3. Ozarbayjon va fors so'zlari asosida: *Nazlʼy-Nazende, Ulduz-Sitare, Birche-Yekane, Hejran-Ahu* kabi.

4. Arab tiliga oid so'zlar asosida: *Ermed-Zahid, Sedaget-Vafa, Chennet-Rizvan, Huzran-Hesret* va b.

5. Fors tiliga oid so'zlar asosida: *Lolezar – Kulshan, Ruzbek – Xoshbext- Bekruz, Betijap – Xoshbext* va b.

6. Arab va fors so'zlari asosida: *Chavahir – Kovher, Ferrux – Xoshbext* kabi¹.

Keltirilganlardan tashqari, boshqa shakllar ham uchraydi: *Kulbaher – Kuljaz, Kulnar – Narkulu*; qo'shma ismlar: *Adikezel – Adʼyishirin* va b.

M.Guliyeva "Antroponimik sinonimlar adabiy sinonimlar kabi o'zaro yaqin yoki o'xshash ma'nolarni ifoda qiladi",² - deb fikr bildiradi.

M.Guliyevaning keltirilgan misollari umuman to'g'ri bo'lsa-da, "ism", "antroponim" o'rniga "ozarbayjoncha, arabcha, forscha" so'z deb ishlatilishi o'rinsizdir. Gap atoqli otlarga oid hodisalar haqida borganda atoqli otga oid tushunchani ifoda qiluvchi terminlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Shuningdek, maqolada keltirilgan ismlarning sinonim deb olinishi quyidagi savollarga javob berishni talab qiladi:

1. Keltirilgan ismlar antroponimik tizimda zahira sifatida sinonimlarmi yoki funksional holatdagi sinonimlarmi?

¹ Гулиева М.М. Ўша мақола, 29-30 бетлар.

² Ўша мақола, 29-30 бетлар.

2. Keltirilgan ismlarning o'rnini almashtirish mumkinmi (masalan, *Chavahir* nomli shaxs ismini *Korhar* nomli shaxs ismi bilan almashtirib bo'ladimi?)?

3. Keltirilgan ismlar o'zaro sinonim so'zlardan yasalgani uchun sinonimmi yoki atoqli ot sifatida sinonimmi?

Mana shu masalalarga maqolada javob yo'q. Biz bu savollarga keyinchalik to'xtalamiz.

Ma'lumki, tilshunoslikda sinonim, antonim, omonim haqida gap borganda, odatda, atoqli ot materiallariga e'tibor qilinmaydi. Bu ikki nuqtayi nazardan shunday qilinadi: 1) atoqli otlar lug'aviy ma'noga ega emas deb hisoblanadi va shu sababli ulardagi o'xshash va qisqarish ma'nolarni aniqlash qiyin deb hisoblanadi; 2) atoqli otlar tizimida sinonimlik, antroponimik va omonimlik munosabatlar mavjud emas deb hisoblanadi.

Shunga qaramasdan, bizning fikrimizcha, atoqli otlar, jumladan antroponimlarning tilga olingan lug'aviy ma'no kategoriya munosabatini leksikologik va semasiologik ishlarda tamoman chetlab o'tish o'rinsizdir. Mana shu ma'noda E.Begmatovning 1965-yili yozilgan "O'zbek antroponimikasi" mavzusidagi dissertatsiyada bu masalani maxsus tahlil qilgani diqqatga sazovordir.

E.Begmatovning fikricha, ismlar sinonimiyasi masalasi ikki hodisani hisobga olishni talab qiladi: a) ism asos bo'lgan so'z bilan undan yasalgan ism orasidagi munosabat (*Jura-Jo'ra* va b.) sinonimik ismlar orasidagi munosabat (*Jo'ra- Yo'ldosh*; *Hamdam-Do'st*; *Do'st- Rafiq*; *Jo'ra -Hamdam*; *Yor- Do'st*). Muallif fikricha, ism uchun asos so'z bilan undan yasalgan ism o'zaro sinonim bo'la olmaydi. Chunki ularni birining o'rniga ikkinchisini nutqda almashtirib qo'llash mumkin emas. Chunki ismga asos bo'lgan so'z umumlashma ma'no ifodalasa, ism individual, yakka-lovchi ma'no anglatadi¹.

E.Begmatov *Ko'rkam*, *Go'zal*, *Barno*, *Chiroy* ismlarini tahlil qilar ekan, bu tip ismlarning sinonimligini belgilashda ikki holatni hisobga olish lozim deb biladi: 1) bu ismlarning o'zbek onomastikasi tizimida antroponimik fond sifatidagi holati;

¹Бегматов Э. Ўзбек антропонимикаси. НД. –Тошкент, 1965, 11-бет.

2) bu ismlarning konkret shaxslarning atoqli otiga aylangan holati, ya'ni funksional kontekstual holati. *Ko'rkam, Go'zal, Barno, Chiroy* ismlari onomastik leksikada teng qimmatga ega va kishilarning ulardan xohlaganini ism sifatida tanlash imkoni bor. Mana shu o'rinda ushbu ismlar sinonim xususiyatiga ega. Chunki birining o'rniga ikkinchisini almashtirib tanlash imkoniyati mavjud. Ammo bu ismlar konkret shaxsning atoqli otiga aylangach, ularni almashtirish imkoni yo'qoladi, demak, keltirilgan tip ismlar antroponimik leksikada sinonimik holatda bo'lsa-da, funksional holatda o'zining bu xususiyatini yo'qotadi².

Demak, ismlar sinonimiyasi haqida antroponimik zahira (tanlash imkoniyati) sifatidagina gapirish mumkin. Ushbu holatni sxemada quyidagicha tushuntirish mumkin:

Laziz	sinonim emas	
Shirin	sinonim emas	
Tobli	sinonim emas	

Keltirilgan chizma hayotiy (real) antroponimiya tizimiga xos holatni ifodalaydi. Antroponimik fondagi sinonimik ismlar badiiy adabiyot tiliga, folklorga maqbulini tanlab qo'llash imkonini beradi va matnda muayyan uslubiy vazifa o'taydi. Bunda ham obraz, personaj uchun sinonimik ismlar imkoniyatidan tanlangan nom o'sha obrazning turg'un atoqli otiga aylanadi va uni ikkinchi nom bilan almashtirish imkoni bo'lmaydi. Bunda ismning uslubiy vazifasi tanlangan antroponimning motivativ ma'nosidan yuzaga keladi.

1.2. Onomastik parallellar

Onomastik tizimdagi variantdorlikka yaqin turuvchi lisoniy vositalardan biri tilshunoslikda “parallellar” deb yuritilayotgan tushunchadir. Ushbu masalaga to'xtalishdan oldin parallel tushunchasiga qisqacha izoh berishni lozim ko'ramiz. Mazkur so'z lotincha “parallilos” – “yonma – yon boruvchi” ma'nosini ifodalaydi². Ushbu tushuncha tilshunoslikda, geometriya va geografiya fanlarida ham mavjud

²Бегматов Э. Ўша иш. 12-14-бетлар.

²Словарь иностранных слов. – М.: СЭ. 1964. – С. 472.

bo‘lib, tilshunoslikda bu hodisa tagida bir xil qurilishga ega bo‘lgan gaplar, sintagmalar yotadi³. Mazkur tushunchaning keng tarqalgan ta’rifi geometriyaga xos bo‘lib, unga ko‘ra parallel chiziqlar “Bir tekislikda yotib, lekin kesishmaydigan to‘g‘ri chiziq”lardir⁴.

Lisoniy parallellar hodisasi, uning mohiyati, sinonimlar, invariant va variantlar munosabatiga doir ayrim mulohazalar R.M.Shukurovning “Parallel sintaktik butunliklar” nomli ishida uchraydi.

R.M.Shukurov ushbu muammo bo‘yicha fikr bildirgan bir qator olimlarning tadqiqotlarini tahlil qilar ekan, parallellik (parallellizm) hodisasini shunday ta’riflaydi: “Parallellizmlar, ya’ni funksiyasi va ma’nosi jihatdan yaqin, lekin bir xil shaklga ega bo‘lmagan leksik-morfologik hamda sintaktik birliklar umumxalq tilining bir necha davrlar davomida tarkib topgan ta’sirli va ifodali usullar majmuasi.

Yoki: parallellizm shakl va mazmun jihatdan bir-birini takrorlayotgan ikki yoki undan ortiq hodisa. Holat yoki narsaning yonma-yon qo‘yilishi orqali fikrni ifodalash usulidir”⁵. Ushbu muallif parallel vositalarga xos quyidagi xususiyatlarni ta’kidlaydi:

1.Parallellar vazifasiga va ma’nosiga ko‘ra yaqin bo‘ladi, ammo bir shaklga ega bo‘lmaydi.

2. Parallellizm tushunchasi sinonimiya tushunchasiga nisbatan kengroq va chuqurroqdir.

3.Parallellik ifoda mazmuni doirasida ham, ifoda vositasi doirasida ham sodir bo‘ladi.

4. Parallellizm va mazmuniy (semantik) parallellizmga bo‘linadi.

5. Sintaktik parallellizm (bir xil qolipli gap bo‘lagi, so‘z birikmasi) takrori – parallelligi va ma’no, tushuncha, fikr takrori tarzida namoyon bo‘ladi.

³Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов. – М.: СЭ. 1969. – С. 309.

⁴Ўзбек миллий энциклопедияси. 6 – жилд. – Тошкент. – 679 б.

⁵Шукуров Р.Ш. Параллел синтактик бутунликлар: филол. Фанл. Номзоди дисс. – Фарғона, 2005. – Б. 20.

6. Parallellizm- shakl va mazmuniga ko‘ra bir -birini takrorlayotgan ikki yoki undan ortiq hodisaning, holatning yonma-yon qo‘yilishi.

7. Mazmuny va shakliy parallellizm uslubi uchun zarur vosita bo‘lib, “Agar mazmuniy parallellizmlar tanlash imkoniyatini yuzaga keltirsa, shakliy parallellizm, birinchidan, nutqni ifodali va jozibador, musiqiy va ohangdor qiladi, ikkinchidan, matnning ta’sirchan hamda esda saqlanib qolarli bo‘lishni ta’min etadi”.

8. Sinonimlar ham parallellizmlardir. Biroq, hamma sinonimlar ham parallellizm bo‘lolmaydi, parallellizm sinonimiya tushunchasiga keng tushunchadir.

9. Sintaktik sinonimiya va sintaktik variantlar qaysidir umumlashma xususiyatiga ko‘ra, ma’lum umumiylikka-invariantga birlashadi.

10. Sintaktik sinonimiya va sintaktik variantlar bir-birini inkor etmaydi, bitta umumiylikka birlashadi. Shuni hisobga olgan holda ularni “parallel sintaktik butunliklar” deb atash mumkin⁶ va boshqalar.

R.M.Shukurov yuqorida qayd qilingan xususiyatlarga asoslanib, sinonimiya, variantlar va parallelliklarni bir tushuncha zahiriga birlashtiradi hamda buni shunday talqin qiladi: “Ayrim tadqiqotchilar tomonidan sintaktik sinonimiya yoki sintaktik variantlilik hamda sintaktik parallellizm deb nomlangan. Ushbu hodisalarni umumiylik, xususiylik, mohiyat va shakl dalektikasidan kelib chiqib, parallel sintaktik butunliklar nomi bilan birlashtirish va ularni ana shu termin ostida o‘rganishni maqsadga muvofiq deb topdik”.

Bizning nazarimizda, sinonimiya, variantlar va parallellikni yuqoridagi kabi bir umumiylikka birlashtirishda munozarali o‘rinlar bor. Chunki qayd qilingan tushunchalar paydo bo‘lish manbaiga ko‘ra ham, sababiga ko‘ra ham, lisoniy (moddiy) materialiga ko‘ra, tanlab olib ishlatish imkoniyati va bunday ehtiyojiga ko‘ra ham, funksional-uslubiy, ijtimoiy-kommunikativ vazifasiga ko‘ra ham, til tizimidagi tarmoqlanish (differensiatsiyasi) jihatidan, bir til va birdan ortiq tillarda

⁶Шукуров Р.Ш. Параллел синтактик бутунликлар: филол. фанл. номзоди дисс. – Фарғона, 2005. – Б. 13-20.

(qardosh tillar koʻzda tutiladi) mavjudligi jihatidan ham farqli hodisalardir. Mana shunday farq, ayniqsa, sinonimiya, variantlilik va parallelliklarni onomastik material asosida oʻrganilgandagina aniq koʻrinadi.

Parallellik va parallelizm tilning barcha sathlari uchun xosdir. Masalan, leksikologiyada lugʻaviy parallellar haqida gapiriladi. Chunonchi, oʻzbek va moʻgʻul leksikasiga xos parallellar haqida professor E.Begmatov quyidagilarni yozadi: "...oʻzbek tili leksikasida shunday soʻzlar ham borki, ular ikki tilda ishlatiladi. Masalan, *siyreg* (*siyrak*), *taylag* (*tayloq*), *tang* (*tanglay*), *tomuv* (*tumov*), *elchin* (*elchi*), *ert* (*erta*), *xox* (*koʻk*), *xunjut* (*kunjut*) soʻzlari oʻzbek tilida ham, moʻgʻul tilida ham bor va shu tillarda bir xil yoki yaqin maʼnolarda qoʻllaniladi. Agar moʻgʻul tili turkiy til, qardosh deb tushunilganida, keltirilgan soʻzlar umumturkiy leksik qatlamga mansub boʻlur edi. Lekin tilshunoslikda oʻzbek va moʻgʻul tillari boshqa-boshqa sistemaga mansub tillar deb qaraladi. Bu soʻzlarni moʻgʻul tilidan oʻzbek tiliga qabul qilingan yoki turkiy tillardan moʻgʻul tiliga oʻtgan, yaʼni qabul qilingan deb boʻlmaydi. Shu sababli bunday soʻzlar tilshunoslikda "oʻrtoq soʻzlar", "turk-moʻgʻul leksik parallellari" deb qaraladi⁷.

Tilshunoslikda lingvistik parallellar haqida leksika, terminologiya, ayniqsa, geografik terminlar misolida anchagina ishlar yozilgan. Endi ana shular, yaʼni toponimik va antroponimik parallellar haqida yozilgan ayrim ishlarga qisqacha toʻxtalamiz.

G.A.Meshadiyev ozarbayjon, oʻzbek va qirgʻiz tillari toponimiyasidagi "leksik parallellar" haqida gapirar ekan, misol tariqasida *Agdash* (ozarb.) – *Oqtosh* (oʻzbekch.), *Guba* (ozarb.) – *Quva* (oʻzbekch.), *Polady* (ozarb.) – *Poʻlatchi* (oʻzbekch.) kabi dalillarni keltiradi. Keltirilganlardan *Poʻlatchi* nomi lugʻaviy emas, morfologik parallelga misol boʻlishi mumkin. Ushbu muallif "parallel" tushunchasini izohlamaydi, keltirilgan toponim va antroponimlarni "bir xil nomli antroponim va toponimlar" deb ataydi.

⁷ Бегматов Э. Ҳозирги ўзбек адабий тилининг лексик қатламлари. – Тошкент: Фан. 1986, - Б. 55.

M.B.Yusupov, S.K.Kerimovlar ozarbayjon va o'zbek tilidagi toponimik parallellar haqida yozishar ekan, topoparallellarning yuzaga kelish sabablarini ko'rsatishga harakat qilishgan va ular quyidagilardan iborat deb hisoblaydi:

1. Ozarbayjon va o'zbek tillari bir til – turkiy tillar oilasiga mansub bo'lgani uchun ayrim obyektlarning bir xil, o'xshash so'zlar bilan bir xilda nomlanishi, tabiiy.

2. Ozarbayjon va o'zbek xalqi tarkibiga kirgan urug' va elatlarning nomlari (etnonimlar)da umumiylik mavjud. Shu sababli toponimning lug'aviy asosini tashkil etuvchi mushtarak etnonimlar har ikki tilda mushtarak etnonimlarni tug'dirgan.

3. Ma'lumki, arablar bosqini har ikki tilda ham o'z izini qoldirgan. Ozarbayjon va o'zbek toponimiyasida bir xil shakli arabcha yoki mo'g'ulcha so'zlardan hosil bo'lgan toponimlar uchraydi: *Ziyarat (tog')* - *Ziyarat (qishloq)*⁸ kabi va b.

Mazkur mualliflarning keltirilgan fikrlari umuman to'g'ri bo'lsa-da, toponimik parallellarni tug'dirishda, shuningdek, joy, obyektning tabiiy holati, obyektiv belgilari ham rol o'ynishi qayd qilinmagani nuqsonlidir.

Taniqli qozoq tilshunosi T.Joniuzoqov qozoq va mo'g'ul tillarida uchraydigan mushtarak etnonim va toponimlarni “parallellar” deb ataydi hamda *nayman, kerey, jaloyir, mang'it, tulengut* kabi etnonimlarni, shuningdek, *Bura, Kunonbay, Bo't, Tayloq, Do'nanboy* kabi ismlarni misol sifatida keltiradi⁹.

Ushbu muallif fikricha, quyidagi ismlar mo'g'ul, turkiy hamda qozoqcha parallellardir. Gap parallel vositalar haqida borar ekan, atoqli otning ham mo'g'ulcha, ham qozoqcha shakllarini yonma-yon berish maqsadga muvofiqdir. Keltirilgan misollarda ismning qozoqcha shakli berilgani holda qiyos uchun

⁸ Юсупов Ю.Б., Керимов С.К. Озарбойжонча ва ўзбекча топонимик параллеллар // Ономастика бўйича Ўзбекистондаги конференция материаллари. – Жиззах, 1985. – Б. 11-12.

⁹Жониузоқов Т. Қозоқ тили ономастикасининг асосий муаммолари // Филол. Фанл. Докт. Диссер. Автореферати. – Алма – Ата. 1976. – Б. 37-38.

lugʻaviy asos boʻlgan turdosh soʻz ham beriladi. Chunki gap leksik parallellar emas, onomastik parallellar haqida ketayotgani maʼlumdir.

Antroponimik va toponimik parallellar haqidagi yuqorida tahlil qilingan ishlarda aytilgan fikrlardan quyidagi baʼzi xulosalarni chiqarish mumkin:

1. Onomastik parallellar shaklan bir xil yoxud oʻxshash nomlarning bir vaqtning oʻzida turli tillarda uchrashidir.

2. Parallel nom uchraydigan tillar bir sistemaga mansub qardosh til yoki turli tillarda uchrashidir.

3. Parallel nomlar oʻz qatlam materiali (masalan, ikkita turkiy tilda uchraydigan turkiy qatlamga mansub nom), oʻzga tillarda oʻzlashgan soʻzlarda hosil boʻlgan nom: *Muhammad (arabcha)*, *Navroʻz (forscha)* ismlarning oʻzbek va qozoq tillarda uchrashidir.

4. Parallel nomlar ikki yoki undan ortiq til onomastik muhitda mustaqil yashaydi va har bir tilning oʻz onomastik birligi sifatida yashaydi.

5. Onomastik parallellar mustaqil tillararo mavjud boʻluvchi hodisadir. Ammo parallel nomlar bir til doirasidagi lahja va shevalar doirasida ham mavjud boʻlishi mumkin. Masalan, *Muhammad*, *Tursun* ismlari oʻzbek tilining qarluq, qipchoq va oʻgʻuz shevalarida uchraydi. Ammo ayrim shevalarning lisoniy xususiyatiga moslashishi mumkin: *Bekturdi* – *Bakdurdi* (oʻgʻuz), *Zarif* – *Zerif* (oʻgʻuz) kabi. Bunday holda ismning lahjaviy variantlari yuzaga keladi.

6. Turkiy tilda qadimiy davrlarda paydo boʻlgan nom shakli mustaqil turkiy tillar (oʻzbek, qozoq, qirgʻiz, turkman va b.) shakllangach, ularning onomastik tizimida barobar saqlanib qoladi. Masalan, *Oyxon*, *Oysuluv*, *Arslon* ismlari turkiy tillar onomastikasining aksariyatida saqlanib qolgan va ular antroponimik paralellarni yuzaga keltirgan.

7. Bordi-yu, parallel nomlar qardosh tillararo boʻlsa, nomning lisoniy materiali shaklan oʻxshash, bir xil boʻladi. Masalan, oʻzbek, qozoq, qirgʻiz, turkman tillaridagi *Turdi*, *Tursun* ismlari, bordi-yu, parallel nom turli sistemadagi tillarda yuzaga kelsa, nomning lisoniy materiali har xil boʻlishi mumkin. *Oqsuv*

(o'zbekcha) – *Belaya voda* (ruscha) kabi. Bunday nomlarni ma'noviy (semantik) parallellar deyish mumkin.

8. Qardosh va qardosh bo'lmagan tillardagi ayrim onomastik parallellar uchinchi bir tildan olingan ismlar hisobiga yuzaga kelishi mumkin. Masalan, fors tilidan o'zlashgan *Dehqon* ismining bir qator turkiy tillarda mavjudligi birinchi holatga; *Klara*, *Marat*, *Telman* ismlarining rus va turkiy tillarda uchrashi esa, o'z navbatida, ikkinchi holatga misol bo'la oladi.

Xullas, umuman onomastik, antroponimik, toponimik parallellar atoqli otlar tizimining o'ziga xos qonuniyatlardan biridir.

1.3. Qo'shnomlilik, ko'pnomlilik va onomastik variantdorlik

Onomastik parallellar haqida gap ketar ekan, mazkur hodisaga yaqin turuvchi va yondosh bo'lgan ayrim lisoniy birliklarni ham ko'zda tutishga to'g'ri keladi. Bular quyidagilar:

1. Qo'shnomlilik hodisasi.
2. Ko'pnomlilik hodisasi (polinomiya), ya'ni polionimlar.
3. Bitta ismlarning erkak va ayollarning atoqli oti sifatidagi shakllari.
4. Joyning eski nomini o'zgartirishdan yuzaga kelgan eski va yangi nomlar munosabati.
5. Toponim va nomlarning o'zbekcha hamda ruscha yozilishidan yuzaga imloviy farqli shakllar.

Endi yuqorida keltirilganlarga qisqacha to'xtalamiz. Atoqli otlar tizimining xususiyatlaridan birini obyekt yoki shaxslarning bir vaqtning o'zida birdan ortiq nomga – qo'shnomga ega bo'lishi tashkil qilishini R.Xudoyberganov¹⁰ alohida e'tirof etadi. Ayrim hollarda geografik obyektlarni xalq tilida eski va yangi nom bilan atash, chaqoloqni asosiy ismidan tashqari boshqa bir qo'shimcha ism bilan yuritish hollari mavjud.

¹⁰Худойберганов Ровшан Юсупович. Ўзбек антропонимияси тизимининг вариантдорлиги. Филол. фанл. номз. диссерт.-си. – Тошкент, 2008. – Б. 41.

Joy nomlarida, shuningdek, antroponimlarda obyekt yoki shaxsni asosiy nomidan tashqari laqab nom bilan atash ham uchraydi. Masalan, *shaxs Mahmud (ismi) – Oqboy (laqabi), Muhammad (ismi) – Qozoqboy (laqabi), Manzura (ismi) – Qalamqosh (laqabi)* va boshq... Ism va laqablar shaxsning asosiy ismi bilan yonma-yon yashaydi hamda qo'shnomlilikni tug'diradi. Qo'shnomlar bir vaqtning o'zida, bitta shaxsning atoqli oti sifatida yonma-yon yashovchi hodisalardandir.

Ular shaklan va ma'nosiga ko'ra boshqa-boshqa nomlar bo'lgani uchun variant nomlarga kirmaydi. Ammo bir paytda, bitta obyekt yoki shaxsning nomi sifatida yonma-yon qo'llanilgani uchun parallel yashovchi nomlarga yaqin turadi. Lekin bu tip nomlarni parallellarga kiritish mumkin emas, sababi ular bitta nomning sheva yoki lahjalardagi ko'rinishi emas, balki yakka, bitta obyektning qo'sh nomidir.

Ozarbayjon tilshunosi M.N.Chobanov bitta shaxsning ham rasmiy, ham norasmiy nomga ega bo'lishini *polinom antroponimlar* termini ostida tahlil qilgan¹¹. Uning ta'kidlashicha, ba'zan chaqoloqni asosiy nomidan tashqari, uni erkalab, qadrlab boshqa nom bilan ham atay boshlashadi. Masalan, *Balaxanim – Togtu, Gurbanali – Duma, Ashir – Ega* kabi. O'sha muallifning qayd qilishicha, shaxsning rasmiy nomi o'rniga hujjatlarda uning qo'shimcha ikkinchi nomi yozilib qolgan hollar uchraydi. Masalan, asosiy nomi *Baniet* bo'lgan, hujjatlarda uning (suyish, erkalash tufayli berilgan) Gara ismi rasmiylashtirilgan¹².

M.N.Chobanov qo'shnomlilikni tug'diruvchi hodisa go'dakni suyish, erkalash tufayli yuzaga keladi deb hisoblaydi. Shuningdek, R.Xudoyberganov ham o'zining nomzodlik dissertatsiyasida shunga o'xshash holatni keltirib o'tadi. Uning yozishicha, bir oilada chaqoloq tug'ilishi bilan unga Dilfuza deb nom beriladi va uning tug'ilganlik guvohnomasida rasmiylashtiriladi. Biroq uning ota-onasi unga shu kundan boshlab, Marqa qiz deb, uning nomini Moqqi deb atay boshlaydilar. Vaholanki, o'sha qiz maktabga birinchi sinfga o'qishga borgandan keyin o'zining rasmiy ismi Dilfuza ekanligini biladi. Shundan keyin uning sinfdoshlari va

¹¹Чобанов М.Н. Озарбойжон атропонимияси асослари. – Тбилиси, 1983. – Б. 45.

¹²Ўша муаллиф, ўша ерда. –Б. 46.

ustozlari Dilfuza deb atay boshlashgan, uyida ota-onasi Moqqi deya davom qildirishgan hamda bu qo'shnomlilikni tug'dirishga zamin yaratgan¹³. Bu to'g'ri, ammo ko'p hollarda qo'shnomlilik tabu va evfemistik udumlar bilan bog'liq bo'ladi. Kishilik jamiyatida shunday xalqlar ham borki, ularda esa qo'shnomlilikni tug'diruvchi omillar turlicha bo'ladi. Masalan, chaqaloqni uning dushmani deb hisoblanuvchi, bola o'lim, ofat keltiruvchi yovuz kuchlardan asrash, ularni adashtirish maqsadida bolaning asosiy nomi yashirin tutiladi va u boshqa nom bilan yuritiladi. Bunday holatlar qo'shnomlilikni tug'diradi. Shuningdek, ko'pgina xalqlarda, ayniqsa, turkiy xalqlarda yoshlarning o'zidan kattalarning nomini aytishi, kelinlarning o'zi tushgan oiladagilarning nomini aytmaslik odatlari mavjud. Mana shunday hollarda yangalar o'z qayinlari va qayinsingillariga qo'shimcha laqab – nom murojaat qilishadi. Masalan, *Qorabola*, *Mullayigit*, *Qorako'z*, *Qorasoch*, *Mullaboy*, *Erkatoy*

Dastlab oddiy so'z, ibora bo'lib, tug'ilgan bu kabi lisoniy birliklar keyinchalik bolaning ismiga aylanib ketadi va natijada qo'shnomlilik yuzaga keladi. Ayrim hollarda bolaning laqab nomi uning asosiy ismini iste'moldan siqib chiqargan hollar (ayniqsa, o'tmishda) ko'p bo'lgan.

Qo'shnomlilik hodisasi haqida rus tilshunosi T.I.Teplyashina qiziqarli fikrlar bildirgan. U ushbu tushunchani “Двойные имена” termini ostida tahlil qilgan: “Qo'shnom (Двойные имена) bitta shaxsning bir vaqtning o'zida parallel holda ikkita nom bilan atalishidir”¹⁴. Uning talqiniga ko'ra udmurdlar antroponimiyasida qo'shnomlilik ikki xil usulda yuzaga keladi: 1. Bola xristiancha ism bilan ataladi, bu asosiy nomi va bola yana qadimiy udmurdcha ism “языческие имена” bilan nomlanadi;

2. Bola kasal bo'lganida uning sochidan kesib olib yoqiladi va nomi

¹³Худойберганов Ровшан Юсупович. Ўзбек антропонимияси тизимининг вариантдорлиги. Филол. фанл. номз. диссерт.-си. – Тошкент, 2008. – Б. 43.

¹⁴ Тепляшина Т.И. Удмурдларда қўшномлар // Ўтмишда, ҳозирда ва келажакдаги шахс номлари. – М.: Фан., 1970. – Б. 163.

o'zgartiriladi, natijada bolani ikki nom bilan atay boshlashadi¹⁵.

T.I.Teplyashina keltirilgan ikki nomning amalda parallel qo'llanilishini aytadi. Demak, bu nomlar parallel ismlarga namuna bo'la oladi, chunki ikki nom bir vaqtning o'zida yonma-yon, parallel iste'molda bo'ladi. Udmurdlar antroponimiyasida qayd qilingan qo'shnomlilik xususiyati komlar, kompermyaklar, mariylar, mardvalar antroponimiyasida ham mavjud bo'lgan¹⁶.

Xullas, rasmiy xristiancha ismni udmurdcha shaklga keltirib, o'zgartirilgan holda talaffuz qilish natijasida ham bitta ismning udmurdcha paralleli yuzaga kelgan: masalan, *Andrey – Gondыр, Nikolay – Kokol, Gavriel – Gabey, Gagi* kabi. Bunday ismlar ham parallel qo'llanilgan.

Shuningdek, qo'shnomlilikka yaqin turadigan hodisalardan biri – ko'pnomlilikdir. Bu ko'proq toponimik tizimda uchraydi. Taniqli toponimist H.Hasanov o'zi shlarida mana shunday variant nomlarga to'xtalgan. Chunonchi, Kaspiy dengizi o'tmishda 26 tadan ortiq nomlar bilan yuritilgan: *Hazar dengizi, Saroy dengizi, Sarband dengizi, Xorazm dengizi, Oq dengiz, G'uz dengizi, Jurjon dengizi* va boshqalar. *Qoraqum cho'li – G'o'z cho'li, Turkman cho'li, Qorajuzg'un cho'li, Turkiston cho'li, Xorazm dashti, Yettiququm, Amul cho'li, Marv cho'li, Saraxs cho'li, Xuroson cho'li* va hokazo. *Sirdaryoning O'zgan suvi, Farg'ona daryosi suvi, Xo'jand suvi, Shom daryosi, Farob daryosi, Qorachuk o'kuz, O'tror daryosi* kabi nomlar bo'lgan¹⁷.

Ko'pnomlilik hodisasi bitta obyektning ikki va undan ortiq nomi sifatida qo'shnomlilik hodisasiga yaqin turali. Ammo qo'shnomlilik va ko'pnomlilik paydo bo'lish davriga ko'ra farqlanadi. Qo'shnom bitta obyekt yoki shaxsning aynan bir vaqtdagi nomi bo'lsa, qo'shnomlilik biror obyektning turli davrlarda paydo bo'lgan nomlaridir. Bu jihatdan qo'shnomlar parallel nomlardan ham farqlanadi, chunki parallel nom bir vaqtning o'zida iste'molda bo'lgan nomlardir.

¹⁵Тепляшина Т.И. Удмуртларда кўшномлар // Ўтмишда, ҳозирда ва келажакдаги шахс номлари. – М.: Фан., 1970. – Б. 163.

¹⁶Худойберганов Ровшан Юсупович. Ўзбек антропонимияси тизимининг вариантдорлиги. Филол. фанл. номз. диссерт.-си. – Тошкент, 2008. – Б. 44.

¹⁷Ҳасанов Ҳ. Ўрта Осиё жой номлари тарихидан. – Тошкент: Фан, 1965. –Б. 6-8.

Ko'pnomlardan biri sinxron holatda, masalan, ba'zi tarixiy davrlar haqida asarlar yozilganida, badiiy asarlarda o'tmish davri tasvirlanganida, shuningdek, tarixga oid ilmiy-tadqiqot matnlarida tilga olinishi mumkin. Bu holat mazkur ismning biror jug'rofiy obyektga tarixning turli davrlarida bir yoki bir necha xalqlar tomonidan berilgan birdan ortiq atoqli otlaridir. Ko'pnomlilikni tashkil qilgan nomlardan bitta yoki ikkitasi hozirgi davr iste'molida bo'lishi mumkin, qolganlari arxaik nomlarga aylangan holda uchraydi hamda onomastik arxaizmlardan iborat bo'ladi.

Odatda, obyekt eski yoki yangi nomga ega bo'lar ekan, eski nom darrov iste'moldan chiqib ketmaydi va yangisi bilan ma'lum muddat yonma-yon qo'llanaveradi. Bu holat onomastik parallellikni tug'diradi. Ammo bu o'rinda ham turli hududlarda uchraydigan parallel nomlar emas, bir hududda bir tilda (o'zbek tilida) uchraydigan hamda bitta obyektning qo'sh atoqli oti bo'lgan nomlar haqida gap bormoqda. Ammo toponimiyada turli hududlarda, turli, boshqa-boshqa obyektlarga berilgan nomlar ham uchraydi. Masalan, sho'rolar davrida *Komsomol*, *Lenin*, *Kommunizm*, *Pobeda*, *Sotsializm* singari mafkuraviy nomlar, *Lenin*, *Lenin yo'li*, *Leninobod*, *Kirov*, *Kuybishev* kabi memorial nomlar o'sha davrlardagi barcha respublikalar hududida, bitta respublikaning turli hududlarida takror-takror uchrar edi. Demak, bu tip toponimlar turli milliy tillar toponimik tizimida hamda bitta milliy til toponimiyasida mavjud bo'lgan topoparallellarga kiradi. Mana shu tip toponimlar hozirgi davrda yangidan qo'yilayotgan toponimlarda ham uchraydi. Masalan, *Navro'z*, *Mustaqillik*, *Navoiy*, *Istiqlol*, *Guliston* kabi nomlarni O'zbekistonning aksariyat hududlarida uchratish mumkin. Mazkur nomlarning har biri mustaqil obyektlarning atoqli oti bo'lgani, mustaqil toponimlar hisoblangani uchun ham, onomastik parallellar xususiyatiga egadir.

Onomastik parallellarga yondosh bo'lgan xususiyatlardan yana biri erkak va ayollar ismining o'zaro munosabatiga daxldordir. Ma'lumki, ko'pgina tillarda o'g'il bola va qiz bolaga bir xil ism qo'yish yoki ayollar ismini erkaklar ismi shaklidan hosil qilishi uchraydi. Bu hodisa o'zbek antroponimiyasida ham

sermahsuldir. Quyidagi chizmalarda keltirilgan nomlar o‘zbek tilida erkak hamda ayollarga bir xilda beriluvchi ismlardandir.

Erkaklar ismi	Ayollar ismi
Iqbol	Iqbol
Izzat	Izzat
Karomat	Karomat
Yodgor	Yodgor
Toji	Toji
Izzat	Izzat va b.

Quyidagi chizmada esa ayollar ismi shakllarining erkaklar ismidan hosil qilingani o‘z ifodasini topgan:

Erkaklar ismi	Ayollar ismi
Avaz	Avazjon, Avazgul
Aziz	Aziza
Izzat	Izzatoy
Amin	Amina
Karim	Karima
Nishon	Nishongul, Nishona va b.

Keltirilgan tip nomlarning birinchi guruhini jinsiy jihatdan farqlanuvchi alohida-alohida mustaqil shaxsning atoqli oti sifatida (*Karomat – o‘g‘il bola*, *Karomat – qiz bola*) va bir nomning parallel qo‘llanishiga kiritish mumkin, ammo variant nomlarga kiritib bo‘lmaydi. Chunki har ikkalasi bir xil shaklda. Parallellik, odatda, bitta (o‘xshash) lug‘aviy birlikning turli makonda (turli tilda, lahjada) funksiya o‘tashidir. Variant esa bitta lisoniy birlikning har xil, farqli shaklga ega bo‘lishidir.

Keltirilgan ikkinchi chizmada biz bitta ismning farqli shakllarini ko‘ramiz: *Nishon(o‘g‘il bola)* va *Nishongul, Nishona(qiz bola)* kabi. Demak, bu holda erkaklar ismidan ayollarga mos keluvchi ism shakllari hosil bo‘lmoqda. Mana shu ma’noda bu ismlar erkaklar ismining ayollarga moslashgan shakli (asosan,

morfologik, sintaktik) variantlaridir. Bu ismlar antroponimik parallelga kira olmaydi, chunki ular erkak va ayollar ismi sifatida shaklan farqlidir. Parallellik, asosan, bu nomlar o'zaginging takrorlanishida ko'rinadi.

Ayrim tadqiqotchilar ismlarning erkaklar va ayollar ismi shakllarini parallel deb tushunishadi. Chunonchi, A.V.Superanskaya rus tilidagi *Avgust – Avgustina, Aleksandr – Aleksandra, Valentin – Valentina, Yevgeniy – Yevgeniya* tipli nomlarni “erkak va ayollarning parallel ismlari” deb yuritiladi hamda bunday nomlarning ro'yxatini keltiradi¹⁸.

Bu tip ismlarning antroponimik parallellar bo'la olmasligini aytib o'tdik. Ammo bu o'rinda bir xususiyat mavjud. Ushbu nomlar shaklan farqli bo'lsa-da, erkak va ayollarning ismlari sifatida bir xil ma'no ifodalaydi. Aynan mana shunga o'xshash holatlar tadqiqotchilarni chalg'itsa kerak.

O'zbek tilida erkak va ayollar ismiga qo'shilib, erkalash-kichraytirish shakllarini hosil qiluvchi qo'shimchalarga M.Tursinpo'latov va X.Jo'rayevlar fikricha quyidagilar kiradi:

1. Erkaklar ismiga qo'shilib hurmat munosabatini ifoda qiluvchi qo'shimchalar:

1. -bek: (Otabek, Hurmatbek), -boy: (Tursinboy, Qodirboy), -jon: (Valijon, Dilshodjon, Botirjon), -mirza (Boymirza), -qul: (Mustafoqul, Qodirqul) kabi.

2. Ayollar ismiga qo'shiluvchi affikslar: -xon: (Gulnozxon), -niso: (Shahriniso, Oyniso), -bib: (Hojarbib, Xadichabibi), -bonu: (Xurshidabonu) va boshqalar.

3. Shuningdek, erkalash-kichraytirish qo'shimchalari orqali o'simliklar nomiga nisbat berilgan: masalan, (*Lolaxon, Rayhonoy, Gulnoz, Sarvinoz, Sumbuloy*), qimmatbaho toshlardan hosil qilingan ismlarga (*Oltinoy, Gavharoy, Yoqutoy, Zarkumush*), zoonimlardan hosil qilingan ismlarga (*Bo'riboy, Xo'rozboy, Lochinoy*) qo'shilishi mumkin. Yuqorida keltirilgan fikrlarda ayrim noaniqliklar mavjud: 1) -boy, -qul, -niso qo'shimchalarining erkalash-kichraytirish

¹⁸Суперанская А.В.Эркак ва аёлларнинг параллел исмлари // Ономастика ва грамматика. – М.: Фан, 1987. – Б.80-82.

ifodalayotgani shubhali; 2) mualliflar qo‘shimchani ism komponenti bo‘lib kelgan leksema yoki affikslardan farqlamaydi: chunonchi –niso, -oy, -bib, -bonu, -bek, -noz (*Sarvinov*)¹⁹ va boshqalar.

E.Begmatov va G‘.Sattarovlar o‘zbek mintaqaviy antroponimiyasining dialektal elementlari yuzasidan so‘z yuritar ekan, lahjaviy antroponimiyaning xarakterli xususiyatlaridan birini unda ismlarning ayrim xarakterli qisqartma shakllari uchrashi deb ko‘rsatadi va shunday ismlarni misol tariqasida keltiradi: O‘tam (O‘tamurod, O‘tanazar), Ulbus (Ulbo‘sin, O‘g‘ilbo‘lsin), Nurash (Nurulla, Nurali), Oysam (Oysanam), Ernaz (Ernazar), Enash (Enagul, Enaqiz, Enajon), Do‘sam (Do‘stmurod, Do‘stmuhammad) va boshq.

Ismlarning erkalash-kichraytirish, umuman, ismlar variantdorligini yuzaga keltiruvchi omillar to‘g‘risida tilshunoslikda hali izchil, yagona fikr shakllanmagan. shu sababli ham o‘zbek va boshqa ismlarning qisqarishi hamda erkalash shakllarini ifoda etuvchi terminlarni belgilashda bir xillik mavjud emas.

Ismlar variantlashuvi uchun u keng ravishda qo‘llanilishi, jamoaga keng tanish bo‘lishi lozim. Variantlar turlicha bir davrga oid, turli davrlarga oid, uslubiy va situativ, turli til jamoasi doirasida, lahja ichida yoki turli lahjalararo, shuningdek, adabiy va rasmiy, o‘z ism va o‘zlashma ismlararo bo‘lishi mumkin.

¹⁹ Турсинпўлатов М., Жўраев Х. Эркалар ва аёллар исми билан боғлиқ бўлган эркалаш-кичрайтириш қўшимчалари // Ўзбекистонда ономастика масалалари бўйича материаллар. - Тошкент, 1985. – Б. 51-52.

I BOB bo'yicha xulosalar

1. Xullas, til tizimida, jumladan, antroponimiyada variant, variantdorlikka yondosh bo'lgan hodisalar mavjud. Bular sinonimlar, parallellar, qo'shnomlilik va ko'pnomlilik va boshqalar.

2. Variantlilik masalasi qayd qilingan lisoniy hodisalardan farqlanadi. Variant, variantdorlik, invariant, ya'ni bir asosiy (asos) antroponimdan nomning qo'llanilishi, funksional holatlarda yuzaga kelgan turli, farqli shaklaridir.

3. Atoqli otlar, jumladan, antroponimik tizimdagi variantdorlik bitta nomning turli shakllariga ega bo'lishidir. Bunday shakllarga ismlarning kichraytirish shakllari, erkalash shakllari hamda lahjaviy shakllari kiradi. Ismlarning variantlari bitta sheva, bitta lahja, bitta til, adabiy til va lahjalar doirasida uchraydi.

4. Onomastik sinonimlar hamda parallellar adabiy norma nuqtayi nazaridan inkor etilmaydi va ularni bartaraf qilish haqida fikr yuritilmaydi.

5. Sheva va lahjalararo onomastik variantlar mavjud bo'lib, ular o'sha sheva va lahja tizimida adabiy norma nuqtayi nazaridan baholanmaydi va bartaraf etilmaydi. Ularni normativ baholash bu nomlar adabiy til doirasiga o'tgandagina yuz berishi mumkin. Demak, onomastik variantlarning adabiy til doirasidagi ko'rinishlari adabiy norma nuqtayi nazaridan baholanishi va me'yorlanishi mumkin.

6. Antroponimik hamda toponimik variantlarning hosil bo'lish usuli va lisoniy materialiga ko'ra, fonetik variantlar, fonologik (talaffuz) variantlar, morfologik variantlar, sintaktik variantlar hamda leksik variantlarga bo'linadi. Shuningdek, adabiy til doirasida imloviy variantlar ham mavjud.

II.BOB. ISMLARNING IMLOVIY VARIANTLARI

2.1. Orfografiya qoidalari va ilmiy-tadqiqot ishlarida antroponimlar imlosiga munosabat

O‘zbek adabiy tili doirasida uchraydigan, adabiy til matnlari bo‘lgan yozma nutqda mavjud har qanday so‘z muayyan imloviy qoidalarga bo‘ysungan holda yozishni talab qiladi.

Shunga qaramasdan, o‘zbek adabiy tilining mavjud imlo qoidalari, asosan, turdosh so‘zlar, bosh harflarning yozilishi qoidalashtirilib kelindi, atoqli otlarning imlosi masalalari doimo chetlab o‘tildi. Bu hol atoqli otlar, jumladan, antroponimlarning yozilishida xilma-xillikni, imloviy variantlar, to‘g‘ri va noto‘g‘ri imloviy shakllarni tug‘dirayotgan asosiy sababdir.

“O‘zbek orfografiyasining asosiy qoidalari”ning birorta moddasi ham ismlarning imlosiga bag‘ishlanmagan va joriy qoidalarda ismlardan deyarli misol ham olinmagan. Qoidaning y harfining yozilishiga daxldor 2-paragrafda **Miryusuf, Matyoqub, Mirhayo** ismlarida ‘ belgisining yozilmasligi, familiya qo‘shimchasi-ning imlosiga oid 49-paragrafda **Turg‘unboyev, Turg‘unboyeva** familiyalari, ajratib yoziladigan so‘zlarga doir 58-paragrafda laqab va mansablar bilan kelgan ba’zi ismlar (**Ismoil qassob, Abdurahim naychi, Azim kulol** va boshq.), atoqli otlarning bosh harf bilan boshlanishiga oid qoidalarining 63-paragrafida **Alisher Navoiy, Hamid Olimjon** nomlari tilga olingan, xolos. Natijada antroponimlarning imlosi bilan bog‘liq bir qator murakkab masalalar imlo qoidalari doirasidan tashqarida qolgan. Chunonchi: **Quvondiq, Sog‘indiq**, ammo **Sevindik, To‘xtamish** tipli ismlaridagi qo‘shimchalar, **Tursun, Unsun, Yursin, Jovqach** va **Yovqach, Qoryog‘di** va **Qorjovul** kabi nomlar, **Abdulla, Sa’dulla** va **Abdullo, Sa’dullo** kabi shakllar va mana shunga o‘xshash boshqa xususiyatlar imloda variantdorlik, imloviy nuqsonlarning yuzaga kelishiga sabab bo‘lmoqda.

Hatto bosh harflar imlosida birorta o‘zbekcha ismning, joy nomining keltirilmaganligi hayratlanarlidir. Buning o‘rniga **Gorkiy, Moskva, Volga, Kazbek** kabi nomilliy nomlar dalil sifatida beriladi.

Taniqli o'zbek tilshunoslari Sh.Rahmatullayev va A.Hojiyevlar qo'shma so'zlarning imlosi haqida fikr yuritish ekanlar, ba'zi atoqli otlardan ham misol keltirishadi. Chunonchi, **Yoriltosh, Urto'qmoq, Ochildasturxon** (ertak nomlari)²⁰ **Ko'chabog'i** (toponim), qo'shma so'zlarning imlo qoidalarida esa **Mirzacho'l, Yangiyo'l, Kattaqo'rg'on, Sirdaryo, Qorabuloq, Oltinko'l, To'rtko'l, Xo'ja-qishloq** toponimlari qismlarining qo'shib yozilishi; **O'rta Osiyo, Kichik Osiyo, Eski Toshkent, O'rta Chirchiq, Quyi Chirchiq** nomlarida qismlarning ajratilib yozilishi qoidalashtrilgan²¹, ammo mualliflar antroponimiyadan birorta misol ham keltirmaydilar. Holbuki, o'zbek tilidagi qo'shma ismlar bir necha minglagan so'zni tashkil qiladi. Antroponimlarning imlosiga bu munosabatning sababi ism komponentlarining doimo qo'shib yozish qabul qilinganligi bo'lsa kerak.

A.Hojiyevning "O'zbek tilida qo'shma, juft va takroriy so'zlar" nomli ishidagi ma'lumotlarga qaraganda, ushbu muallif antroponimlarni, umuman, so'z, qo'shma so'z deb hisoblamaydi, degan xulosaga kelish mumkin. Kitobning barcha sahifalarida, biror joyda ismlarning faktlari misol sifatida olinmaydi. Hattoki, "Qo'shma ot" sarlavhali mulohazalarda ham qo'shma ismlar chetlab o'tiladi, ulardan birorta ham misol keltirilmaydi²².

Kitobga ilova tarzida berilgan "O'zbek tilida qo'shma, juft va takroriy so'zlar imlosi" qismida ham qo'shib yoziladigan qo'shma so'zlar haqida gap ketganda, ba'zi gidronim va toponimlar keltiriladi (masalan: Yangiyo'l, Sirdaryo, Oltinko'l va boshq.)²³, ammo ism materiallariga murojaat qilinmaydi.

O'zbekcha ism va familiyalar imlosi, bu boradagi nuqson va chalkashliklar, ana shu tufayli antroponimlar imlosida yuz berayotgan imloviy variantlar yuzasidan keng fikr yuritilgan ishlardan biri jamoaviy mualliflar tomonidan yozilgan "Ism va familiyalar imlosiga doir" nomli maqoladir. Biz ushbu maqolada ismlar imlosi haqida bildirilgan fikrlarga emas, balki unda o'z ifodasini topgan

²⁰ Раҳматуллаев Ш., Ҳожиёв А. Қўшма сўзларнинг имло қоидалари ва луғати. – Тошкент: Олий ва ўрта мактаб, 1961, - Б. 16.

²¹ Ҳожиёв А. Қўшма, жуфт ва такрорий сўзлар. -Тошкент: ЎзФА нашриёти, 1963. –Б. 30.

²² Ҳожиёв А. Қўшма, жуфт ва такрорий сўзлар. -Тошкент: ЎзФА нашриёти, 1963. –Б. 30.

²³ Ўша иш, ўша ерда.

imloviy variantlarni qayd etish bilan chegaralanamiz. Bular quyidagi tiplarga bo‘linadi:

1. *Abdu//abdi, abu//abi: Abdumalik, Abdirahmon;*
2. *Niso//nisa, Sara//sora: Xayriniso, Bibisora ko‘rinishlari.*
3. *Moh//mah, Mohinur//Mohibonu;*
4. *Iso//Isa, Mirza//Mirzo, Musa//Muso, Riza(Rizaev)//Rizo (Rizoqul), Zulayho//Zulayho, Zuhro//Zuhra;*
5. *Ahmad//Ahmedov, Muhammad//Muhammedov, Nurmat//Nurmetov, Xolmat//Xolmetov, Ismat//Ismetov, Mamat//Mametov//Mamedov, Toshmat//Toshmetov, Begmat//Begmetov;*
6. *Orziqul//Orzigul, Marg‘iba//Marg‘uba;*
7. *Zohir//Zoir, Ibrohim//Ibragim//Ibroym, Rahimjon//Rayimjon, Tohir//Toyir;*
8. *Zarif//Zaripov, Latif//Latipov, Ma‘ruf//Ma‘rupov, Sharif//Sharipov, Orif//Oripov, Yusuf//Yusupov;*
9. *Nu‘mon//No‘mon//Nurmon//Nig‘mon;*
10. *-iddin//itdin//uddin: Asomittin//Asomuddin//Asomiddin;*
11. *-ulla//ullo//illa: Abdulla//Abdilla, Inoyatulla//Inoyatilla, Fayzulla//Fayzilla, G‘aybulla//G‘aybilla va boshqalar*²⁴.

Maqolada keltirilgan imloviy variantlardan bittasini imlo uchun norma qilib olish to‘g‘risida tavsiyalar. Chunonchi: *-ullo, -illa* emas, *-ulla* yozish; *-itdin, -utdin* emas, *-iddin* yozish va boshqalar.

Shuningdek, qo‘shma so‘zlarning imlosi haqida keng fikr yuritgan mualliflardan biri B.Mamadaliyevdir. U qo‘shma so‘zlarning lisoniy xususiyatlarini tahlil qilishdan tashqari, ularning imlo qoidalarini ham yaratishga harakat qilgan. Ushbu munosabat bilan qo‘shma so‘zlar qatorida ba’zi toponim va antroponimlarning imlosini ham qoidalashtirgan. Chunonchi, u qo‘shib yoziladigan so‘zlar qatorida *Shonazar, Xolmirza, Elmurod, Gulchehra,*

²⁴ Камолов Ф., Жуманиязов Р., Мирзаев Т., Бегматов Э. Исм ва фамилиялар имлосига доир//Ўқитувчилар газетаси, 1962. 20 сентябрь.

Xolmuhammad ismlarini ham keltirgan²⁵. Xuddi shuningdek, u qo‘shib va ajratib yoziladigan joy nomlarini alohida qoidalashtirgan.

Ish oxirida “Qo‘shma so‘zlar lug‘ati” berilgan bo‘lib, uning tarkibida bir qator ismlar ham keltirilgan: *Gulnor, Gulnora, Gulchehra, Isobobo, Nazirqul, Norbobo, Oygul, Nursevar, Oyxon, Onaxon, Oftobxon, Toshnazar, Tursunali, Tursunxon, Xolmirza, Shahriniso, Sherali, Shomurod, Shoqosim, Elmurod, Elnazar* va boshqalar. Keltirilgan ismlarning imlo lug‘atiga qaysi tamoyil asosida kiritilgani, yozilishi nuqsonli bo‘lgan ko‘pgina ismlarning lug‘atdan nega joy olmagan muallif tomonidan izohlanmagan.

B.Mamadaliyevning qo‘shma va tarkibli so‘zlarning tuzilishi hamda imlosiga doir yozgan maqolalarida qo‘shma ismlar va ismlarning qisqargan shakllarining yozilishiga oid mulohazalar uchraydi²⁶.

Bundan tashqari, o‘zbek tilidagi qo‘shma so‘zlarning lisoniy xususiyatlarini monografik planda tadqiq qilish munosabati bilan ayrim qo‘shma so‘zlar imlosi haqida fikr yuritgan tadqiqotchilardan biri Nasim Mamatovdir. Ushbu muallifning ba’zi maqolalarida qo‘shma so‘zlar qatorida antroponimik materialga ham murojaat qilingan hollar uchraydi²⁷.

Umuman olganda, N.Mamatovning qo‘shma so‘zlar, ular imlosiga oid mulohazalari A.Hojiyev nuqtayi nazaridan farqlanadi hamda B.Mamadaliyev qarashlariga yaqin turadi. Bu hol uning atoqli otlar va ular imlosiga munosabatida ham ko‘rinadi.

N.Mamatov atoqli ot materiallarini ham so‘z deb biladi hamda ularni lozim o‘rinlarda oddiy qo‘shma so‘zlar bilan birgalikda tahlil qiladi. U o‘zining tahlillarida toponimiya materiallaridan kerakli o‘rinlarda keng foydalangan²⁸. Ushbu muallifning antroponimik materialga munosabati ham ijobiydir. Bu uning

²⁵ Мамадалиев Б. Ҳозирги ўзбек адабий тилида қўшма сўзлар. – Тошкент: Фан, 1966. – Б. 108.

²⁶ Мамадалиев Б. Ўзбек тилида таркибли сўзлар//Ўзбек тили ва адабиёти. 1966, 4-сон, - Б. 45,46.

²⁷ Маматов Н. Қўшма сўзлар билан содда сўзларнинг ўзаро муносабати масаласига доир//Ўзбек тили ва адабиёти. 1982, 2-сон, -Б. 12.; Ўша муаллиф. Образование собственно-сложных слов в узбекском языке. СС. – Ташкент, №2. – С. 73.

²⁸ Маматов Н. Қўшма сўзлар билан содда сўзларнинг ўзаро муносабати масаласига доир//Ўзбек тили ва адабиёти. 1982, 2-сон, -Б. 23.

ishda uchraydigan fikrlarida hamda dalil sifatida keltirilgan antroponimik materiallarda yorqin ko‘rinadi:

-affiksoidlar haqida gap borar ekan, *Dadajon, Halimaxon, Tursunoy, Tursunboy, Tamaraxonim, Rashidbek* ismlarining ikkinchi komponentini affiksoid deb hisoblaydi;

- ayrim qo‘shma so‘zlar qisqargan holda qo‘llanilishi mumkin deyilgan fikrni tasdiqlash uchun *Muhammadjon-Mamajon, Xolmuhammad-Xolmat* ismlarini keltiradi;

-ba’zi so‘zlar “otlashgan monolit birlik”ka aylangani ta’kidlanar ekan, *Baxtiyor-Baxtiyor* (ism) ham ketiriladi;

- so‘z ham, so‘z birikmasi ham “bo‘linmaydigan analitik konstruksiyalar”ga dalil sifatida *G‘afur G‘ulom, Asqad Muxtor, Alisher Navoiy, Hoji Kamoliddin* tipli nomlar beriladi;

- analitik qo‘shma so‘zlar to‘g‘risida gap borar ekan, bunga antroponimik material ham keng jalb qilinadi: *Bekmirza, Bekmuhammad, Bektosh, Boymirza, Gulasal, Guljamol; Karimjon, Salimaxon, Suyarboy, Tursunboy, Hakimxo‘ja, Tursunoy, Tojiposhsha* va boshqalar.

- N.Mamatov laqablar ismga qo‘shib yoziladi deb hisoblaydi hamda *Anorxola, Boqibaqqol, Boqibegim, Tojitajang*, qo‘shma so‘zlar imlosiga maxsus to‘xtanilgan o‘rinlarda, ulardan tashqari, *Qobulbobo, Saksonota, G‘ofuraka, Aliqushchi, Karimsuvchi, Umaro‘choqchi, Bulduruqqassob, Qambarotin, To‘ychi-hofiz, Po‘lkanshoir, Boqibeg‘am, Parpipismi, Solisovuq, Hamdamforma* nomlarini keltiradi²⁹.

Bizning kuzatishlarimiz hamda tavsiyalarimiz keltirilgan tip nomlarda laqab ismdan ajratilgan holda yozilishini tasdiqlaydi.

Shuningdek, N.Mamatov qo‘shib yoziladigan atoqli otlar haqida fikr yuritir ekan, birinchi moddada ism hamda familiyalarni keltiradi: *Mirzakarim, Gulasal,*

²⁹ Маматов Н. Қўшма сўзлар билан содда сўзларнинг ўзаро муносабати масаласига доир//Ўзбек тили ва адабиёти. 1982, 2-сон, -Б. 23-194.

*Eshonxo'jayev*³⁰ va boshqalar. Bu o'rinda familiyalar olinmasi ham bo'lar edi, chunki ism komponentlarining qo'shilishi nom, familiya bo'lgani uchun emas, familiya qo'shma ismdan hosil bo'lgani uchundir.

Ushbu moddaning "Eslatma" qismida ajratib yoziladigan antroponimlarga misol tarzida *Mirzo Ulug'bek, Sulton Sanjar, Eshon Xuvaydo, To'ychi Toshmuhametov, Xo'ja Ahror, Said Kamoliddin, domla Qahharovlar* olingan³¹. Keltirilgan keyingi antroponimlar birikma antroponimlar bo'lib, so'z va qo'shma so'z modeliga mos tushmaydi. Chunki ular nutq jarayonida yuzaga kelgan birikmalar hisoblanib, shaxsni ana shu tarzda atash an'ana bo'lib qolgan holatlardir.

O'zbek ismlari imlosi bo'yicha olib borilgan ishlarni kuzatar ekanmiz, qator mualliflar, ya'ni Sh.Abdurahmonov, A.Hojiyev, E.Begmatov va K.Nazarovlar tomonidan tuzilgan "O'zbek orfografiyasi va punktuatsiyasining asosiy qoidalari" loyihasida o'zbek tili imlosida hukmron bo'lib kelgan qarash, ya'ni *atoqli otlar imlosini chetlab o'tishga amal* qilingan. Shu tufayli loyiha matnida o'zbek antroponimlari materiallaridan birorta dalil olinmagan³² (Bundan bosh harflarga oid qism mustasno). Mana shu holni ushbu loyihani tuzatilib, qaytadan e'lon qilingan variantida ham ko'rish mumkin³³.

"O'zbek orfografiyasining asosiy qoidalari" tasdiqlanib, (1956-yildagi imlo qoidalari nazarda tutilmoqda) amalga joriy qilinganidan beri 60 yildan ortiq vaqt o'tdi. Bu davrga kelib, 1995-yili "O'zbek orfografiyasining asosiy qoidalari" yangidan tasdiqlanib, amaliyotga joriy qilindi. O'sha tasdiqlangan yangi imlo qoidalari yuzasidan biz ishimizning so'nggi sahifalarida fikr yuritamiz.

XX asrning ikkinchi yarmiga kelib, o'zbek tilshunosligida atoqli otlarni maxsus tadqiq qiluvchi yangi soha – o'zbek onomastikasi paydo bo'ldi hamda u mustaqil ilmiy yo'nalish sifatida shakllandi. Ushbu davrlar mobaynida va bugungi kungacha o'zbek tilidagi toponimlar, kishi ismlari, ya'ni antroponimlar hamda

³⁰ Маматов Н. Ўзбек тилида қўшма сўзлар. – Тошкент: фан, 1982. –Б. 225.

³¹ Ўша иш, -Б. 226.

³² Ўзбек орфографияси ва пунктуациясининг асосий қоидалари//Ўқитувчилар газетаси. 1981, 8 август.

³³ Ўзбек орфографияси ва пунктуациясининг асосий қоидалари//Ўқитувчилар газетаси. 1988, 30 январь.

o'zbek onomastikasining boshqa tarkibiy qismlaridagi atoqli otlarning boy materiallari to'planildi va atroflicha tadqiq qilindi. O'z navbatida, o'zbek tilidagi atoqli otlar materiallari nomlarining yozilishi va talaffuzida juda ko'p nuqsonlar mavjudligi, imloviy variantlarni seroblighi namoyon bo'ldi. Bular haqida maxsus ilmiy-tadqiqot ishlari olib borildi, qator maqolalar e'lon qilindi, nomzodlik hamda doktorlik dissertatsiyalari himoyalari amalga oshirildi. Shunga qaramasdan, atoqli otlar imlosi muammolariga imloviy qoidalarda e'tiborsizlik bilan qarash o'zini oqlamas kerak. Shuning uchun ham onomastik tadqiqotlar natijasidan samarali foydalanish, imlo qoidalarini to'ldirish hamda mukammallashtirishda onomastik tadqiqotlar muhim o'rin tutishi mumkinligini yorqin ko'rsatishi namoyon bo'lmoqda.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, antroponimlar imlosi haqida fikr yuritmagani uchun tilga olingan mualliflarni ayblab bo'lmaydi, chunki yangi imlo qoidalari loyihasida antroponimlar, toponimlar va boshqa tip atoqli otlarning imlosiga oid moddalar (Bundan bosh harflarning yozilish o'rinlari mustasno qilinganda) mavjud emas.

Shunga qaramasdan, mazkur jarayonlarda yozilgan ba'zi maqolalarda antroponimlar imlosiga oid ayrim juz'iy fikrlar ham uchraydi. Chunonchi, B.Yusupov *Ro'dakiy va Rudakiy, Xo'ja Ahror va Xoja Ahror, Xisrav va Xusrav, Atoyi va Otoiy* kabi nomlari yozilishidagi ikki xilliklar³⁴, Sh.Rahmatullayev *A.Navoiy* emas, **Alisher Navoiy**, *M.Bobur* emas, **Zahiriddin Muhammad Bobur** yozish haqida³⁵, S.Aliyev *Atoiy* emas, **Atoyi**, *Saroiy* emas, **Saroyi**, *Fidoiy* emas, **Fidoiy** yozilishi lozimligi, shuningdek, taxalluslarga qo'shiluvchi **-iy, -yi, -viy** qo'shimchalari: **Farobiy, Beruniy, Navoiy, Atoyi, Fidoiy** yuzasidan³⁶, N.Mahkamov va B.Umurqulovlar ismlarning *Orif, Sharif, Yusuf, Masharif* shakllari familiyalar tarkibida **Oripov, Sharipov, Yusupov, Masharipov** holatiga o'tishi, ya'ni ism tarkibidagi f harfining p harfiga aylanishi va bunga doir imlo

³⁴ Юсупов Б. Ҳаёт тақозаси // Ўзбекистон санъати ва адабиёти. 1984, 13 ноябрь.

³⁵ Раҳматуллаев Ш. Қайта яратишми ёки тузатиш // Ўзбекистон санъати ва адабиёти. 1982, 5 март.

³⁶ Алиев С. Қоидалар мукамал ва изчил бўлсин // Ўқитувчилар газетаси. 1982, 14 апрель.

qoidasi lozimligi haqida³⁷, N.Mahkamov unvon va mansablar nomi bilan kelgan antroponimlar imlosi: **oshpaz Ergashev, doktor Aliyev, Shoir Hasan Po‘lat, professor Sobirov, Sarvarbek, Bahromjon, Qobilbobo, Sharvonxola** tarzda yozilishi, **Husnijamolxon, Sultonmurod, Xo‘jaakbar, Eshonxo‘ja, Zebobibi** tipli ismlarning imloviy me‘yorlari yuzasidan o‘z mulohazalarini bayon qilgan³⁸.

X.Rustamov maqolalaridan birida shunday yozadi: “Ayrim nomlar shunday g‘ayritabiiy, shu qadar xilma-xil yozilganki, o‘qigan kishining ensasi qotadi. Bir maktabda **Saodat** ismli to‘rt nafar o‘quvchi o‘qir ekan. Ularning ismlari tug‘ilganlik to‘g‘risidagi guvohnomada to‘rt xil shaklda: **Soadat, Saadat, Sadat, Sodat** tarzida yozilgaligini ko‘rdik”³⁹.

Maqola muallifi ismlar imlosida yana **O‘rinboy//O‘rimboy, Mahkam//Makkamboy, Bo‘ta//Buta, Avaz//Avas** kabi shakliy variantlarning mavjudligi kishilarning nomlar imlosiga loqayd munosabatidan yuzaga keladi deb biladi: “Ba‘zan durustgina ma‘lumotga ega bo‘lgan o‘rtoqlar orasida ham, *Sayit* yozsa nima-yu, **Said** nima? **Muhayyo** yozish shartmi, *Muhayo* deb yozib qo‘yilsa, birov tushunmay qoladimi? – deya fikr qiluvchilar ham uchrab turadi”⁴⁰.

Kishi nomlari imlosining muayyan me‘yoriy qoidalar ostiga olinmagani tufayli yuz berayotgan imloviy variantlar haqida E.Begmatovning ayrim maqolalarida ham atroflicha fikr bildirilgan. U “Ism, familiya qanday yoziladi?” nomli maqolasida o‘zbek tiliga davlat tili maqomining berilgani hamda bu haqida maxsus qonun qabul qilingani, endilikda o‘zbek ism va familiyalarining turli hujjatlarda ruscha shakli bilan buzib yozishga barham berilishi mumkinligini yozadi. Shuningdek, ushbu muallif ba‘zi chet tiliga mansub ismlarning o‘zbekcha yozilishidagi *Heyne//Geyne, Xomer//Gomer* kabi variantlarni keltiradi»⁴¹.

Shuni alohida ta‘kidlash joizki, o‘tgan davrlar mobaynidagi ismlarning imlosi, ulardagi turli xildagi nuqsonlar, yozilishlar, birinchidan, ayrim shaxslarning savodsizligimi, befarqligimi, loqaydligimi bo‘lsa, ikkinchidan,

³⁷ Маҳкамов Н., Умуркулов Б. Жамоатчиликка ҳавола // Ўқитувчилар газетаси. 1982, 14 апрель.

³⁸ Маҳкамов Н. Яна кўшма сўзлар имлоси ҳақида // Ўқитувчилар газетаси. 1982, 30 июнь.

³⁹ Рустамов Х. Соадат, Саадат, Садат, Содат // Фан ва турмуш. 1968, 3-сон. –Б.24-25.

⁴⁰ Ўша иш, ўша бет.

⁴¹ Бегматов Э. Исм, фамилия қандай ёзилади // Ўзбекистон санъати ва адабиёти. 1990, 20 апрель.

sho'rolar hukmronligidagi rus tilining ta'siri deb bimalol aytish mumkin. Ismlarning ana shu buzib, noto'g'ri yozilishi natijasida turli xildagi imloviy va shakliy variantlar yuzaga kelgan.

Bu xususida E.Begmatov o'zining qator ishlarida to'xtalib, kuyinib yozganini guvohi bo'lishimiz mumkin. Jumladan, u o'zining "Xolisxon haqmi?" nomli maqolasida ko'pgina imloviy nuqsonlar va bunga oid imloviy variantlar o'zbek ism hamda familiyalarini fuqarolarning hujjatlari hamda boshqa xil yozma manbalarda buzib, noto'g'ri yozish tufayli yuzaga kelganini aytadi: "Shuningdek, ismlar tarkibidagi ayrim o'zbek tovushlarning ruscha talaffuzga moslanganligini va shunga ko'ra buzib yozilganini ko'ramiz. Chunonchi, o'zbekcha *o* rus tilda *o*, *yu* yoki *u* bilan, *yo* tovushi *ya* bilan, o'zbek *o* tovushi ruschada *a* yoki *ya* bilan *u* tovushi esa *u* yoki *yu* bilan beriladi. Natijada rus tilida ismlarning o'zbekcha ism shakliga mos tushmaydigan xilma-xil shakllari yuzaga keladi. Buning ustiga rus tilining xususiyati ayrim o'zbek ismlarda 1 tovushidan keyin belgisini yozishni, nomlar tarkibidagi ' belgisini tushirib yozish yoki uni boshqa tovush bilan almashtirib aytishni talab qiladi. O'zbek ismlarini *Gulbonu*, *Ulmas*, *Aglam*//*Aglyam* (*A'lam*), *Agzam* (*A'zam*), *Numon*, *Nigmon*, *Nugmon* (*No'mon*), *Maruf*, *Magruf* (*Ma'ruf*), *Rano* (*Ra'no*), *Ezoz* (*E'zozxon*), *Mavlyuda* (*Mavluda*), *Gulyam* (*G'ulom*) kabi aytish yoki yozish mana shunday sabablar tufayli yuzaga kelgan"⁴².

Prof. Sh.Rahmatullayev "Orfografiya qoidalarini – savodxonligimiz asosi" nomli risolasi amaldagi imlo qoidalariga sharh bo'lgani unda atoqli otlar materiallaridan deyarli foydalanilmagan. Faqat bir o'rinda quyidagi parchani o'qiymiz: "Asli ikki so'zning izohlovchi-izohlanmish sifatida erkin bog'lanishli birikmaga teng bo'ladi, shunga ko'ra ajratilib yoziladi (1-punkt). Ammo amalda ba'zi izohlovchilarni xato ravishda izohlanmishga qo'shib yozish ham uchraydi. Karim aka o'rniga Karimaka kabi, Sarvi xola o'rniga Sarvixola kabi. Imlo qoidasi

⁴² Begmatov Э. Холисхон ҳақми? // Тошкент оқшоми. 1990, 17 август.

ana shunday xatoning oldini olish uchungina kerak. Agar sintaktik qoidani puxta o'zlashtirsak, imlo qoidasiga ehtiyoj yo'qoladi.

Izohlovchi-izohlanmish munosabatini eslatadigan boshqa bir hodisa ham bor: bolaga ism berishda Xolbib, Onabibi, Otabek kabi antroponimlarni qo'yish uchraydi. Bunday kishi atoqli otlarida «izohlovchi» shu so'zning doimiy tarkibiy qismi bo'ladi, bu qismsiz ism yo'qqa chiqadi. Biror kishiga tug'ilganida Eshonxo'ja, Miraziz deb ism berilgan ekan, bunday otning qismlarini qo'shib yozish kerak bo'ladi. Imlo qoidalarida qismlari qo'shib yoziladigan ana shunday qo'shma atoqli otlar ham izohlansa durust bo'lur edi»⁴³.

Biz yuqorida o'zbek tilshunosligida, jumladan, o'zbek ismlari imlosi muammolariga bag'ishlangan ishlarda atoqli otlar, uning tarkibiy qismi bo'lgan antroponimlar imlosiga oid fikrlarni qisqacha tahlil qildik. Endi bevosita antroponimlardagi boshqa imloviy variantlarni tahlil qilish va ularni ta'lim jarayoniga tatbiq etish masalalariga atroflicha to'xtalib o'tamiz.

2.2. O'zbek tilshunosligining fonetika bo'limini o'qitishda antroponimik materiallardan foydalanish

Ma'lumki, «Davlat tili to'g'risida»gi Qonunning qabul qilinishi, ayniqsa, 1991-yil 31-avgustda e'lon qilingan mustaqilligimiz milliy tilimiz bo'lmish ona tilimizning mavqeyini tiklash, uning jamiyatimiz hayotida davlat tili sifatida amal qilish uchun keng imkoniyatlar yaratdi⁴⁴.

O'tgan davr mobaynida o'zbek tilining nufuzi oshdi, uning ijtimoiy vazifasi hamda amaliyot doirasi kengaydi, xullas, ona tilimiz mustaqil til sifatida ravnaq topdi va topmoqda. Davlat tilida ish yuritila boshlandi, qonunlar, barcha hujjatlar o'zbek tilida e'lon qilinmoqda, teleko'rsatuvlar va radioeshittirishlar ona tilimizda olib borilmoqda. Turli xildagi izohli lug'atlar va o'zbek ensiklopediyasi tayyorlanib nashr qilindi.

⁴³ Рахматуллаев Ш. Орфография қоидалари – саводхонлигимиз асоси. – Тошкент: фан, 1980. –Б. 44.

⁴⁴ Х.Бектемиров, Э.Бегматов. Мустақиллик даври атамалари. – Тошкент: фан, 2002. – Б. 7.

*Бош ҳарфларнинг ёзилиши қисмида келтирилган баъзи исм ва фамилияларни истисно қилмоқдамиз, чунки бунда сўз имлоси эмас, ҳарфларнинг ёзилиши ҳақида гап боради. – Р.Х.

1993-yilning 2-avgustida “Lotin yozuviga asoslangan yangi o‘zbek alifbosini joriy etish to‘g‘risida”gi Oliy Kengash tomonidan qabul qilingan qonun va 1995-yilning 24-avgustida “O‘zbek tilining asosiy imlo qoidalarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori mamlakatimizdagi ta’lim jarayonining sifatini yaxshilashga qaratildi. Bularning barchasi quvonarli holat. Chunki uning zamirida O‘zbekiston mamlakatining ertasi, istiqboli nazarda tutilmoqda. Bu esa, o‘z navbatida, bevosita ta’lim jarayoni bilan chambarchas, uzviy bog‘liqdir. Biz bu o‘rinda ona tili ta’limi bilan bog‘liq bo‘lgan ayrim masalalar yuzasidan fikr yuritishni maqsad qildik.

Ta’kidlash joizki, ta’lim jarayoniga ta’sis etilgan mavjud ona tili darsliklari, o‘quv va o‘quv uslubiy qo‘llanmalariga nazar solsak, ayrim mulohazali o‘rinlarga duch kelish mumkin. Bunday holatlar, ayniqsa, fonetika bo‘limini o‘qitishda yaqqol namoyon bo‘ladi. Chunki tilshunoslikning fonetika bo‘limini o‘rganishda unlilar va undoshlar bilan bog‘liq lisoniy xususiyatlar, fonetik qonuniyatlar: tovush tushishi, orttirilishi, moslashishi va almashinishi kabi hodisalar mavjud bo‘lib, bular ona tili fanining fonetika bo‘limini o‘qitishda negadir e’tibordan chetda qolgan.

Qolaversa, 1995-yilning 24-avgustida “O‘zbek tilining asosiy imlo qoidalarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 339-sonli qarorida atoqli otlar(kishi ismlari) imlosi bo‘yicha birorta modda ham ajratilmagan.

Aslida esa, ta’lim jarayonining ona tili darslarida antroponimlar, ya’ni kishi ismlari o‘rgatilganda ularning imlosi, variantlari xususida ham o‘quvchilarga atroflicha batafsil ma’lumotlar berish lozim bo‘ladi. Masalan, turli xildagi rasmiy hujjatlarda kishilarning ismlari turlicha qayd etilgan. Ularda ko‘zga tashlanayotgan turli xildagi imloviy xatoliklar, sheva elementlari ko‘plab uchraydi. Biz ularni shaxsni tasdiqlovchi hujjatda qanday qayd etilgan bo‘lsa, shunday bo‘lishi shart deb e’tirof etamiz.

Shuni a'lohida ta'kidlash joizki, antroponimlar, ya'ni ism, familiya, otatism, laqab va taxalluslar imlosi o'zbek tili imlo qoidalarining tarkibiy qismidir.

Ma'lumki, ismlar tildagi mavjud so'zlarga tayangan holda hosil qilinadi. Masalan, *saodat*– **Saodat**, *to'xtasin*–**To'xtasin**, *o'lmas*–**O'lmas**, *xushnud*–**Xushnud** kabi. Shuningdek, qo'shma ismlarni tashkil etuvchi apellyativlar ham tildagi mavjud oddiy so'zlarning *–chin* va *berdi* – **Chinberdi**, *xush* va *keldi* – **Xushkeldi**, *nur* va *sulton* – **Nursulton** qo'shiluvidan hosil bo'ladi.

Bundan tashqari, ba'zi ismlarning atoqli va turdosh so'zlarning qo'shiluvidan iborat ekanini kuzatish mumkin: *Muhammad* va *murod* – **Muhammadmurod** kabi.

Shuningdek, o'zbek tilida shunday antroponimlar, ya'ni ismlar ham borki, ularning hosil bo'lishi ikki mustaqil atoqli otning qo'shiluvidan yuzaga kelgan. Masalan, *Yusuf* va *Ali* – **Yusufali**, *Muhammad* va *Muso* – **Muhammadmuso**, *Muhammad* va *Yunus* – **Muhammadyunus**, *Ali* va *Muhammad* – **Muhammadali** va boshqalar.

Keltirilganlar antroponimlarning qay tarzda hosil bo'lganini asoslasi, shu bilan birga, ularning imlosi masalasi ham muhim ahamiyat kasb etadi:

1. Turdosh so'zlardan hosil qilingan antroponimlar atoqli otga aylanganidan keyin u bosh harf bilan yoziladi.
2. Har ikkala qismi ham oddiy so'zlardan tashkil topgan bo'lib va ular qo'shiluvi natijasida yuzaga kelgan antroponim ham bosh harf bilan yoziladi.
3. Har ikkala qismi mustaqil antroponimlar qo'shiluvidan tashkil topgan ismlar ham bosh harf bilan yoziladi.

Ko'rinib turibdiki, ana shu kabi holatlar yuzasidan o'zbek tilining mavjud imlo qoidalarida atroflicha ma'lumotlar berilmagan.

Yuqorida keltirilgan dalillarni kuzatish, darhaqiqat, antroponimlarning to'g'ri yozilishi va qayd etilishi hamda ularga oid imloviy qoidalar, ma'lum darajada atoqli otlar zaminida yotgan turdosh so'zlar imlosiga bog'liqligini

ko'rsatadi. Demak, ism, familiya, laqab, taxalluslarni to'g'ri yozish uchun ular asosida yotgan so'zning yozilish shaklini bilish kifoyadek tuyuladi.

Ammo ta'lim tizimidagi bizning kuzatishlarimiz hamda o'zbek antroponimlarining imlosiga oid ishlardagi mulohazalar o'zbek tilining antroponimik tizimi o'ziga xos imloviy muammolarga egaligini ko'rsatadi. Mazkur masala yuzasidan kuzatish olib borgan E.Begmatov shunday yozadi: "Ism va familiyalar imlosining o'ziga xos muammolari bor. Xususan, ismlarning mahalliy va shevalardagi talaffuzi va shaklini olib ko'raylik. Har birining o'ziga xos tomonlari mavjudki, ismlarning imlosini qoidalashtirishda bu holni hisobga olmaslik mumkin emas"⁴⁵.

O'zbek ismlarining boy materiallarini sinchiklab kuzatish antroponim, turdosh ot hamda antroponimik apellyativlar imlosi bilan antroponimlar imlosida quyidagi muhim farqlar mavjudligini ko'rsatadi. Bular quyidagilar:

1. Ism shakli va imlosi unga asos bo'lgan apellyativ shaklidan farqlanadi: *tursin, unsin(so'z) - Tursun, Unsun (ism); turg'in (so'z) – Turg'un (ism); quvondiq, sog'indiq(so'z) – Quvondiq, Sog'indiq(ism); turgan, to'lg'on(so'z) – Turg'on, To'lg'on (ism)* va boshqalar.

2. Ayrim ismlar ham adabiy, ham lahjaviy shaklga ega, shunga ko'ra ular imloda ham farqlanadi: masalan, *Yolg'osh-Jolg'osh, Yayrasin-Jayrasin, Yomonboy-Jomonboy, O'g'ilbibi-Ulbibi, Yaylovboy-Jaylovboy, Madrahim-Muhammadrhim, Matyoqub-Muhammadyoqub, Norim-Normat-Normuhammad, Ro'zim-Ro'zmat-Ro'zimuhammad* va boshqalar. Bularning bir xil yozishning imkoni yo'q.

3. Ba'zi vaziyatlarda ismlarning ikki xil apellyativga dahldor ekanini kuzatish mumkin. Ularning qaysi so'zdan hosil bo'lganini aniqlamasdan turib, imloviy shaklini belgilash qiyin bo'ladi. Masalan, *nazir(Nazir) – nozir (Nozir); amin (Amin) – emin (Emin); xotam (Xotam)-hotam (Hotam); vosit (Vosit, Abduvosit) – bosit (Bosit, Bositulla)* va boshqalar.

⁴⁵ Бегматов Э. Ўзбек исмлари. – Тошкент, 1991. – Б. 6.

4. Ayrim ismlarga asos bo'lgan apellyativ mohiyatan tarixiy leksikaga mansub bo'lib, ulardan hosil qilingan ismlardagi so'zlarning tarixiy shakllarini bilish, aniqlash asosida hal qilishni talab qiladi. Chunonchi: *Marg'uba, O'roz, Rauf, G'iyos, Talasboy, Sohib//Soyib, Sohibali, Tarlon, Tarxon, Suhayl, Tohir//Toir, Cherikboy, Cherikbosh, Badiya, Ansor, Ansora* va boshqalar.

5. Ba'zi ismlarning apellyativlari hozirgi o'zbek adabiy tilida ham mavjud emas, bu antroponimlar o'zga tillardan atoqli ot tarzida o'zlashtirilgan. Demak, bu tip ismlarga atoqli ot tarzida qarashga, ular imlosini tarixiy an'analar asosida hal etishga to'g'ri keladi. Masalan, *Isomuhammad (Iso va Muhammad); Muhammadali (Muhammad va Ali); Abutolib (Abu va Tolib); Alimuhammad (Muhammad va ali); Umarali (Umar va Ali)* va boshqalar.

6. O'zbek tilidagi bir qator ismlar to'liq hamda qisqargan shakllarda uchraydi. Ularning barchasini to'liq shaklda yozish g'ayritabiiylik tug'diradi, chunki ismlarning qisqargan shakli ham amalda keng tarqalgan hamda vaqt o'tishi bilan to'liq shakliga nisbatan mustaqil ismlik xususiyatiga ega bo'lib qolgan. Shu sababli ismning qisqargan shakli ham mahalliy til va xalq orasida alohida ism sifatida qabul qilinadi hamda ulardan hosil qilingan ism, familiya va otaismmlar ham to'liq shakldan hosil qilingan nomlardan farqlanib turadi hamda funksional jihatdan mustaqil nom maqomiga ega bo'ladi. Masalan, *Muhammadjonov – Mamajonov, Abdurahimov – Abdirimov, Muhammadshukurov – Mamashukurov, Muhummadrahimov – Madrahimov, Samandarov – Samanov, Abduqahharov – Qahharov* va boshqalar.

7. Odatda, laqablar o'zi yasalgan so'z imlosiga doimo mos kelavermaydi, chunki laqab aksariyat holda shaxs ismi bilan birgalikda qo'llaniladi. Masalan, *Eshmat dovdor, Chori chaqqon, Risolat chevar, Ismoil professor, Azim kulol, Otajon manqa, Otajon xarrot, Ro'zmat garang, Otaxon gung* va boshqalar.

8. Imloviy o'ziga xoslik, o'z navbatida, taxalluslarga ham tegishlidir. Taxalluslar orasida o'z apellyativiga shaklan teng keluvchilari ham mavjuddir. Masalan: *munis* (so'z) - **Munis** (taxallus); *nodir*(so'z) – **Nodir** (taxallus) kabi.

Biroq taxalluslarning ma'lum qismi maxsus qo'shimchalar qo'shish orqali ham hosil bo'ladi. Chunonchi, *Shavq* (so'z) – **Shavqiy** (taxallus); *ogoh* (so'z) – **Ogahiy** (taxallus); *g'ayrat* (so'z) – **G'ayratiy** (taxallus) kabi. Demak, bunday hollarda o'z apellyativi bilan shaklan teng emas hamda imloviy jihatdan ham farqlanadi va boshqalar.

Antroponimlar, ya'ni ismlarning lug'aviy o'ziga xosligi va o'ziga xos imloviy muammolariga egaligini yana boshqa ko'pgina farqlar bilan ham to'ldirilishi mumkin.

Yuqorida qayd qilingan xususiyatlar antroponimlarning shaklan hamda imloviy jihatdan ularga asos bo'lgan turdosh so'zlardan farqini yaqqol ko'rsata oladi. Demak, turdosh so'z, ya'ni apellyativlarning imlosini hal qilish antroponimlarning barcha imloviy muammolarini bartaraf eta olmaydi.

Ko'rinib turganidek, antroponimlar, ism, familiya, otasim, laqab, taxallus kabilarning o'ziga xos imloviy xususiyatlari juda murakkab bo'lib, ularni ta'lim jarayonida to'g'ri qo'llay bilish muhim ahamiyat kasb etadi, shu bilan birga, fan o'qituvchisidan katta mas'uliyat talab qiladi.

Demak, "Hozirgi o'zbek adabiy tili" fanining "Orfografiya" bo'limidagi "Bosh harflar imlosi", "Qo'shma so'zlar imlosi" mavzulari ta'lim jarayonida o'qitilayotganida antropomlarning to'g'ri yozilishiga doir qoidalar misollar asosida izchillik bilan tushuntirilishi zarur.

2.3. Unlilar imlosi bilan bog'liq imloviy variantlar

Bir qarashda atoqli otlar turkumi, jumladan, kishi nomini anglatuvchi atoqli otlar turdosh so'zlarga nisbatan norealroq, ehtiyoj nuqtayi nazaridan ikkinchi darajali narsalardek tuyuladi. Ammo bu nisbiy tushunchadir. Atoqli otlar tilning o'ta faol kommunikativ vositalari jumlasiga kiradi. Masalan, kishi nomlarining ismlar, familiyalar, otasimlar, laqablar, taxalluslarning qo'llanish doirasini olib ko'raylik:

-har kuni millionlagan oilalarda kishilar bir-birlariga ismlarini, familiyalarini aytib murojaat qilishadi. Ota-onalar bolalarining ismini aytib erkalaydi, alla aytadi;

- har kuni ko‘plab muassasa, tashkilot va korxonalarda kishilar bir-birining ismi, familiyasi va otaismlarini tilga olgan holda muloqotda bo‘lishadi;

- har kuni, har soatda, butun sutka davomida pochta, telegraf, telegram, bank va kassalarda hamda boshqa xil mana shu tip muassasalarda, rasmiy va norasmiy, shaxsiy xatlarda kishilar nomi tilga olinadi hamda ular maxsus hujjatlarda yoziladi, rasmiy qog‘ozlarga tushadi;

- har kuni ta’lim muassasalarida, hujjatlarda, radio eshittirishlar va televizion ko‘rsatuvlarda o‘qiladigan matnlarda, og‘zaki so‘zlashuv hamda nutqlarda, minglab matbuot sahifalarida kishi nomlari qayd etiladi, ular tilga olinadi yoki yoziladi;

- har kuni yangi tug‘ilgan yuzlab va undan ham ko‘p chaqaloqlarga ism beriladi va bu nomlar FHDYOlarda qayd etiladi;

- kishi nomlari turli ijtimoiy sharoitlar, turli toifa, kasb-kor, ayniqsa, turli sheva va lahjalarda gaplashuvchi kishilar nutqida ko‘p bor takrorlanadi hamda shaklan xilma-xil talaffuz qilinadi;

- har kuni kishi nomlari ko‘plagan matnlarda, bu matnlarni tuzayotgan shaxsning savodxonligi, bilim saviyasiga ko‘ra, to‘g‘ri, noto‘g‘ri (ayrim hollarda buzuvchi) shakllarda yoziladi;

- ismlarning talaffuz shakliga sheva va lahjalar ta’siridan tashqari, nomni aytayotgan shaxsning ijtimoiy, toifaviy holati ham ta’sir qiladi. Keksa avlod vakillar orasida kishi ismini to‘liq aytishga intilish seziladi. Ammo yoshlar orasida hamda oila muhitida ismlarning erkalash, qisqartirish shakllari keng qo‘llaniladi: Masalan, **Dilbar**–*Dilash, Dili*; **Muhammad** –*Mammat, Mamat*; **Safarali** – *Safar, Sappi, Sapash*; **Sarviniso** – *Sarvish, Sarvi*; **Intizor** – *Intush, Inti* va boshqalar;

- ayrim hollarda kishi nomlarining diaxron hamda sinxron shaklining oppozitsiya holida aytilishi va yozilishiga duch kelish mumkin: masalan,

Ziyoviddin – *Ziyovaddin*, **Jaloliddin** – *Jaloladdin*, **Abduvahhob** – *Abdulvahhob* kabi.

Kishi nomlarining yuqorida qayd qilingan holatlaridan tashqari, turli sharoitlarda ham iste'molda bo'lishi mumkin. Demak, kishi nomlarining lisoniy kommunikativ faolligini inkor etib bo'lmaydi.

Til vositalarini funksional faolligi ularning har xil jarayonlar, ijobiy hamda salbiy ta'sirlar, turlicha o'zgarishlar, shakliy buzilishlarga duchor bo'lishiga sababchi bo'ladi. Bu hol bitta nomning turli talffuz shakllarini tug'diradi hamda o'sha asosda nomning yozma shakli ham yuzaga keladi. Mana shunday jarayonga ta'sir qiluvchi oppozitsion omillar mavjud. Bular:

1. Nomning adabiy-imloviy shakli va lahjaviy shakli oppozitsiyasi;
2. Nomning imloviy to'g'ri va imloviy noto'g'ri shakli oppozitsiyasi;
3. Nomning to'liq talaffuz shakli va qisqargan talaffuz shakli oppozitsiyasi;
4. Nomning tarixiy-an'anaviy hamda sinxron shakli oppozitsiyasi;
5. Nomning o'zbekcha to'g'ri imloviy shakli hamda ruscha noto'g'ri imloviy (transkripsiya va transliteratsiya) shakli oppozitsiyasi;

Yuqorida keltirilgan omillar o'zbek tilida bitta ismning turli shakliy va imloviy variantlarini yuzaga keltiruvchi sabablardir.

Quyida unli tovushlarning yozish shakli bilan bog'liq holda yuzaga keluvchi imloviy variantlarga to'xtalishni lozim topdik.

Ma'lumki, o'zbek adabiy tili uchun oltita unli tovush adabiy me'yordir. Ammo o'zbek sheva va lahjalarida unlilar soni 9 tadan 11 tagacha mavjudligi adabiyotlarda qayd etilgan. Ismlar tabiatan, kommunikativ talabga ko'ra oila davrasida paydo bo'ladi. Oila esa xilma-xil sheva hamda lahjalarda so'zlovchi kishilarning maskanidir. Bu ismlar tarkibidagi unli tovushlarning adabiy tipdagi me'yorlardan farqlanishiga sababchi bo'ladi. Mana shu holat ismlarning adabiy til imloviy me'yorlari talabiga mos tushmaydigan imloviy variant shakllarini tug'diradi va ular yozma matnlarda ham o'z ifodasini topadi.

Bizning vazifamiz bunday imloviy variantlarni lisoniy nuqtayi nazardan tahlil qilish bo'lgani uchun ularning imloviy muammolariga keng to'xtalmaymiz, balki bu variantlarni tasniflash va tahlil qilish bilan kifoyalanamiz.

Hozirgi o'zbek antroponimiyasi tizimida unli tovushlarning bir-biriga o'tishi, o'rin almashishi, tovush tushib qolishi, aksincha, tovush orttirilishi bilan bog'liq quyidagi antroponimik variantlar uchraydi:

A>O hodisasi variantlari: *Do'lon(Do'lan), Ishman(Ishmon), Yo'ldash (Yo'ldosh), Ko'zan (Ko'zon), Mozid (Mazid), Romon (Rahmon), Solay (Salohiddin), Xohberdi (Haqberdi), Jovhar (Javhar//Gavhar), Jovli (Javli), Jovdat (Javdat)* va boshqalar.

A>E hodisasi variantlari: *Jeyronboy (Jayronboy), Melik (Malik), Melikmurot (Malikmurod), Reyimboy (Rahimboy), Kerimboy (Karimboy), Zeynab (Zaynab), Veys (Vays), Zeripboy (Zaripboy), Gevarjon (Gavharjon), Muhammed (Muhammad), Reyhon (Rayhon), Sherifa (Sharifa)* va boshqalar.

A>I hodisasi variantlari: *Boltixo'ja (Boltaxo'ja), Boltiboy (Boltaboy), Isfandiyor (Asfandiyor)* va boshqalar.

A>U hodisasi variantlari: *Qavulniyoz (Qobulniyoz), Abaydulla (Ubaydulla), Dulat (Davlat), Rushon (Ravshan), Duron (Davron), Zufar (Zafar), Sadr (Sudur)* va boshqalar.

A>O' hodisasi variantlari: *Jo'lon (Javlon), Do'lat (Davlat), Ro'shon (Ravshan), Do'ron (Davron), Go'varjon (Gavharjon), Ro'shonoy (Ravshanoy)* va boshqalar.

E>I hodisasi variantlari: *Sivara (Sevara), Divan(ova)(Devon(ova)), Timur (Temur), Alishir (Alisher), Shirali (Sherali), Bikmat (Bekmuhammad), Firuz (Feruz), Nigmat (Ne'mat), Gulchira (Gulchehra), Mingziyo (Mengziyo), Mingsuluv (Mengsuluv)* va boshqalar.

E>A hodisasi variantlari: *Galdiboy (Keldiboy), Barganboy (Berganboy), Ganjaboy (Kenjaboy), Mangliboy (Mengliboy), Bakchon (Bekchon), Qodirvardi (Qodirberdi), Reyim, Reyimboy (Rahim, Rahimboy), Kerimboy (Karimboy),*

Jumagaldi (Jumakeldi), Bakturdi (Bekturdi), Bakbargan (Bekbargan), Bakpo'lat (Bekpo'lat), Bakniyoz (Bekniyoz), Ganja (Kenja) va boshqalar.

O>A hodisasi variantlari: *Yadgar (Yodgor), Yaqubboy (Yoqubboy), Yaqutjon (Yoqutjon), Yarmat(ov) (Yormat(ov), Madiyar(Muhammadiyor), Baxtiyar (Baxtiyor), Quryaz (Quryoz), Gedaniyaz (Gedaniyoz), Niyazjon (Niyozjon) va boshqalar.*

I>U hodisasi variantlari: *Ma'rip (Ma'ruf), Maqsim (Maxsum), Qo'ng'ur (Qo'ng'ir), To'lqun (To'lqin), Eshqovul (Eshqobul), Tansuq(Tansiq), Qo'shqunboy (Qo'shqinboy), Ko'paysun (Ko'paysin) va boshqalar.*

I>E hodisasi variantlari: *Negora (Nigora), Neyazjon (Niyazjon), Sarvenoz (Sarvinov) va boshqalar.*

I>A hodisasi variantlari: *Ziyovaddin (Ziyoviddin), Ziloladdin (Ziloliddin), Asomaddin (Asomiddin), Asmatulla (Ismatulla), Najmaddin (Najmiddin), Arzaqul (Orziqul), Imomaddin (Imomiddin), Sahat (Sihat), Naholjon (Niholjon), Nahoyat (Nihoyat) va boshqalar.*

O>A hodisasi variantlari: *Izam (Izom), Zarmas (Zormas), Isaxon (Isoxon), Mardan (Mardon), Masali (Masoli), Matisa (Matiso), Agavoy (Og'aboy). Ataboy (Otaboy), Atageldi (Otakeldi), Allanazar (Ollanazar), Aysanam (Oysanam), Narvoy (Norvoy//Norboy), Xalboy (Xolboy), Aysaat (Oysoat), Azat (Ozod), Babayaz (Boboniyoz), Bagbek (Bog'ibek), Agaboy (Og'aboy), Ataq (Otaqurbon), Atan (Otanazar), Bekchan (Bekjon), Jaynaq (Jaynoq), Yondash (Yondosh) va boshqalar.*

O>E hodisasi variantlari: *Enajon, Enagul (Onajon, Onagul), Enomoy (Onamoy), Enabibi (Onabibi), Enaqiz (Onaqiz), Beyjon (Boyjon), Beyjigit (Boyjigit) va boshqalar.*

O>O' hodisasi variantlari: *Bo'bosh (Bobosh), Bo'bon (Bobon), Ho'vajan (Havojon), No'rmat (Normuhammad), Bo'vajan (Bobojon), Bo'ynazar (Boynazar), Bo'yyigit (Bo'yyigit) va boshqalar.*

U>I hodisasi variantlari: *Mahsim (Mahsum), Rahmatilla (Rahmatulla), Imida (Umida), Dilpiz (Dilfuza), Amrilla (Amrulla), Abdilla (Abdulla), Abdilhay (Abdulhay), Ashir (Ashur), Boysin (Boysun), Jambil (Jambul), Yoqip (Yoqub), Ibaydilla (Ibaydulla), Zaynil (Zaynulla), Ismonjon (Usmonjon), Ismanali (Usmonali), Imarqul (Umarqul), Mavlida (Mavluda), Madismon (Madusmon) va boshqalar.*

U>A hodisasi variantlari: *Mahammad (Muhammad), Abaydulla (Udaydulla), Zalqir (Zulqarnay), Mahammaddo'st (Muhammaddo'st), Manavvar (Munavvar), Abaydxon (Ubaydxon) va boshqalar.*

U>O' hodisasi variantlari: *Zo'xir (Zuhur), Zo'riddin (Zuhriddin), Lo'kcha (Lukcha), O'smon (Usmon), O'san//Usan (Husan), No'riddin (Nuriddin), Jo'ma (Juma), Jo'magul (Jumagul), Jo'mat (Jumat), Jo'nay (Junaydulla), Jo'lli (Julli), Jo'lon (Julon), Do'mon (Dumon) va boshqalar.*

E>I hodisasi variantlari: *Isonqul (Esonqul), Isonali (Esonali), Ishchan (Eshchan), Ishqul (Eshqul), Ishbo'ri (Eshbo'ri), Ishim (Eshim), Ihsonbek (Ehsonbek), Irgash (Ergash) va boshqalar.*

E>A hodisasi variantlari: *Arkavoy (Erkaboy), Arkinboy (Erkinboy), Alyorbek (Elyorbek) va boshqalar.*

Shuningdaek ayrim ismlar tarkibidagi y tovushi tushadi: *G'ozia (G'oziya), Olia (Oliya), Shodia (Shodiya), Rozia (Roziya), Shamsia (Shamsia), Sharqia (Sharqiya), Valia (Valiya) va boshqalar.*

O'>I hodisasi variantlari: *Niyanbek (No'yonbek), Izanboy (O'zanboy), Chiyonbek (Cho'yonbek), Mittixon (Mo'ttixon) va boshqalar.*

O'>U hodisasi variantlari: *Kubay (Ko'pay), Durmon (Do'rmon), Luqqi (Lo'qqi), Dusmon (Do'smon), Dusmat (Do'stmat), Dunon (Do'non), Dusat (Do'sat), Kuldosh (Qo'ldosh), Qushoq (Qo'shoq), Uralboy (O'ralboy), To'ychi (To'ychi) va boshqalar.*

O'>O hodisasi variantlari: *Toxtabibi (To'xtabibi), Jovmard (Jo'mard), Toxtaxodja (To'xtaxo'ja), Dosim(ov) (Do'simov), Xodjaniyaz (Xo'janiyoz), Dost-*

mat (Do'stmat), Rozmat (Ro'zmat), Rozika (Ro'zika), Rozimboy (Ro'zimboy) va boshqalar.

Yuqorida keltirilgan va tahlilga tortilgan faktik materiallar, ya'ni antroponimlarning barchasi shu kungacha mavjud rasmiy xujjatlardan olingan. Ko'rinib turibdiki, bular bugungi kunning dolzarb muammolaridan ekanligi va ularni zudlik bilan bartaraf etish choralari ko'rish muhim masalalardan hisoblanadi.

2.4. Undoshlar imlosi bilan bog'liq imloviy variantlar

Ma'lumki, o'zbek adabiy tili uchun (kirill alifbosi nazarda tutilmoqda) 25 ta undosh tovush adabiy me'yordir. Mazkur tovushlar nutqiy amaliyotda, talaffuzning talabiga ko'ra, so'z talaffuzini osonlashtirish maqsadida, qolaversa, og'zaki hamda lahjaviy nutqning o'ziga xos xususiyatlari tufayli, ko'p hollarda so'zlovchi yoki yozuvchining savodxonlik darajasi ta'sirida ayrim fonetik tovlanishlar yoki noadabiy (nome'yoriy) o'zgarishlarga uchraydi. Bunday vaziyatlarda ism tarkibidagi biror tovushning boshqa tovush shakliga o'tishi, tovushning qisqarib tushib qolishi, aksincha, tovush ortishi yoki umuman tovushning noto'g'ri talaffuz qilinishi hollari ko'zga tashlanadi. Mana shunday omillar ism, ya'ni antroponimning me'yoriy shaklining buzilishiga, nomning ikkinchi bir shakliy varianti yuzaga kelishiga sababchi bo'ladi. Bu hodisa ikki holatda yorqin namoyon bo'ladi: birinchisi, tovushning to'liq shakli uning og'zaki talaffuz shaklidan variant hosil qiladi: masalan, **Vohid** (to'liq shakli) – *Vayid* (og'zaki talaffuz shakli), **Ravshan** (to'liq shakli) – *Ro'shan* (og'zaki talaffuz shakli) kabi; ikkinchisi, tovushning to'liq to'g'ri shakli uning lahjaviy shakli bilan variant hosil qiladi: masalan, **Keldiboy** (to'liq shakli) – *Galdiboy* (lahjaviy shakli), **Kenjaboy** (to'liq shakli) – *Ganjaboy* (lahjaviy shakli), **Nazokat** (to'liq shakli) – *Lazokat* (lahjaviy shakli) va boshqalar. Bunday hollarda ism tarkibidagi tovush o'zgarishi umuman og'zaki nutq ta'sirida yuz bermoqdami yoki lahjaviy talaffuz tufayli yuzaga kelmoqdami, buni ajratish qiyin bo'ladi. Buning ustiga adabiy til (nutq) doirasida

ham tovushlarning matnda raqam qilinuvchi shakli bilan uning ogʻzaki talaffuzi oʻrtasida tafovutlar uchrab turadi hamda bundan soʻz variantlari yuzaga keladi. Bu kabi holatlarda tovushning toʻliq holati yozma nutq (adabiy imlo) uchun, ikkinchi varianti esa, adabiy talaffuz uchun meʼyor deb hisoblanadi.

Qanday boʻlgan taqdirda ham oʻzbek ismlari tarkibida keluvchi undosh tovushlarning oʻzgarishi tufayli antroponimik variantlarning yuzaga kelishida turli omillar rol oʻynashi kuzatiladi.

Ana shularni hisobga olgan holda quyida biz oʻzbek ismlari tarkibidagi undosh tovushlarning oʻzgarishi tufayli yuzaga keladigan variantlarga toʻxtalamiz. Bular quyidagilar:

B>V hodisasi bilan bogʻliq variantlar: *Bovojon (Bobojon), Yovon (Yobon), Ixvoliddin (Iqboliddin), Ivadulla (Ubaydulla), Zuvay (Zubay), Zuvayd (Zubaydulla), Yoʻlvars (Yoʻlbars), Mamasovur (Mamasobur), Ogʻavoy (Ogʻaboy), Otavoy (Otaboy), Qodirvargan (Qodirbergan), Qurvondurdi (Qurbondurdi), Eshvardi (Eshberdi), Karimvardi (Karimberdi), Qovulniyoz (Qobulniyoz), Gulzeva (Gulzebo)* va boshqalar.

B>P hodisasi bilan bogʻliq variantlar: *Vaqop (Vahhob), Zaynap (Zaynab), Yoqip (Yoqub), Mannop (Mannob), Rajap (Rajab), Zuhrop (Zuhrob), Turop (Turob), Ayup (Ayub), Soyip (Soyib), Potima (Fotima)* va boshqalar.

B>M hodisasi bilan bogʻliq variantlar: *Mayram (Bayram), Qurmon (Qurbon)* va boshqalar. Kam uchraydi.

B>F hodisasi bilan bogʻliq variantlar: *Soif//Soyib (Sohib), Mutallif (Mutallib)* va boshqalar. Kam uchraydi.

B>Y hodisasi bilan bogʻliq variantlar: *Toʻxtabiyi (Toʻxtabibi), Hojarbiyi (Hojarbibi), Anabiyi//Onabiyi (Onabibi), Ullibiyi (Ullibibi), Biyijon (Bibijon), Sanambiyi (Sanambibi), Rejapbiyi (Rajabbibi), Oybiyi (Oybibi)* va boshqalar.

V>B hodisasi bilan bogʻliq variantlar: *Ziyobiddin (Ziyovuddin), Baliqul (Valiqul), Balijon (Valijon), Bosit (Vosit), Bafo(yev) (Vafoyev), Voyondiq (Boyondiq)* va boshqalar.

D>T hodisasi bilan bog'liq variantlar: *Madat (Madad), Matvali (Madvali), Junat (Junayd), Jo'mart (Jo'mard), Javot (Javod), Jamshit (Jamshid), Jovdat (Jovdad), Ibat (Ivod), Zoyit (Zoyid), Ziyot (Ziyod), Matrizo (Madrizo), Matali (Madali), Ozot (Ozod), Ahatbek (Ahadbek), Asqat (Asqad), Asat (Asad), Behbut (Behbud), Vohit // Voyit (Vohid), Murot (Murod), Zumrat (Zumrad) va boshqalar.*

J>CH hodisasi bilan bog'liq variantlar: *Do'schon (Do'stjon), Matchon (Matjon), Echchan // Esshchan (Eshjon), Yo'lcho'ra (Yo'ljo'ra), Bekchonboy (Bekjonboy), Qo'chchon // Qo'shchon (Qo'shjon), Seyt // Sayit // Sait (Sayidjon) va boshqalar.*

Z>S hodisasi bilan bog'liq variantlar: *Azis (Aziz), Nargis (Nargiz), Ro'siq (Ro'zika), Risq (Rizq), Risqi // Rixsi (Rizqi), Avaz (Avaz), Lazis (Laziz), Afsal (Afzal), Maxfusa (Mahfuza), Musrop (Muzrob) va boshqalar.*

Z>D hodisasi bilan bog'liq variantlar: *Xidir (Xizir), Xidirali // Xidirboy (Xizirali) va boshqalar. Kam uchraydi.*

Y>I hodisasi bilan bog'liq variantlar: *Junaid (Junayd), Zubaid (Zubayd), Raimboy (Rayimboy), Soib (Soyib) va boshqalar.*

Y>N hodisasi bilan bog'liq variantlar: *Zinnat (Ziynat), Bonnazar (Boynazar), Zinnatullo (Ziynatulla), Zanniddin (Zayniddin), Zannabiddin (Zaynabiddin), Zannullo (Zaynulla) va boshqalar.*

Y>J hodisasi bilan bog'liq variantlar: *Boyjigit (Boyyigit), Jo'lchi (Yo'lchi), Jo'lli (Yo'lli), Jo'lbek (Yo'lbek), Jonjigit (Jonyigit), Jilqiboy (Yilqiboy), Norjigit (Noryigit), Oqjigit (Oqyigit), Erjigit (Eryigit), Jo'ldosh (Yo'ldosh) va boshqalar.*

K>G hodisasi bilan bog'liq variantlar: *Go'chgaldi (Ko'chkeldi), Galdiboy (Keldiboy), Ganja (Kenja), Begali (Bekali), Jumagaldi (Jumakeldi), Xo'jagaldi (Xo'jakeldi), Ganjavoy (Kenjaboy), Begbo'ta (Bekbo'ta), Begmat (Bekmat// Bekmuhammad) va boshqalar.*

K>X hodisasi bilan bog‘liq variantlar: *Ixrom (Ikrom), Ixmat (Hikmat), Ixromiddin (Ikromiddin), Zoxirboy (Zokirboy)* va boshqalar.

K>H hodisasi bilan bog‘liq variantlar: *Nazohat (Nazokat), Ihrom (Ikrom), Ahmal (Akmal), Behzod (Bekzod), Ko‘xlamoy (Ko‘klamoy), Mamazohir (Muhammadzokir)* va boshqalar.

K>Q hodisasi bilan bog‘liq variantlar: *Qozim (Kozim), Qamariddin (Kamariddin), Qumushbibi (Kumushbibi), Qamoliddin (Kamoliddin), Qomiljon (Komiljon), Qaromat (Karomat)* va boshqalar.

H>L hodisasi bilan bog‘liq variantlar: *Mallamjon (Malhamjon), Zo‘liddin (Zuhriddin)* va boshqalar. Kam uchraydi.

L>R hodisasi bilan bog‘liq variantlar: *Iqbor (Iqbol), Musirmon (Musulmon), Asqaltoy (Asqartoy), Mehlibon (Mehribon), Musulmonqul (Musurmonqul), Norsuruv (Norsuluv), Oylalxon (Oylarxon)* va boshqalar.

L>B hodisasi bilan bog‘liq variantlar: *Oblo (Ollo), Oblaqul (Olloqul), Halibulla (Hibibulla), Oblasharif (Ollosharif)* va boshqalar.

L>V hodisasi bilan bog‘liq variantlar: *Ovla (Ollo), Havivulla (Habibulla), Savtanat (Saltanat), Yo‘vmirza (Yo‘lmirza)* va boshqalar.

L>Y hodisasi bilan bog‘liq variantlar: *Mirsaymon (Mirsalmon), Jariyxon (Jarilxon), Shodiyxon (Shodilxon), Abuysayd (Abulsayd)* va boshqalar.

M>N hodisasi bilan bog‘liq variantlar: *Nozin (Nozim), Ollon (Ollom), Sotinboy (Sotimboy), Inonjon (Inomjon), Muslin (Muslim), Narin (Norim// Norimon)* va boshqalar.

M>V hodisasi bilan bog‘liq variantlar: *Asovuddin (Asomiddin), Abdusavad (Abdusamad), Isovuddin (Isomiddin), Beymavat (Beymamat// Bekmuhammad)* va boshqalar.

M>G‘ hodisasi bilan bog‘liq variantlar: *Yog‘mur (Yomg‘ir)* va boshqalar. Kam uchraydi.

M>B hodisasi bilan bog‘liq variantlar: *Bannop (Mannob), Bakkam (Mahkam), Asobiddin (Asomiddin), Shadbonjon (Shodmonjon)* va boshqalar.

N>D hodisasi bilan bog‘liq variantlar: *Zaydi (Zayni), Zaydiddin (Zayniddin), Samaddar (Samandar), Majdud (Majnun)* va boshqalar.

N>L hodisasi bilan bog‘liq variantlar: *Lazokat (Nazokat), Zaylab (Zaynab), Zaylobiddin (Zayniddin), Do‘lon (Do‘non), Itizor (Intizor), Zulun// Zulumboy (Zunnun)* va boshqalar.

N>M hodisasi bilan bog‘liq variantlar: *Sumbul (Sunbul), Muhsim (Muhsin), Simdor (Sindor), Qambar (Qanbar), Aymiddin (Ayniddin), Aymura (Aynura), Sog‘imboy (Sog‘inboy), Shambagul (Shanbagul), Esamqul (Ehsonqul), Quromboy (Quranboy), Bo‘rombek (Bo‘ronbek)* va boshqalar.

P>B hodisasi bilan bog‘liq variantlar: *Kubay // Ko‘bay (Ko‘pay), Qoblon (Qoplun), Bekbo‘lat (Bekpo‘lat), Matbano (Matpano), Eshbulat (Eshpo‘lat), Chaban // Cho‘bon (Cho‘pon)* va boshqalar.

R>L hodisasi bilan bog‘liq variantlar: *Abrol (Abror), Abrolqul (Abrorqul), Ahrol (Ahror), Asrol (Asror), Doniyol (Doniyor), Davlon (Davron), Saldor (Sardor)* va boshqalar.

S>Z hodisasi bilan bog‘liq variantlar: *Izomiddin (Isomiddin), Zayfiddin (Sayfiddin), Zobir (Sobir), Itolmaz (Itolmas), Izmoil (Ismoil), Mahsuma (Mahsuma), Zayfullo (Sayfullo)* va boshqalar.

T>D hodisasi bilan bog‘liq variantlar: *Durdivoy (Turdivoy), Durdimurot (Turdimurot), Jumadurdi (Jumaturdi), Sobid // Sobidaxon (Sobit), Tordiqboy (Tortiqboy), Bekdurdi (Bekturdi), Durdiposhsha (Turdiposhsha), Durdigul (Turdigul)* va boshqalar.

T>L hodisasi bilan bog‘liq variantlar: *Toliboy (Totliboy), Tolli (Totli), Tollimurot (Totlimurot), Tolliniso (Totliniso)* va boshqalar.

F>B hodisasi bilan bog‘liq variantlar: *Lotibjon (Latifjon), Lutbulla (Lutfulla), Zulbi // Zulpi (Zulfi), Musharrab (MuSharraf), Ernabas (Ernafas), SHarib (sharif), Zarib (Zarif)* va boshqalar.

F>P hodisasi bilan bog‘liq variantlar: *Sapargul (Safargul), Napas (Nafas), Matsapo (Matsafo), Shapoat (Shafoat), Saypullo (Sayfullo), Zarip (Zarif),*

Abdupatto (Abdufattoh), Orip (Orif), Zulpiniso (Zulfiniso), Zulpiya (Zulfiya), Potima (Fotima), Parag‘at (Farog‘at), Paxriddin (Faxriddin), Payzulla (Fayzulla), Parxat (Farhod), Nazlittin (Fazliddin) va boshqalar.

F>T hodisasi bilan bog‘liq variantlar: *Ottob (Oftob), Ottobxon (Oftobxon), Ittixor (Iftixor), Lutti (Lutfi // Lutfilla // Lutfiya) va boshqalar.*

Q>X hodisasi bilan bog‘liq variantlar: *Maqsimqul (Maxsumqul), Maqsum (Maxsum), Qolboy (Xolboy), Ruqsora // Ruhsora (Ruxsora), Qo‘shboq (Xushvaqt), Qo‘shnazar (Xushnazar), Qoltoy (Xoltoy), Qo‘shmon // Qo‘shman (Xushman), Qudayqul (Xudoyqul), Qolbek (Xolbek) va boshqalar.*

X>H hodisasi bilan bog‘liq variantlar: *Halilulla (Xalilulla), Holto‘ra (Xolto‘ra), Holli (Xolli), Holboy (Xolboy), Nusha (Nusxa), Muhliisa (Muxlisa), Hurshida (Xurshida), Holisa (Xolisa), Fahriddin (Faxriddin), To‘htagul (To‘xtagul), Ruhsatoy (Ruhsatoy), Zulhumor (Zulxumor), Bahtigul (Baxtigul), Bahtiyor (Baxtiyor), Bahmulla (Baxmulla) va boshqalar.*

Sh>Ch hodisasi bilan bog‘liq variantlar: *Kumich (Kumush), Quchman (Qo‘shmon // Xushmon), Qo‘chchon (Qo‘shchon // Qo‘shjon), Echchan (Eshjon), Tochxon (Toshxon) va boshqalar.*

Sh>S hodisasi bilan bog‘liq variantlar: *Safoat (Shafoat), Serikboy (Sherikboy), Sijoat (Shijoat), Jaxsiboy (Yaxshiboy), Jetmisboy (Yetmishboy), Qo‘snazar (Qo‘shnazar) va boshqalar.*

Q>X hodisasi bilan aloqador variantlar: *Sadoxat (Sadoqat), Axchaboy (Oqchaboy), Ixvol // Ixvoliddin (Iqbol // Iqboliddin), Mixsol (Misqol), Tuxli // Tuxliboy (To‘qli // To‘qliboy), Xozixon (Qozixon), Xadimboy (Qadimboy) va boshqalar.*

Q>G‘ hodisasi bilan bog‘liq variantlar: *Lug‘mon (Luqmon), To‘g‘iz (To‘qqiz), Sarig‘bosh (Sariqbosh), Inomg‘ul (Inomqul), Tag‘dir (Taqdir), Razzag‘vargan (Razzoqbergan), Ortig‘ (Ortiq), Siddig‘jon (Siddiqjon) va boshqalar.*

Q>H hodisasi bilan aloqador variantlar: *Ashad (Asqad), Mahsutali (Maqsudali), Olhor (Olqar), Abdulhosim (Abdulqosim), Muhim (Muqim), Hursiya (Kursiya)* va boshqalar.

Q>K hodisasi bilan bog'liq variantlar: *Akbay (Oqboy), Zulkarnay (Zulqarnay), Kambar (Qambar), Kultoy (Qultoy), Kulbek (Qulbek), Askar (Asqar), Kilichboy (Qilichboy), Kuchkor (Qo'chqor), Kurban (Qurbon), Kuryaz (Quryoz), Matkurbon (Matqurbon), Matyakub (Matyoqub), Artik (Ortiq), Razak (Razzoq), Sodik (Sodiq), Xudaykul (Xudoyqul)* va boshqalar.

H>Y hodisasi bilan aloqador variantlar: *Abduvoyid (Abduvohid), Abdurayim (Abdurahim), Rayimboy (Rahimboy), Voyid (Vohid), Zoyid (Zohid), Toyirbek (Tohirbek), Shoyista (Shohista), Mirzarayim (Mirzarahim), Soyib (Sohib)* va boshqalar.

H>K hodisasi bilan bog'liq variantlar: *Makkam (Mahkam), Makbuza (Mahfuza), Adkam (Adham), Burkon (Burhon), Bekbut (Behbud), Makatbek (Mahatbek), Abdukay (Abdulhay)* va boshqalar.

H>V hodisasi bilan aloqador variantlar: *Zavra//Zo'vra (Zahro), Abduzuvur (Abduzuhur), Malovat (Malohat), Movijamol (Mohijamol)* va boshqalar.

H>X hodisasi bilan bog'liq variantlar: *Xojarbibi (Hojarbibi), Raximboy (Rahimboy), Xaqnazar (Haqnazar), Madraxim (Madrahim), Abduraxim (Abdurahim), Zuxra (Zuhra), Jovxar (Javhar // Gavhar), Muxarram (Muharram), Raxminiso (Rahminiso), Subxon (Subhon), Tuxfa (Tuhfa), Xamdam (Hamdam), Xamid (Hamid), Maxkam (Mahkam), Maxfuza (Mahfuza), Maxan (Mahan)* va boshqalar.

G'>Q hodisasi bilan aloqador variantlar: *Uluqbek (Ulug'bek), Qayrat (G'ayrat), To'rqay (To'rg'ay), To'lqanoy (To'lg'onoy)* va boshqalar.

G'>X hodisasi bilan aloqador variantlar: *Paraxat (Farog'at), Xanisher (G'anisher), Kutluxmurat (Qutlug'murot), Turxonali (Turg'onali), Norxosi (Norg'oz)* va boshqalar.

2.5. Ism asosida yuz bergan fonetik o'zgarishlar natijasida hosil bo'lgan variantlar

Ma'lumki, kishi nomlarining qisqarishi adabiy til, ayniqsa, uning tarkibiy qismi bo'lgan shevalarda mavjud bo'lgan ma'lum fonetik-morfologik hamda aksentuatsion qonuniyatlarga amal qiluvchi lingvistik hodisalardan hisoblanadi. Quyida yuqorida qayd etilgan tamoyillarning fonetik qonuniyatlari yuzasidan fikr yuritishni ma'qul topdik.

Ismlar, ya'ni antroponimlar qisqarishining ko'rinishlaridan biri nom tarkibidagi biror tovushning talaffuzda tushishidir. Mazkur holat ko'p bor takrorlanishi sababli ismning o'sha shakldagi talaffuz varianti yuzaga keladi hamda u imloga (yozma matnlarga) kirib keladi. Ismlarning tarkibidan biror tovush tushirilgan shakllari, odatda, lahjaviy hodisa hisoblanib, nomning to'liq shakliga nisbatan imloviy jihatdan nuqsonli holat deb baholanadi. Olib borilgan kuzatishlarimiz natijasida ko'zga tashlangan ism tarkibidagi biror tovush tushishi tufayli yuzaga keluvchi variantlarni keltiramiz:

Ismning to'liq (to'g'ri) shakli	Tovush tushgach, hosil bo'lingan shakl	Tushirilgan tovush
Xo'jaberdi	Xo'jvardi	A
Masharif	Mashrip	A
Jumaniyoz	Jumyoz	A
Mavjuda	Mavjud	A
Dilfuza	Dilfuz	A
Boyalı	Boyli	A
Abulxayr	Bulxayr	A
Matniyoz	Matyoz	I
Abdirim	Abdrim	I
Buviniso	Buvniso	I
Amirilla	Amrilla	I
Alimat	Almat	I

Roʻziqu	Roʻzqul	I
Hayitjon	Haytjon	I
Hayitmat	Haytmat	I
Roʻzika	Roʻzka	I
Bobogʻani	Bovgʻani	I
Roʻzimat	Roʻzmat	I
Boʻrixol	Boʻrxol	I
Boʻritoy	Boʻrtoy	I
Jumali	Jumal	I
Jongʻozi	Jongʻoz	I
Madali	Madal	I
Xudoyor	Xudyor	O
Isoxon	Soxon	O
Masoat	Masat	O
Umarali	Marali	U
Abduazim	Abdazim	U
Ubaydulla	Baydulla	U
Bekuzoq	Bekzoq	U
Boyuzoq	Boyzoq	U
Boboniyoz	Bonniyoz	B
Qurban	Quran	B
Subhonqul	Suhonqul	B
Dovul	Doul	V
Javlon	Joʻlon	V
Jovmard	Jomard	V
Majid	Maji	D
Abdirim	Abirim	D
Badriddin	Bariddin	D
Zayniddin	Zaynidin	D

Majididdin	Majiddin	D
Sa'diddin	Saiddin	D
Siddiqa	Sidiqa	D
Izzat	Izat	Z
Azizxon	Azixon	Z
Azizboy	Aziboy	Z
Razzoq	Razaq	Z
Izzatulla	Izatulla	Z
Lazzatxon	Lazatxon	Z
Razzoqvardi	Razakvardi	Z
Abdulhay	Abduhay	L
Abdujalil	Abdujali	L
Dilberdi	Diberdi	L
Gulmaham	Gumahat	L
Galdi	Gadi	L
Jo'lli	Jo'li	L
Jambil	Jambi	L
Balliqul	Baliqul	L
Xolberdi	Xavardi	L
Akimniyoz	Akiniyoz	M
Abdusalim	Abdusali	M
Muhammad	Muhamad	M
Mukammal	Mukamal	M
Muhammadali	Muhamadali	M
Pirmammat	Pirmamat	M
Ummatali	Umatali	M
Dushandoy	Dushaboy	N
Zinnur	Zinur	N
Mandin	Mandi	N

Mardan	Marda	N
Matnazar	Matazir	N
Jannat	Janat	N
Yo‘lbars	Yo‘lvas	R
Asrorqul	Asraqul	R
Buzruqxon	Buzurxon	R
Jabborali	Jabarali	B
Badrijamol	Badijamol	R
Sharqiya	Shaqiya	R
Kashshof	Kashop	Sh
Oyposhsha	Oyposha	Sh
Poshshaxon	Poshaxon	Sh
Darvesh	Darve	Sh
Do‘stbek	Do‘sbek	T
Do‘stali	Do‘sali	T
Do‘styor	Do‘syor	T
Ollado‘st	Ollado‘s	T
Savlat	Savla	T
Vosit	Vosi	T
Ettovqul	Etovqul	T
Ehson	Eson	H
Ishoqali	Isoqali	H
Muhammadrahim	Mamaraim	H
Gulchehra	Gulchira	H
Abdurahim	Abduraim	H
Zahro	Zaro	H
Amirshoh	Amirsho	H
Haqboy	Aqboy	H
Hayitqul	Aytqul	H

Hayitjon	Aytjon	H
Hikmat	Ikmat	H
Haydarbek	Aydarbek	H
Rahmat	Ramat	H
Hasanboy	Asanboy	H
Vohit	Void	H
Rahmon	Romon	H
Rahim	Raim	H

Yuqorida biz tovush tushishi bilan bogʻliq boʻlgan holatlar yuzasidan fikr yuritib, faktik materiallar asosida tahlil qildik. Endi esa ismlar tarkibida tovush orttirilishi asosida yuzaga keladigan variantlar xususida fikr yuritishni lozim deb topdik.

Ismlar, yaʼni antroponimlarda variantdorlikni yuzaga keltiruvchi yana bitta xususiyat talaffuz jarayonida baʼzi ismlar tarkibida biror tovushning orttirib (qoʻshib) aytilishidir. Bu hodisa ham antroponimning yangi variantini yuzaga keltiradi.

Quyida biz ism tarkibida tovush orttirilishi hodisasiga misollar keltiramiz. Ushbu xususiyat, asosan, undosh tovushlarda kuzatiladi:

-y tovushining orttirilishi: *Gulziyra (Gulzira), Isroyil (Isroil)* va hokazo;

-n tovushining orttirilishi: *Banniyoz (Boboniyoz), Junnayd (Junayd), Sannavar (Sanobar)* va boshqalar;

-z tovushining orttirilishi: *Azzamqul (Aʼzamqul), Azzam (Aʼzam), Azzi (Aziz)* kabilar;

-j tovushining orttirilishi: *Jakbarali (Akbarali), Jakbar (Akbar)* va boshqalar.

-v tovushining orttirilishi: *Valivulla (Valiulla), Aloviddin (Alouddin)* kabilar.

-m tovushining orttirilishi: *Jummon (Jumon), Jomniqul (Joniquil), Jummi (Jumaniyoz)* va hokazo.

-h tovushining orttirilishi: *Shafohat (Shafoat), Isrohil (Isroil), Abdusohat (Abdusoat)* va boshqalar.

-g' tovushining orttirilishi: *Ismog'il (Ismoil), Isrog'il (Isroil), Og'g'iboy (Og'aboy)* kabi.

Imloviy variantlar haqidagi tahlillarni tugatar ekanmiz, bir masalaga qisqacha to'xtash lozim bo'ladi, u ham bo'lsa, o'zbek ismlarining ruscha yozish, aniqrog'i, rus tilining ta'siri natijasida yuzaga kelgan imloviy variantlardir.

Sho'rolar davrida milliy-mahalliy tillar antroponimiyasiga bo'lgan ongli va bir yoqlama munosabat milliy ismlar imlosiga ulkan zarar yetkazdi va ismlarning sun'iy imloviy variantlarini yuzaga keltirdi. Chunki shaxsning tug'ilganlik guvohnomasidan tortib, barcha rasmiy hujjatlarda (pasport, turli guvohnomalar, diplomlar va b.) o'zbekcha ismlar ruscha shaklda, rus tili imlosiga mos ravishda yozilib kelindi. Bu hol o'zbekcha ismning o'zbekcha va ruscha yozilishi shakllarida imloviy variantlarni yuzaga keltirdi.

Ayniqsa, «o» unlisining «a» tarzida: Olim (Alim), «yo»ning «ya» tarzida: G'iyos (Giyas), «o'» ning goh «u», goh «o» tarzida: O'lmas (Ulmas, Olmas), «q»ning «k» tarzida: Qahramon (Kaxraman), «g'»ning «g» tarzida: G'ulom (Gulyam), «a»ning «e» tarzida Toshmat (Tashmet), «u»ning «yu» tarzida: Gulnora (Gyulnara), Mavluda (Mavlyuda), O'g'iloy (Og'ılay); ism tarkibida tutuq belgisining yozilishida ['] ning o'rnida «g» yozilishi: Ma'ruf (Magruf), A'lam (Aglyam) va boshqalar yorqin ko'rindi. Ba'zi ismlar ruscha ikki va undan ortiq imloviy imloviy shakllarda yozildi: *Gulnar, Gyulnar, Gulnara* kabi.

Keltirilgan tip imloviy variantlarning yuzaga kelishining boisi, bir tomondan, rus tili imlosining talablari bo'lsa, ikkinchi tomondan, ismlarni ruscha transkripsiya qiluvchilarning savodxonlik darajasidadir.

Ta'kidlangan imloviy variantlar ayrim hollarda o'zbekcha talaffuz va matnlarga ham singib ketganini ko'ramiz. Masalan, *Taxtaxodja* (*To'xtaxo'ja*), *Aripov* (*Oripov*), *Gulyamov* (*G'ulomov*) va boshqalar.

Keltirilgan tip variantlarning nuqsonli yozilishining qoldiqlari hozirda ham rasmiy hujjatlarda saqlanib kelmoqda. Ushbu nuqsonlarni tuzatish o'zbek ismlari imlosini tartibga solish ishining tarkibiy qismidir.

II BOB bo'yicha xulosalar

Xullas, o'zbek tilining joriy imlo qoidalarida (1956-, 1995-yillar) atoqli otlar imlosi, jumladan, antroponimlar imlosi chetlab o'tilgan va qoidalashtirilmagan. Xolbuki, antroponimlarning o'ziga xos imloviy xususiyatlari mavjuddir.

Antroponimlarni imloviy me'yorlarga e'tiborsizlik bilan munosabatda bo'lish, ularning imloviy variantlariga ham e'tiborsizlikni tug'dirib keldi, natijada o'zbek tilshunosligida kishi atoqli otlarining imloviy variantlari hozirga qadar maxsus tadqiq qilinmagan.

Antroponimlarning imloviy variantlarini o'rganish ushbu variantlarni, asosan, uch guruhga bo'lish mumkinligini ko'rsatdi:

- 1) ism tarkibida unli tovushlarning yozilishi bilan bog'liq bo'lgan imloviy variantlar;
- 2) ism tarkibidagi undosh tovushlarning yozilishi bilan bog'liq bo'lgan imloviy variantlar;
- 3) ism tarkibidagi tovushlarning tushirilishi yoki orttirilishi bilan bog'liq bo'lgan imloviy variantlar.

Ismlarning imloviy variantlari adabiy tilning imloviy me'yorlari nuqtayi nazaridan anormal hodisa hisoblanadi va ularni imkoniyat doirasida me'yorga solish talab etiladi.

O'zbek tilining imlo qoidalarini kelgusida takomillashtirilganda antroponimik tizimdagi imloviy variantlarni ham ko'zda tutish va ular imlosi uchun maxsus moddalar ajratish maqsadga muvofiqdir.

III BOB. ISMLARNING LAHJAVIY VA ERKALASH-KICHRAYTIRISH XUSUSIYATLARI

3.1. Ismlarning lahjaviy va erkalash-kichraytirish shakllari hamda ularning o'rganilishi

Tilning onomstika tizimi nihoyatda murakkab hodisalardan bo'lib, unga faqat adabiy til, adabiy-normativ nuqtayi nazaridan yondashib bo'lmaydi. Chunki u turli ijtimoiy-ma'noviy, kommunikativ-lisoniy omillar ta'sirida o'zgarib turadi.

Ma'lumki, har qanday til doirasida u yoki bu darajada xalq sheva hamda lahjalari mavjud. Tilning mazkur ijtimoiy ko'rinishlari, odatda, adabiy tilga qarama-qarshi qo'yiladi, chunki adabiy tilning me'yorlari shuni talab qiladi. Ammo antroponimik tizimni, uning onomastik birliklarini tamoman adabiyalashtirish, uni og'zaki til, xalq sheva hamda lahjalari ta'siridan tamoman xolos qilib bo'lmaydi. Bunga sabab ismlar oilalarda, til jihatdan ushbu oilalar mansub bo'lgan sheva hamda lahjalar muhitida yaratiladi va bolaga beriladi. Ism uchun asos bo'ladigan apellyativ va undan hosil qilingan ismning o'zi ham nomni yaratgan shaxslarning mahalliy tili xususiyatlariga bog'liq bo'ladi. Mana shu bog'liqlik ismlarning, ular shaklining nafaqat adabiy til va lahjalararo farqini, balki sheva hamda lahjalararo o'zgachiliklarini yuzaga keltiradi. Bu, asosan, ikki holatda ko'rinadi: 1) ismlarning qisqargan (toraygan) shakllarining mavjudligi; 2) antroponimik tizimda turli lahjalarga oidnomlarning mavjudligidir.

Ko'p hollarda milliy tillardagi ismlar fondi **“o'zbek ismlari”**, **“tojik ismlari”**, **“qozoq ismlari”** kabi umumiy tarzda ifodalanadi. Bunda ismlarga umumiy milliy til fondi sifatida yondashiladi hamda antroponimiya materialiga ham adabiy til materiali (ismlarning adabiy til me'yorlariga mos tushuvchi shakllari) hamda xalq tili – sheva, lahjalar materiali sifatida yondashiladi. (Bunda ma'lum sheva va lahjalarda uchraydigan ismlar yoxud shaklan sheva hamda lahjalar xususiyatiga mos bo'lgan ismlar ko'zda tutiladi.)

Keyingi paytlarda antroponimik fondagi ismlarning adabiy va noadabiy ko'rinishlarini farqlashga intilish yuzaga keldi, antroponimlarning lahjaviy tiplari,

qatlamlarini **regional (mintaqaviy) antroponimlar** deb yuritiladigan bo‘ldi hamda bunga doir ayrim kuzatishlar ham yuzaga keldi va ularda mintaqaviy antroponimlar tushunchasi, mintaqaviy nomlarning o‘ziga xos asosiy xususiyatlari tavsiflandi⁴⁶.

Lahjaviy, ya’ni mintaqaviy antroponimlarni umuman olganda uch xususiyat xarakterlaydi:

1. Ismning adabiy tildagidan farqlanuvchi lahjaviy shakli mavjud bo‘ladi. Masalan, Jamanbola–(adabiycha Yomonbola), Qolbuvi– (adabiycha Holbuvi) kabi.

2. Biror sheva yoki lahjagagina xos, ya’ni mintaqaviy ism uchrashi mumkin: G‘uchchi//G‘o‘chchi (qipchoq shevasiga xos), Mengli (qipchoq shevasiga xos), To‘ti, To‘tixon(o‘g‘uz shevasiga xos), So‘na, So‘najan(o‘g‘uz shevasiga xos) va b.

3. Lahja hamda shevalarda ismlar aksariyat holda qisqargan shaklda qo‘llaniladi.

O‘zbek antroponimlarining erkalash-kichraytirish-qisqartish variantlari haqida o‘zining nomzodlik dissertatsiyasida R.Xudoyberganov fikr yuritarkan, shunday yozadi: “Ismlarning erkalash-kichraytirish-qisqartish shakllari (variantlari) asosan xalq tili shevalarida yuzaga keladi. Bu ikki holatda ko‘rinadi: a) mana shunday shakllarning shevaviy fonetika qonuniyatlariga moslashganida; b) qisqargan shakllarning shevalararo farq qilishida: masalan, *Juman–qipchoq shevasida; Jummi–o‘g‘uz shevasida, Sherna(Shernazar), Sheppi(Sharifa), Rejab, Rejji (Rajab, Rajabali), Jummi, Jumak, Jumyoz, Jumash (Jumaniyoz, Jumanazar)*”⁴⁷ kabi.

Ma’lumki, o‘zbek tilshunosligida ismlarning erkalash-kichraytirish hamda qisqartish muammolariga birinchilardan bo‘lib e’tirof etgan tilshunos, prof. F.Abdullayev hisoblanadi. U 1960-yilda “Kishi ismlarining qisqargan usullari”

⁴⁶Худойберганов Ровшан Юсупович. Ўзбек антропонимияси тизимининг вариантдорлиги // Филол.фан.номз.диссер. автореф.-ти. –Тошкент, 2008. –Б. 13.

⁴⁷Худойберганов Ровшан Юсупович. Ўзбек антропонимияси тизимининг вариантдорлиги // Филол.фан.номз.диссер. автореф.-ти. –Тошкент, 2008. –Б. 14.

maqolasini e'lon qiladi⁴⁸. Keyinchalik esa u o'zining "Xorazm shevalari" lug'atida ismlarning Xorazm shevalarida uchraydigan qisqarish shakllariga doir materiallarni bergan⁴⁹.

Keyinchalik mana shu hodisa tilshunos Ahmad Ishayevning ikkita maqolasida Mang'it shevasidagi antroponimik material sifatida qisqacha tahlil qilindi. Mazkur muallif "qisqarish" termini ostida "torayish" terminini qo'llaydi va Mang'it shevasida shaklan toraygan quyidagi ismlarni keltirib o'tadi. Jumladan: *Mataq (Matyoqub, Muhammadyoqub), Marrim, Madrim (Muhammadrahim), Quryoz, Qurbiyaz (Qurbanniyoz), Qutim (Qutlimurod), Djumyaz (Jumaniyoz), Djumat (Jumamurot), Baqqi (Baxtiyor, Bahodir), Palli, Palyaz (Polvonniyoz), Adol, Adish (Adolat), Zummi (Zumrat), Durpash (Durdiposhsha)*⁵⁰ kabi.

O'z navbatida, tilshunos F.Abdullayev yuqorida tilga olingan maqolasida Janubiy Xorazm lahjasida uchraydigan torayish ismlarini keltiradi. Jumladan, shunday yozadi: "Masalan, Quraka (Qurbonboy aka), Sapaka (Safarboy aka), Bavje (Bobojon), Sheraka (Sharifboy aka), Mashaka (Masharif aka), Ataka (Otaboy aka), Alaka, Allamaka (Ollabergan aka) va boshqalar"⁵¹. Ammo Ahmad Ishayevning kuzatishlaridagi bunday qisqartma shakllar mang'it shevasida uchramasligini ko'rsatgan.

Shuningdek, taniqli tilshunos A.Ishayev Mahmud Qoshg'ariyning so'zlarni torayishdan maqsad "talaffuzda yengillik bo'lsin uchun"⁵² degan fikriga qo'shilar ekan, quyidagi xulosaga keladi. Haqiqatan ham, tovush va tovushlar birikmasini tushurib talaffuz etish bilan bog'liq bo'lgan so'zlarning torayishi, qisqarishiga sabab bo'lgan eng muhim faktorlardan biri nutq organlarining yengil harakatiga intilish natijasida talaffuz tempida artikulyatsion yengillikning vujudga kelishidir.

⁴⁸ Абдуллаев Ф. Киши исмларининг қисқариш усуллари // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1960. 3-сон. –Б. 34-35.

⁴⁹ Абдуллаев Ф. Хоразм шевалари. 1-жилд. – Тошкент: Фан, 1961. –Б. 106-109.

⁵⁰ Ишаев А. Манғит шеvasига оид кузатишлар // Адабиётшунослик ва тилшунослик масалалари. – Тошкент: Фан. 1961. –Б.229-234.

⁵¹ Абдуллаев Ф. Киши исмларининг қисқариш усуллари // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1960. 3-сон. –Б. 34-35.

⁵² Қошғарий Махмуд. Девону луғатут турк. 1. – Тошкент: Фан, 1960. –Б. 69.

Bundan tashqari, o'zbek onomastikasining shakllanishida tamal toshini qo'ygan E.A.Begmatov onomastikaning tarkibiy qismi bo'lgan o'zbek antroponimiyasini tadqiq qilar ekan, u ismlarning qisqarish xususiyatlariga ham to'xtalgan. Chunonchi, u shunday yozadi: "O'zbek antroponimiyasi shuni ko'rsatdiki, ismlarning qisqarishi ikki obyektiv ehtiyoj tufayli yuzaga keladi:

- 1) kishini erkalab, munosabatda bo'lish va buni uning ismi orqali ifodalash;
- 2) talaffuzi qiyin (ayniqsa, o'zlashma qo'shma ismlar)ning talaffuzini osonlashtirish maqsadida. Masalan, *Sarviniso, Tojiniso, Muhammad ismlarini Sarvi, Toji, Mamad tarzida qisqartiriladi*"⁵³. Ushbu muallif o'zining mazkur ishida qisqargan ismlarga qo'shiluvchi qo'shimchalar va ularning birikish usullarini ham keng tahlilga tortgan.

Shuningdek, E.Begmatov o'zbek ismlarining qisqargan va erkalash-kichraytirish shakllariga ismlar imlosini tadqiq qilish hamda me'yorlash qonuniyatlarini o'rganish munosabati bilan to'xtalgan, ularni imloviy norma nuqtayi nazaridan baholagan⁵⁴. Biz bu fikrlarga doir masalalarga ishning navbatdagi sahifalarida o'rni bilan qaytamiz. Shuningdek, o'zbek ismlarining qisqarish shakllari va bunga doir materiallar Xorazm mintaqaviy antroponimiyasi misolida tilshunos S.Rahimov tomonidan qisman bo'lsa-da o'rganilgan⁵⁵. U bunga doir materiallarni dissertatsiyaga ilova qildi.

Yuqorida keltirilgan ishlarning aksariyatida antroponimlarning qisqargan hamda erkalash shakllari nomlarning yasalishi, antroponimlarning fonetik va hosil bo'lish xususiyatlari, lahjaviy-shevaviy belgilari, qolaversa, imloviy normalashtirish imkoniyatlari nuqtayi nazaridan o'rganilgan.

3.2. Ismlarning qisqargan variantlari

⁵³Бегматов Э. Ўзбек тили антропонимикаси // Филол. фанл. номз. диссерт.-си автореферати. – Тошкент, 1965. –Б. 22.

⁵⁴Бегматов Э. Киши исмлари имлоси. –Тошкент: Фан, 1970. –Б. 25-31; Ўзбек исмлари. –Тошкент: Фан, 1990. –Б. 14-17.

⁵⁵Раҳимов С. Хоразм минтақавий антропонимияси // Филол. фанл. номз. диссерт.-си автореферати. –Тошкент, 1998. –Б. 20-21.

Oldin ham qayd qilganimizdek, atoli otlarning aksariyati, ayniqsa, kishi nomlari ko'psonli oilalar davrasida, ushbu oilaga mansub kishilar mansub bo'lgan xilma-xil sheva va lahjalar qurshovida paydo bo'ladi. shu tufayli ismlar til mahsuli, til mulki, tilning vositalari tizimiga mansub birlik sifatida mahalliy til va shevalarning lisoniy xususiyatlariga bo'ysunadi, va shu bilan birga, moslashadi. Ismlarning mahalliy-lisoniy bog'liqligi ularda ma'lum hududga xos, o'sha hudud aholisi tili xususiyatlarini gavdalandiruvchi nomlarning yuzaga kelishiga sabab bo'ladi. Mana shu nuqtayi nazaridan mintaqaviy antroponimiyaga, boshqacha qilib aytganda, lahjaviy (dialektal) antroponimiyaga uch xususiyat xosdir:

- 1) ismlarning sheva fonetikasiga bo'ysunishi, ya'ni nomning lahjaviy shaklga egaligi;
- 2) u yoki bu lahjaga xos ayrim ismlarning mavjudligi;
- 3) ismlarning erkalash-kichraytirish shakllarining tipik hodisa ekanligi hamda buning nomning xilma-xil qisqargan shakllarini tug'dirishi va b.

Ismlarning erkalash va qisqarish shakllari bitta va birdan ortiq, ya'ni to'rt-beshgacha shakllarga ega bo'lishi mumkin. Bular, o'z navbatida, nomning ikki xil variantini tug'diradi: 1) antroponim, ya'ni ismning adabiy va lahjaviy shakllari orasidagi variantlilik; 2) birdan ortiq bo'lgan erkalash-qisqarish shakllari o'rtasidagi variantlilik.

Quyida ana shu ismlarning yuqorida qayd qilingan lug'aviy-lahjaviy variantlariga atroflicha to'xtalamiz. Demak, ushbu tip variantlarda ism o'zi mansub shevaga xos shaklga ega bo'ladi hamda ular ismning adabiy tilga moslashgan shakli bilan variantlilikni tashkil qiladi. Chunonchi:

Shevada	Adabiy tilda
Anush	Anaxon
Bakchon	Bekjon
Bakvargan	Bekbergan
Bekdurdi	Bekturdi
Baho	Bahodir

Galdivoy	Keldiboy
Do'sgaldi	Do'stkeldi
Do'chchon	Do'stjon
Nilu	Nilufar
Intush	Intizor
Mataq, Matti	Muhammadyoqub
Ullijon	O'lug'jon
To'pa	Tuhfa
Rayimboy	Rahimboy
Ro'zim	Ro'zimuhammad
Ganja	Kenja
Jumyoz	Jumaniyoz
Eshyoz	Eshniyoz
Xuddi	Xudoybergan
Beymat	Bekmuhammad

Keltirilgan tip nomlar, asosan, o'zbek tilining o'g'uz shevalarida uchraydigan antroponimlar, ya'ni ismlardir (Biz bu o'rinda keltirgan ismlar qisqachadir, ularni ko'plab keltirish mumkin). Shuningdek, mana shu kabi ismlarning ayrim namunalari o'zbek tilining qipchoq shevalarida ham uchraydi:

Shevada	Adabiy tilda
Uloy	O'g'iloy
Risqul, Risboy	Irisqul, Irisboy
Jarqul	Yorqul
Jarqin	Yorqin
Jo'lmat	Yo'lmat
Nurjovul	Nuryog'di
Jolg'as	Yolg'osh
Javlov	Yaylov

Tolloy	Totlioy
Toliboy	Totliboy
Ganja	Kenja
Ulbusin	O‘g‘ilbo‘lsin
Uloy	O‘g‘iloy
Ultuv	O‘g‘iltug‘
Qorjov	Qoryog ⁵⁶ va boshqalar.

Qayd qilingan nomlar ismlarning shevadagi fonetik variantiga o‘xshab ko‘ringani bilan, aslida, o‘sha shevaga xos bo‘lgan original antroponimik birliklardir. Bu kabi ismlarni adabiy lashtirish, ya’ni adabiy shaklga aylantirish, shu bilan birga ularning dialektal xususiyatlarini bartaraf etishga intilish sun’iylikka olib keladi, chunki mahalliy aholi ismning adabiy lashtirishgan ko‘nikmagan hamda ularni adabiy shaklda qabul qila olmaydi. Bu o‘rinda E.A.Begmatovning quyidagi fikrlarini qayd etish o‘rinlidir: “Albatta, nomlar imlosida birinchi holatga amal qilish (masalan, “Durdi”ni Turdi deb yozish – R.X.) hamda yozuvga ismlarning dialektal variantlarini adabiy orfografiya normalariga moslashga intilish maqsadga muvofiqdir. Lekin, hech shubhasiz, bunday o‘zgarish ma’lum sheva vakili bo‘lmish ism egasi uchun erish tuyuladi. Ikkinchidan esa, ismlarning belgili dialekt uchun stabil holatga aylangan shunday dialektal shakllari uchraydiki, ularni adabiy til normalariga moslash ancha qiyinchilik tug‘diradi: Jakabek, Jaynaq, Jannas, Janagul, Jarilxon, Jarmaxon, Jovbo‘ri, Javqon, Qorjovdi, Qorjavul singari”⁵⁷. Demak, keltirilgan tip ismlarni o‘zbek dialektal antroponimiyasining o‘ziga xos lug‘aviy birligi sifatida tan olishga hamda nomlarning izohi va imloviy lug‘atlariga o‘sha shaklda kiritishga to‘g‘ri keladi: “Ismlar tarkibida mahalliy sharoit va adabiy til talaffuzi hamda shevalar talaffuzi bilan bog‘liq anchagina nomlar mavjudki, ular muayyan adabiy til talaffuzi hamda imlosidan cheklanganligini ko‘ramiz.

⁵⁶Худойбергенов Ровшан Юсупович. Ўзбек антропонимияси тизимининг вариантдорлиги // Филол.фан.номз.диссер. автореф.-ти. –Тошкент, 2008. –Б. 17.

⁵⁷Бегматов Э. Киши исмлари имлоси. –Тошкент: Фан, 1970. –Б. 25.

Chunonchi, adabiy tilda yayrasin, yomon, yolgʻon soʻzlari keltirilgan shaklda doimo bir xilda yoziladi. Ammo ismlar Yolgʻosh va Jolgʻash, Yayrasin va Jayrasin, Yomonboy va Jamanboy shaklida ham uchraydi, ularni oʻsha shaklda yozishga ham toʻgʻri keladi”⁵⁸.

Soʻzlarning, ayniqsa, shaklan uzun soʻzlarning qisqarishi hamda ixchamlashuvi oʻzbek tilida mavjud hodisadir. Ayniqsa, bu holat soʻzlashuv uslubida, qolaversa, ogʻzaki talaffuzda yorqin namoyon boʻladi. Masalan, ma (mana), alvoldi (olib oldi), opke (olib kel), hecham (hech ham), shuyam (shu ham) va boshqalar.

Qisqarish hodisasi, ayniqsa, tilning antroponimik tizimida sermahsul boʻlib, u oʻziga xos xususiyatlarga ega. Ushbu hodisani tilshunoslar oʻzlarining nuqtayi nazaridan turlicha talqin qilishadi. Masalan, “qisqarish”(F.Abdullayev, E.Begmatov, R.Xudoyberganov), “torayish”(A.Ishayev), “nom qismlarining uzilishi” (E.Begmatov), “erkalash-kichraytirish shakllari” (R.Xudoyberganov) va boshqa xil terminlar bilan yuritishmoqda. Biz mazkur ishimizda “qisqarish” hamda “erkalash-kichraytirish shakllari” terminlaridan foydalanishni maqsadga muvofiq deb topdik.

Ismlarning qisqarishi haqida gap borar ekan, ushbu hodisa ikki holat bilan bogʻliq ekanini qayd etish lozim boʻladi: 1) nomni talaffuz uchun qulay shaklga keltirishga intilish; 2) bolani uning ismini aytib erkalash tufayli ism shakli oʻzgarishga uchraydi. Bunday oʻzgarish ism tarkibidagi maʼlum qismning (komponentning, boʻgʻinning, tovushning) tushirilishi hisobiga yuz beradi. Yuqoridagi terminlar bilan ifodalanadigan boʻlsa, nom shaklan siqiladi, yaʼni qisqaradi, yoxud torayishga uchraydi. Mazkur jarayon nom tarkibidan muayyan talaffuz qonuniyatlar asosida biror bir boʻlakning, elementning siqib chiqarilishiga sabab boʻladi. Bunda ikki usul koʻzga tashlanadi:

1. Ismning biror qismining tushirilishiga asoslangan antroponimik variantlar;
2. Ism qismi (qismlari)ning qisqarishiga asoslangan antroponimik variantlar.

⁵⁸Бегматов Э. Ўзбек исмлари. –Тошкент: Қомуслар Бош таҳририяти. 1991. –Б. 83.

Ism qismlaridan birining tushib qolishi nomning turli pozitsiyalarda yuz berishi mumkin:

1. Ismning bosh qismi (komponenti) tushiriladi: abdu//abdi:
Abduvohid≥Vohid, Abdujabbor≥Jobbor, Abduholiq≥Holiq, Abdurazzoq≥Razzoq;

-berdi: Berdimurot≥Murot, Berdimalik≥Malik, Berdiqilich≥Qilich, Berdirasul≥Rasul kabi.

2. Ismning ikkinchi qismi (komponenti) tushadi:

-iddin: Asomiddin≥Asom, Badriddin≥Badr, Biloliddin≥Bilol, Isomiddin≥Isom, Jaloliddin≥Jalol, Jamoliddin≥Jamol, Najmiddin≥Najim, Nizomiddin≥Nizom va boshqalar.

-ulla//ullo//illa: Asadullo≥Asad, Baqoulo≥Baqo, Valiulla≥Vali, Junaydulla≥Junayd, Nexmatulla≥Ne'mat, Nusratilla≥Nusrat, Habibulla≥Habib va boshqalar.

-niso//nisa: Baxriniso≥Baxri, Baxtiniso≥Baxti, Zebiniso≥Zebi, Lutfiniso≥Lutfi, Mehriniso≥Mehri, Tojiniso≥Toji, Xayrinisa≥Xayri, Huriniso≥Huri va boshqalar.

Keltirilgan tip nomlar tarkibidagi –niso qismi doimo ham tushavermaydi. Bizning kuzatishlarimiz mazkur komponent bir qator nomlarda qisqartirilmasdan to'liq aytilishini ko'rsatadi. Buning ikki sababi borga o'xshaydi: birinchidan, -niso tushirilsa, qolgan qism ism hosil qilmaydi, ya'ni o'zbek tilida ana shunday shaklda ayollar ismi yo'q. Masalan: Suydi (niso), Bog'i (niso), Zulfi (niso), ikkinchidan, -niso tushirilgach, qolgan qism o'zbek tilida erkaklar ismi sifatida qo'llanadi, ammo ana shu shaklda ayollar nomiga o'tmaydi. Masalan, Hoji (niso), Faxri (niso), Bo'ri (niso), Tuychi (niso), Meli (niso), Parda (niso), Pirim (niso), Rahmi (niso), Shodi (niso) va boshqalar.

-berdi, -bergan. Ushbu qism qo'shma ismlarning birinchi yoki ikkinchi komponenti bo'lib kela oladi hamda har ikki holatda bu qismlarning tushirilish holatini kuzatish mumkin.

“Berdi” qismining ismlarning bosh qismida kelganda tushirilish holatiga yuqorida to‘xtaldik. **“Bergan”** qismi esa ismlarning oxirgi komponenti bo‘lib keladi. Mazkur o‘rinda ushbu qismlarning ism oxirida kelgan hollarida tushirilishi va bundan bundan yuzaga kelgan ism shaklining nom to‘liq shakliga nisbatan atroponimik variantlar hosil qilishiga dalillar keltiramiz. Hozirgi o‘zbek adabiy tilida uchraydigan Berdi, Berdivoy, Berdibek, Berdiqul ismlari aslida ushbu qism ishtirok etgan qo‘shma nomlarning qisqarishidan, asosiy qismning esa tushib qolishidan yuzaga kelgan.

Mazkur qismlarning ism tarkibida kelishiga xos xususiyat shundaki, ba’zi shaklan to‘liq ismlar tarkibida faqat **“berdi”** so‘zi keladi, bir qator nomlarda esa asosiy komponentga **“berdi”** va **“bergan”** qismlari barobar qo‘shilaveradi. Quyida faqat **“berdi”** komponenti qo‘shilgan ismlarni keltiramiz: Azizberdi, Azimberdi, Manguberdi, Niyozberdi, Rostberdi, Salimberdi, Soyipberdi, Subhonberdi, Suyunberdi, Tilabberdi, Bekberdi, Qulberdi va boshqalar.

“Berdi” hamda **“Bergan”** komponentlari bitta ism negiziga parallel qo‘shila oladi va bunda ismning to‘liq shakli bilan uning qisqargan shakli orasida variantlar hosil bo‘ladi. Masalan: Berdi va Xudoyberdi, Bergan va Karimbergan kabi.

Tarkibida **“bergan”** komponenti keluvchi ismlar miqdoran ko‘p emas. Bunday ismlar o‘zbek tilining o‘g‘uz shevalarida ko‘proq uchraydi. Masalan, Ollabergan, Po‘latbergan, Tangribergan, Xudoybergan, Gulimbergan, Karimbergan va boshqalar.

Quyida **“berdi”** hamda **“bergan”** komponentlarini ismlarda parallel qo‘shilgan ism negizlarini keltiramiz. Masalan: Bakbergan va Bakberdi, Jobborbergan va Jobborberdi, Karimbergan va Karimberdi, Mavlonbergan va Mavlonberdi, Ollambergan va Ollamberdi, Oqbergan va Oqberdi, Razzoqbergan va Razzoqberdi, Rahmonbergan va Rahmonberdi, Rahimbergan va Rahimberdi, Sattorbergan va Sattorberdi, Xudoybergan va Xudoyberdi, Tangribergan va Tangriberdi, Tilovbergan va Tilovberdi, Xoliqbergan va Xoliqberdi, Xo‘jabergan

va Xo‘jaberdi, Egambergan va Egamberdi, Qodirbergan va Qodirberdi, G‘offorbergan va G‘offorberdi, Haqbergan va Haqberdi kabi.

Yuqorida keltirilgan holatlarda antroponimik variantdorlik uchta xususiyatda ko‘rinadi: a) ismning to‘liq shakli bilan uning qisqargan varianti variantlilikni yuzaga keltiradi. Masalan: Berdi va G‘offorberdi, Berdi va Qodirberdi, Sattorberdi va Berdi; b) **“berdi”** hamda **“bergan”** qismi ismlar “kimdir bolani ato qilgan”, unga erishtirgan ma’noda mohiyatan dublet –variantlardir. Masalan: Xudoybergan va Xudoyberdi, Tangribergan va Tangriberdi; v) “berdi” komponenti nomning birinchi yoki ikkinchi komponenti bo‘lib kelganida mohiyatan bir xil motivativ ma’no anglatadi. Masalan: Niyozberdi va Berdiniyoz, Berdinazar va Nazarberdi, Berdimavlon va Mavlonberdi, Berdirasul va Rasulberdi, Berdixol va Xolberdi kabi.

Quyida ism tarkibida keluvchi –yor komponenti xususida atroflicha to‘xtalamiz:

– **yor** komponenti: ushbu komponent bir qator ismlarning birinchi va ikkinchi komponenti bo‘la oladi hamda ayrim hollarda ismlarning shakliy variantini yuzaga keltiradi. Masalan: Aliyor // Yorali, Yoramad va Ahmadyor va boshqalar. Keltirilgan variantlar mohiyatan bir motivativ ma’noga ega. Masalan: Aliyor // Yorali ismlarida “Aliyor – madadkor bo‘lib, qo‘llab yursin” deyilgan mazmun ifodalagan. Ammo – **yor** komponenti nomlarning birinchi yoki ikkinchi qismini tashkil qilgan barcha hollarda ham variantdorlik hosil bo‘lavermaydi. Bular quyidagi ismlarda ko‘rinadi: Asfandiyor, Baxtiyor, Buvayor, Davlatyor, Doniyor, Shahriyor, Elyor, Choriyor va boshqalar.

Yuqorida keltirilgan qo‘shma ismlarning komponentlarini o‘zaro almashtirib bo‘lmaydi, bunday qilish nomning ma’no va tuzilishiga shikast yetkazadi va so‘z apelyativlik xususiyatidan judo bo‘ladi.

Endi ismlarning erkalash-kichraytirish variantlarini yuzaga keltiruvchi holatlarni faktik materiallar asosida ko‘rib chiqishni maqsadga muvofiq deb

topdik. Umuman o'zbek ismlarning erkalash-kichraytirish variantida quyidagi hodisalar kuzatiladi:

a) ism tarkibidagi oxirgi bo'g'in tushiriladi: *Durposh (Durposhsha)*, *Oyposh (Oyposhsha)*, *Iskan (Iskandar)*, *Saman (Samandar)*, *Zulfi (Zulfizar)*, *Zulfi (Zulfiqor)*, *Zubay (Zubayra)*, *Zubay (Zubayda)*, *Xolposh (Xolposhsha)*, *Elmir (Elmirza)* va boshqalar;

b) ismning o'rta bo'g'ini tushiriladi: *Oy (ni)so*, *Sad(ul)la*, *Qul(ah)mad*, *Sher(ma)mat*, *Bey(ma)mat*, *Qo'sh(ma)mat*, *Jum(ani)yoq*, *Qur(bon)yoq*, *Esh(ma)mat*, *Nur(ma)mat*, *Kamol(id)din*, *Jamol(id)din*, *Ibod(ul)la*, *Zay(nid)din*, *Bobo(ni)yoq* va boshqalar;

v) ism tarkibidagi biror tovush tushadi: *An(i)yoq*, *Al(i)murot*, *Anzira(t)*, *Al(i)mirza*, *Ra(b)biniso*, *Bib(i)nor*, *Si(d)diqa*, *Sho(d)dil*, *Dilfuz(a)*, *Dildor(a)*, *Jon(u)zoq*, *Za(h)ro*, *Zo'(h)ra*, *Ra(h)im*, *To'(h)paxon*, *Salo(h)iddin*, *Sho(h)niyoq*, *Sho(h)suvor*, *Eshbo'(l)sin*, *Z(u)vayda*, *So(h)ib*, *N(i)yoqdurdi*, *Is(h)oqali*, *Is(h)oqjon*, *E(h)son*, *Gulche(h)ra*, *Xud(o)yoq*, *Ro'z(i)qul* va boshqalar;

Shuningdek, ism boshidagi tovushning tushirilishi hodisasi ham mavjud bo'lib, ammo ular o'zbek adabiy tili va uning sheva va lahjalarida kam uchraydi. Bunga sabab esa ismning shaklan buzilib ketmasligiga yo'l qo'ymaslik bo'lsa kerak. Misollar keltiramiz: *(I)risqul*, *(H)ikmat*, *(H)aytjon*, *(H)aytvoy*, *(H)aytgul*, *(H)aytmamat*, *(H)aytmat*, *(H)akimboy*, *(H)aqnazar*, *(H)aydarbek* va boshqalar;

g) kam bo'lsa-da, ism tarkibida biror tovush orttirilishi hodisasi uchraydi. Masalan: *Oqaboy (Oqboy)*, *O'razmat (Ro'zmat, Ro'zimhammad)*, *Shapoat (Shafoat)*, *Gilyaz (Ilyos)*, *Gali (Ali)*, *Jakbar (Akbar)*, *Jakbarali (Akbarali)* va boshqalar.

Ishimizning avvalgi sahifalarida ham qayd qilganimizdek, ismlar tilning faol funksional leksikasi jumlasiga kiradi. Oilalarda, jamoalarda hamda ijtimoiy hayotning boshqa barcha sohalarida inson ismi, familiyasi har kuni, har onda ko'p bor takrorlanib turadi. Kishining ismini tilga olish rasmiy, norasmiy bo'lishi mumkin. Bunday qo'llanishlarda norasmiy ishlatishlar, ya'ni moddiy, ma'naviy

hamda intim holatlar ustun turadi. shaxsning ismini aytib, unga hurmat izhor qilish, shu bilan birga, yaqinlikni bildirish, uni erkalash, suyish mumkin. Ayniqsa, ota – onalarning o‘z farzandlarini erkalashi, suyishganlarning intim muomalalarida turli shakllarda o‘zgartirib takrorlash va boshqalar muhim o‘rin tutadi. Chunonchi, Dilbar ismini Dilash, Dilashim, Dilish, Dilishim va boshqa shakllarda talaffuz qilinadi. Ayrim hollarda mana shunday suyish, erkalash tufayli ism tamoman o‘zgacha shaklga kirib ketadi va uning o‘nlab erkalash shakllari yuzaga keladi.

Tilshunoslikda ismlarning keltirilgan shakllarini “Ismlarning erkalash – kichraytirish shakli” ham deb yuritiladi. Bunga sabab ismning mazkur shakllarida, bir tomondan, ayrim ism shaklan qisqarib kichrayali. Chunonchi, Sarviniso – Sarvi, Sarvim, Sarbish, Sarri, Sarbishim va boshqalar.

Ismlarning qisqarishi sababli bo‘ladigan ikkinchi omil shaklan uchun yoki talaffuzi qiyin ismlarning aytilishini osonlashtirish, talaffuz organlariga yengillik tug‘dirishga intilishdir. Masalan, Muhammadshukur ismni Mamash, Mamashukur, Mashukur tarzda qiqartirish ushbu maqsal natijasidir. Xuddi shuningdek, Ro‘zimuhammad ismining Ro‘zi, Ro‘zzi, Ro‘zmat, Ro‘zim, Ro‘zish, Ro‘zimmat kabi shakllarida mana shunday intilish ifodalangan.

Ismlarning qisqarish variantlari ismni erkalash – kichraytirish jarayonining qanday kechishiga bog‘liq. Ammo bunda ham nomni qisqartirishning chegarasi til tizimi yo‘l qo‘yuvchi lisoniy imkoniyatlarga tayanadi.

Xuddi shuningdek, erkalash – kichraytirish usulini qisqargan ismlarga xos muhim xususiyatlaridan biri qisqargan ism shaklining ma’lum qo‘shimchalarni olib shakllanishidir. Bu haqida, o‘z vaqtida, yuqorida tilga olinganishlarda F.Abdullayev, B.O‘rinboyev, E.Begmatov va R.Xudoyberganovlar gapirishgan hamda ana shunday qo‘shimchalarning ayrimlarini qayd etishgan.

Bizning, umuman o‘zbek tilidagi, jumladan, Xorazm aholisi antroponimiyasi materiaallari yuzasidan kuzatishlarimiz ismlarning erkalash – kichraytirish shakllariga quyidagi qo‘shimchalar qo‘shilishini ko‘rsatdi:

-y, (-ay) qo'shimchasi: Botay (Botirali), Matay (Matqurbon), Solay (Salohiddin) va boshqalar;

-ash, (-sh) qo'shimchasi: Mahash (Marhamat, Marhila), Dilash (Dilbar, Dirlabo, Dilorom, Dilafro'z) va boshqalar;

-sh (-ish, -ash) qo'shimchasi: Sarbish, Sarvish (Sarbiniso), Safash (Safarali), Saydish (Sa'dulla), Turdish (Turdiniso), Begish (Begmat, Bekmuhammad) va boshqalar;

-m qo'shimchasi: Begim (Begmat, Bekmuhammad), Marim (Madrachim, Muhammadrahim), Narim (Nurmat, Nurmuhammad), Qulim (Qulmat, Qulmuhammad) va boshqalar.

Xullas, antroponimlarning lahjaviy variantlarini yuzaga keltiruvchi omil hamda buning hodisasi bo'lmish variantlar ikki xil bo'lishi mumkin: a) nomning adabiy imloviy shakli va lahjaviy variantlilik: masalan, Yorqin // Jarqin, Xolbuvi // Qolbuvi, Tolloy // Totlioy; b) nomning lahja, shevalararo farqli shakllarining variantlilik: masalan, Aglam // Alom, Allom, Agzam // A:zam, Nugmon // No'mon va h.

Antroponimlarning erkalash – suyish omili va jarayoni bilan bog'liq variantlar bitta ismning bolani erkalash – suyish jarayonida bir necha shakliy variantlarga kirishi tufayli yuz beradi: masalan, Dilbar, Dilorom – Dilash, Dilish, Dilim, Dilishim; Nurmuhammad – Nurish, Nurash, Nurim, Nuri.

3.3. Antroponimik variantlar hosil bo'lishning boshqa tiplari

Ishimizning avvalgi sahifalarida ham qayd qilganimizdek, ismlar tilning faol funksional leksikasi jumlasiga kiradi. Oilalarda, jamoalarda hamda ijtimoiy hayotning boshqa barcha sohalarida inson ismi, familiyasi har kuni, har onda ko'p bor takrorlanib turadi. Kishining ismini tilga olish rasmiy, norasmiy bo'lishi mumkin. Bunday qo'llanishlarda norasmiy ishlatishlar, ya'ni moddiy, ma'naviy hamda intim holatlar ustun turadi. Shaxsning ismini aytib, unga hurmat izhor qilish, shu bilan birga, yaqinlikni bildirish, uni erkalash, suyish mumkin. Ayniqsa,

ota- onalarning o‘z farzandlarini erkalashi, suyishganlarning intim muomalarda turli shakllarda o‘zgartirib takrorlash va boshqalar muhim o‘rin tutadi. Chunonchi, Dilbar ismini Dilash, Dilashim, Dilish, Dilishim va boshqa shakllarda talaffuz qilinadi. Ayrim hollarda mana shunday suyish, erkalash tufayli ism tamoman o‘zgacha shaklga kirib ketadi va uning o‘nlab erkalash shakllari yuzaga keladi.

Antroponimik tizimda variatdorlikni hosil qiluvchi va tug‘diruvchi boshqa hodisalar ham uchraydi. O‘z navbatida, bularga qisqacha to‘xtalishni lozim topdik.

1.Erkaklar va ayollar ismining variant shakllari. Ma’lumki, o‘zbek antroponimiyasi tizimida erkaklar va ayollar uchun bir xil qo‘yiladigan ismlar mavjud. Masalan: Tursin (erkak) – Tursin (ayol), Karomat (erkak) – Karomat (ayol), Iqbol (erkak) – Iqbol (ayol), Munis (erkak) – Munis (ayol), Dilshod (erkak) – Dilshod (ayol) va boshqalar. Nom berish amaliyotida o‘g‘il bolalar va qiz bolalarga barobar qo‘yiluvchi nomlarni shaklan farqlashga inilish mavjudligini, buning uchun turli usullardan foydalanilishini ko‘ramiz. Bunda keng tarqalgan usullardan biri ayollik jinsiga ishora qiluvchi, asli arabcha bo‘lgan –a va –ya (-iya) qo‘shimchalaridan foydalanishdir. Quyida biz ushbu usulda hosil qilingan ism variantlarini keltiramiz.

-a qo‘shimchasi yordamida hosil qilingan ismlar:

Erkaklar ismi	Ayollar ismi	Erkaklar ismi	Ayollar ismi
Adib	Adiba	Komil	Komila
Aziz	Aziza	Laziz	Laziza
Azim	Azima	Latif	Latifa
Amin	Amina	Marg‘ub	Marg‘uba
Anor	Anora	Ma‘mur	Ma‘mura
Asror	Asrora	Maqsud	Maqsuda
Vohid	Vohida	Munis	Munisa
Damir	Damira	Munir	Munira
Diyor	Diyora	Muslim	Muslima
Dilshod	Dilshoda	Mo‘min	Mo‘mina

Yodgor	Yodgora	Naim	Naima
Jamil	Jamila	Nasim	Nasima
Jamol	Jamola	Obid	Obida
Zamon	Zamona	Umid	Umida
Zarif	Zarifa	Habib	Habiba
Ziyod	Ziyoda	Xurshid	Xurshida
Odil	Odila	Sharif	sharifa
Ozod	Ozod	Shohid	Shohida
Olim	Olima	Halim	Halima
Oqil	Oqila	Hafiz	Hafiza
Rashid	Rashida	Hilol	Hilola
Rahim	Rahima	Hosil	Hosila
Said	Saida	Hofiz	Hofiza
Sarvar	Sarvara	G'olib	G'oliba
Solih	Soliha	G'arib	G'ariba
Sohib	Sohiba	E'zoz	E'zoza
Suyun	Suyuna	Eldor	Eldora
Kamol	Kamola	Tohir	Tohira
Karim	Karima	Billur	Billura

-ya, (-iya) qo'shimchasi yordamida hosil qilingan ismlar:

Erkaklar ismi	Ayollar ismi	Erkaklar ismi	Ayollar ismi
Amir, Amr	Amriya	Sami(xon)	Samiya
Asl	Asliya	Soli	Soliya
Asrboy	Asriya	Subh(iddin)	Subhiya
Badr	Badriya	Faxri	Faxriya
Vasf	Vasfiya	Xayr(ullo)	Xayriya
Lutf(illo)	Lutfiya	Shams	Shamsiya
Mehr(iddin)	Mehriya	Shodi	Shodiya

Sadr	Sadriya	Qori	Qoriya
Sayfi	Sayfiya	Rozi	Roziya

Yuqorida keltirilgan ism shakllarining variantdorlikka aloqadorligi qanday deyilgan savol tugʻiladi? Maʼlumki, variant bitta va bir maʼnoli ismning ikki xil shaklidir. Masalan: Muhammad va Mamad, Qurbonniyoz va Quryoz kabi. Shunday ekan, Tursin, Karomat ismining erkak va ayollar ismi kelishida variantdorlik yoʻq, balki ismning koʻpfunksionallik xususiyati mavjud. Mana shu nuqtayi nazardan qaralsa, Aziz (erkak ismi) va Aziza (ayol ismi), Soli (erkak ismi) va Soliya (ayol ismi) shakllarida bir xil motivativ maʼno bir xil boʻlsa-da, ism shaklida oʻzgarish bor. Chunki bittasi (Aziz) erkaklar ismi shakli boʻlsa, ikkinchisi (Aziza) ayollar ismi shakli. Ism maʼersi bir xil boʻlsa-da, nomning nom egasi jinsiga koʻra shakliy moslashish bor. Buning ustiga ayollar ismi shaklida yasaliish hodisasi mavjud. Ammo shunga qaramasdan Soli va Soliya ismlari bitta nomning ikki xil shaklidir.

2. Ismning toʻliq shakli bilan ayrim qisqarma shakllari orasidagi variantlilik.

Antroponimik tizimda ayrim ismlarning toʻliq shakli va qisqargan shakllari mavjud. Bu shakllar aslida ism toʻliq shaklining turlicha oʻzgargan variantlaridir. Ayrim dalillarni keltiramiz:

Ismning toʻliq shakli	Hosil boʻlgan variantlar
Avaz	Avazbek, Avazboy, Avazjon, Avazxon, Avazqul, Avazgul
Aziz	Azizjon, Azizboy, Azizxon, Azizqul, Aziza
Turgʻun	Turgʻunboy, Turgʻunjon, Turgʻunxon, Turgʻunoy, Turgʻunsho, Turgʻunbibbi, Turgʻuna
Oʻlmas	Oʻlmasboy, Oʻlmasbek, Oʻlmasoy, Oʻlmasxon, Oʻlmasjon
Oʻgʻil	Oʻgʻilboy, Oʻgʻiljon, Oʻgʻilxon, Oʻgʻilbika, Oʻgʻiloy, Oʻgʻilbuy, Oʻgʻilbeka

Mana shu kabi variantlarni ko‘plab keltirish mumkin. Keltirilgan variantlarning motivativ ma’nosi ularga asos bo‘lgan asosiy ism motivi bilan bir xil bo‘ladi. Masalan, Turg‘un ismining variantlarida bolaning yashab ketishini istash motivi, O‘g‘il ismining variantlarida o‘g‘il ko‘rish orzusi motivi ifodalangan. Mana shu motivlar ushbu ismlardan hosil bo‘ladigan barcha variantlar uchun ham tegishlidir.

3. O‘zbek antroponimiyasi tizimida shunday qo‘shma ismlar uchraydiki, ular ism komponentlarining o‘zaro joy almashinishi orqali hosil qilingan. Bunday nomlar mohiyatan bitta ma’no, motiviga bog‘liq antroponimik variantlardir. Masalan: Alisher – Sherali, Alibek – Bekali, Gulnor – Norgul, Guloy – Oygul, Nortoji – Tojinor, Bibinor – Norbibi, Qo‘ziboy – Boyqo‘zi va boshqalar. Ushbu nomlarning motivativ asosi, materialining o‘xshashligiga ko‘ra bitta motivli nomning ikki xil shaklda hosil qilinishidir. Ammo mazkur ismlar konkret, ya’ni aniq shaxsning nomiga aylangach, ular funksional jihatidan alohida – alohida mustaqil atoqli ot sifatida nominativ differensiyaga uchraydi. Chunki Boyqo‘zi nomli shaxs amaliyotda Qo‘ziboy nomli shaxsdan ismiga ko‘ra farqlanishi aniq.

III BOB bo‘yicha xulosalar

1. Xullas, biz yuqorida o‘zbek antroponimiyasi tizimida variantdorlikning ko‘rinishlari, ularning tarkibiy qismini tashkil qiluvchi ismlarning erkalash-kichraytirish variantlarini tahlil qildik. Kelgusida respublikamizning barcha hududi bo‘yicha ismlarning erkalash – kichraytirish variantlarini to‘plab, tahlil qilinsa, biz olib borgan ishning doirasi yanada kengayib, antroponimik variantlar, shu jumladan, ismlarning erkalash–kichraytirish variantlarining yangi qirralari ochilishi, shu bilan birga, yangi-yangi dalillar bilan boyib borishi shubhasizdir.

2. O‘zbek antroponimiyasi tizimida variantdorlikni tug‘diruvchi omillardan biri erkalash – kichraytirish omilidir. Bunda ismning to‘liq shakli ushbu omil tufayli turli shakllarga kiradi va antroponimik variantlarni tug‘diradi.

3. Antroponimik variantlarni yuzaga keltiruvchi omillardan yana biri ismlarning turli lahja va shevalarda mahalliy shakllarga ega bo'lishidir. Ismning lahjaviy shakli nomning adabiy shakliga nisbatan yoki bitta ismning shevalararo shakllari o'zaro antroponimik variantni tug'diradi.

UMUMIY XULOSALAR

O'zbek tilidagi ismlarning erkalash va kichraytirish variantlari shuningdek, ismlarning lug'aviy va lahjaviy variantlari, ularning yuzaga kelish sabablari, variantlarning hosil bo'lish usullari tadqiq qilish quyidagi xulosalarga kelish imkoniyatini beradi:

1. O'zbek tilshunosligida, uning tarkibiy qismi bo'lgan o'zbek onomastikasida ismlarning erkalash va kichraytirish variantlari ma'nolari hamda ismlarning lug'aviy va lahjaviy variantlari, ularning talqini, tuzilishi, hosil bo'lishi va boshqalar yuzasidan muayyan ishlarni amalga oshirdik. Ammo ismlarning erkalash va kichraytirish variantlari hamda ismlarning lug'aviy va lahjaviy variantlari masalasi monografik planda maxsus o'rganilmagan.

2. Umuman onomastik, jumladan, antroponimik, toponimik parallellar atoqli otlar tizimining o'ziga xos yashash tarzini ifoda qiluvchi qonuniyatlardan biridir.

3. Til tizimida, jumladan, antroponimiyada variant, variantdorlikka yondosh bo'lgan hodisalar mavjud. Bular sinonimlar, parallellar, qo'shnomlilik va ko'pnomlilik va b.

4. Variantlilik masalasi qayd qilingan lisoniy hodisalardan farqlanadi. Variant, variantdorlik, invariant, ya'ni bir asosiy (asos) antroponimdan nomning qo'llanilishi, funksional holatlarda yuzaga kelgan turli, farqli shaklaridir.

5. Atoqli otlar, jumladan, antroponimik tizimdagi variantdorlik bitta nomning turli shakllariga ega bo'lishidir. Bunday shakllarga ismlarning kichraytirishshakllari, erkalash shakllari hamda lahjaviy shakllari kiradi.

Ismlarning variantlari bitta sheva, bitta lahja, bitta til, adabiy til va lahjalar doirasida uchraydi.

6. Onomastik sinonimlar hamda parallellar adabiy norma nuqtayi nazaridan inkor etilmaydi va ularni bartaraf qilish haqida fikr yuritilmaydi.

7. Sheva va lahjalararo onomastik variantlar mavjud bo'lib, ular o'sha sheva va lahja tizimida adabiy norma nuqtayi nazaridan baholanmaydi va bartaraf etilmaydi. Ularni normativ baholash bu nomlar adabiy til doirasiga o'tgandagina yuz berishi mumkin. Demak, onomastik variantlarning adabiy til doirasidagi ko'rinishlari adabiy norma nuqtayi nazaridan baholanishi va me'yorlanishi mumkin.

8. Antroponimik hamda toponimik variantlarning hosil bo'lish usuli va lisoniy materialiga ko'ra, fonetik variantlar, fonologik (talaffuz) variantlar, morfologik variantlar, sintaktik variantlar hamda leksik variantlarga bo'linadi. shuningdek, adabiy til doirasida imloviy variantlar ham mavjud.

9. Xullas, antroponimlarning lahjaviy variantlarini yuzaga keltiruvchi omil hamda buning hodisasi bo'lmish variantlar ikki xil bo'lishi mumkin:

a) nomning adabiy imloviy shakli va lahjaviy variantlilik: masalan, Yorqin // Jarqin, Xolbuvi // Qolbuvi, Tolloy // Totlioy;

b) nomning lahja, shevalararo farqli shakllarining variantlilik: masalan, Aglam // Alom, Allom, Agzam // A:zam, Nugmon // No'mon va h.

Antroponimlarning erkalash – suyish omili va jarayoni bilan bog'liq variantlar bitta ismning bolani erkalash – suyish jarayonida bir necha shakliy variantlarga kirishi tufayli yuz beradi: masalan, Dilbar, Dilorom – Dilash, Dilish, Dilim, Dilishim; Nurmuhammad – Nurish, Nurash, Nurim, Nuri.

10. O'zbek antroponimiyasi tizimida variantdorlikni tug'diruvchi omillardan biri erkalash – kichraytirish omilidir. Bunda ismning to'liq shakli ushbu omil tufayli turli shakllarga kiradi va antroponimik variantlarni tug'diradi.

11. Antroponimik variantlarni yuzaga keltiruvchi omillardan yana biri ismlarning turli lahja va shevalarda mahalliy shakllarga ega bo'lishidir. Ismning

lahjaviy shakli nomning adabiy shakliga nisbatan yoki bitta ismning shevalararo shakllari o‘zaro antroponimik variantni tug‘diradi.

12. Xullas, biz yuqorida o‘zbek antroponimiyasi tizimida variantdorlikning ko‘rinishlari, ularning tarkibiy qismini tashkil qiluvchi ismlarning erkalash – kichraytirish variantlari hamda larning lug‘aviy va lahjaviy variantlarini tahlil qildik. Kelgusida respublikamizning barcha hududi bo‘yicha ismlarning erkalash – kichraytirish variantlarini to‘plab, tahlil qilinsa, biz olib borgan ishning doirasi yanada kengayib, antroponimik variantlar, shu jumladan, ismlarning erkalash – kichraytirish variantlari hamda ismlarning lug‘aviy va lahjaviy variantlarini yangi qirralari ochilishi, shu bilan birga, yangi – yangi dalillar bilan boyib borishi shubhasizdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

I. Siyosiy adabiyotlar.

1. Каримов И. А. Тарихий хотирасиз келажак йўқ. Адолатли жамият сари.Т.: Ўзбекистон, 1998.
2. Karimov I. A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. T.: Ma'naviyat, 2008.
3. Ўзбекистон Республикасининг «Давлат тили» ҳақидаги қонуни, Т.: 1989, 21-октябр.

II. Ilmiy adabiyotlar.

4. Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов. М.:1966
5. Бегматов Э. Жой номлари-маънавият кўзгуси. Т.: Маънавият, 1998.
6. Бегматов Э. Исм чиройи. –Тошкент: Фан, 1992.
7. Бегматов Э. Киши исмлари имлоси. –Тошкент: Фан, 1970.
8. Бегматов Э. Нафасов Т. Караев С. Ономастика Узбекистана Т.:1999
9. Бегматов Э. Ўзбек исмлари. 2-нашри, Тошкент, 2007.
10. Бегматов Э., Улуқов Н. Ономастик терминларнинг изоҳли луғати. – Тошкент,2008.
11. Гурбанов А. Азербайжон ономастикаси. Баку 1986.
12. Дониёров Р. Ўзбек тили техник терминологиясининг баъзи масалалари. –Тошкент: Фан, 1977.;
13. Дониёров Х. Ўзбек халқининг шажара ва шевалари. – Тошкент: Фан, 1968.
14. Дўсимов З. Хоразм топонимлари. – Тошкент: Фан, 1985.
15. Ишаев А. Манғит шевасига оид кузатишлар // Адабиётшунослик ва тилшунослик масалалари. –Тошкент: Фан. 1961.
16. Курилович Э. Тилда атоқли отларнинг ҳолати // Лингвистика бўйича очерклар. –М., 1962.
17. Менажиев Й. ва бошқалар. Исмнингизнинг маъноси нима? Т.:1964.

18. Матвиев А.К. Ономатология. М.:Наука 2006.
19. Мирзаев Э.М. Очерки топонимики. М.: 1974.
20. Нафасов Т. Ўзбек номномаси. Қарши, 1993.
21. Неъматов Х. Расулов Р. Ўзбек тили систем лексикалогияси асослари. Т.:1996.
22. Никонов В.А. Топонимияга кириш. Москва: Фан, 1965.
23. Номшунос Олим. Мақолалар тўплами. Қарши, 2008.
24. Подольская И.В. Словарь русской ономастической терминологий. М.:Наука 1988.
25. Суперанская А.В.Еркак ва аёлларнинг параллел исмлари // Ономастика ва грамматика. – М.: Фан, 1987.
26. Тепляшина Т.И. Удмурдларда кўшномлар // Ўтмишда, ҳозирда ва келажакдаги шахс номлари. –М.: Фан., 1970.
27. Турсинпўлатов М., Жўраев Х. Эркаклар ва аёллар исми билан боғлиқ бўлган эркалаш-кичрайтириш кўшимчалари // Ўзбекистонда ономастика масалалари бўйича материаллар. -Тошкент, 1985.
28. Турсунов У ва бошқалар. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Т.: 1992.
29. Худойназаров И. Антропонимларнинг тил луғат тизимидаги ўрни. Номзодлик дисс. Т.: 1998
30. Чобанов М.Н. Озарбойжон антропонимияси асослари. – Тбилиси, 1983.
31. Энциклопедик луғат. Жисмоний тарбия ва спорт. – Москва, 1981.
32. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. II том. – Москва, 1981.
33. Қиличев Э. Ўзбек тили ономастикаси. Т.:2004.
34. Қошғарий Маҳмуд. Девону луғатут турк. 1. – Тошкент: Фан, 1960.
35. Ҳасанов Ҳ. Ўрта Осиё жой номлари тарихидан. – Тошкент: Фан, 1965.
36. Hojiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati. Т.:О'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2002.
37. O'zbek tilining kirill va lotin alifbolaridagi imlo lug'ati. Toshkent, 2004

III. Monografiya va alohida nashrlar:

38. Бегматов Э. Ўзбек тили антропонимикаси // Филол. фанл. номз. диссерт.-си автореферати. –Тошкент, 1965.
39. Нуриддинова Р. Ўзбек ономастикаси терминларининг лисоний таҳлили: Филол. фан. ном. ... дис. автореф-ти. – Тошкент, 2005.
40. Раҳимов С. Хоразм минтақавий антропонимияси // Филол. фанл. номз. диссерт.-си автореферати. –Тошкент, 1998.
41. Шоабдурахмонов Ш. Ўзбек адабий тили ва ўзбек халқ шевалари.- Т., 1952.
42. Шомаксудов А. Ўзбек тили стилистикаси.-Т., 1974
43. Xudoyberganov Rovshan Yusupovich. O‘zbek antroponimiyasi tizimining variantdorligi. Filol. fanl. nomz. dissert.-si. – Toshkent, 2008.

IV. Davriy nashrlar

44. Абдуллаев Ф. Киши исмларининг қисқариш усуллари // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1960. 3-сон. –Б. 34-35.
45. Алиев С. Қоидалар мукамал ва изчил бўлсин // Ўқитувчилар газетаси. 1982, 14 апрель.
46. Бегматов Э. Антропонимлар – антропоцентрик тадқиқ объекти. Ўзбек тили ва адабиёти. 2013, 3.
47. Бегматов Э. Исм, фамилия қандай ёзилади? // Ўзбекистон санъати ва адабиёти. 1990, 20-апрель.
48. Бегматов Э. Киши номларининг маъноларига доир. Ўзбек тили ва адабиёти, 1992, 2.
49. Бегматов Э. Микротопоним тушунчаси ҳақида. Ўзбек тили ва адабиёти.
50. Бегматов Э. Номлар ва одамлар. Т.:1966.
51. Бегматов Э. Номшуносликнинг тадқиқ йўллари. Ўзбек тили ва адабиёти. 1992, 2.
52. Бегматов Э. Холисхон ҳақми? // Тошкент оқшоми. 1990, 17-август.

53. Бегматов Э., Авлоқулов Я. Ономастик кўлам тушунчаси. Ўзбек тили ва адабиёти, 2007, 3, 17-20-б.
54. Бегматов Э., Авлоқулов Я. Ўзбек тили ономастикасининг макрокўлами
55. Бегматов Э., Қораев С. Бизга фамилия керакми? // Фан ва турмиш. 1991. 4-сон.
56. Бегматов Э., Улуқов Н. Ўзбек ономастикаси терминларининг изоҳли
57. Бегматов Э., Хусанов Н., Ёқубов Ш., Боқиев Б. Ўзбек тарихий номшунослигининг долзарб муаммолари. Ўзбек тили ва адабиёти. 1992, 5/6, 21-27-б.
58. Жўраев Б., Бегматов Э. Атоқли отларни ўрганишга доир баъзи мулоҳазалар. Ўзбек тили ва адабиёти, 1996, 2.
59. Жўраев Б., Бегматов Э. Атоқли отларни ўрганишга доир баъзи мулоҳазалар. Ўзбек тили ва адабиёти, 1996, 3.
60. Камолов Ф., Жуманиязов Р., Мирзаев Т., Бегматов Э. Исм ва фамилиялар имлосига доир//Ўқитувчилар газетаси, 1962. 20-сентябрь.
61. Мамадалиев Б. Ўзбек тилида таркибли сўзлар//Ўзбек тили ва адабиёти. 1966, 4-сон, - Б. 45,46.
62. Маматов Н. Қўшма сўзлар билан содда сўзларнинг ўзаро муносабати масаласига доир//Ўзбек тили ва адабиёти. 1982, 2-сон, -Б. 23.
63. Маҳкамов Н. Яна қўшма сўзлар имлоси ҳақида // Ўқитувчилар газетаси. 1982, 30-июнь.
64. Маҳкамов Н., Умурқулов Б. Жамоатчиликка ҳавола // Ўқитувчилар газетаси. 1982, 14-апрель.
65. Раҳматуллаев Ш. Қайта яратишми ёки тузатиш // Ўзбекистон санъати ва адабиёти. 1982, 5-март.
66. Рашидова М. Лақабларнинг услубий-функционал хусусияти ҳақида. Тил ва адабиёт таълими, 2009, 4. 31-33-бет.
67. Рустамов Ҳ. Соадат, Саадат, Садат, Содат // Фан ва турмуш. 1968, 3-сон. –Б.24-25.

68. Шоабдурахмонов Ш. Антропонимик форматларнинг таркибий функционал ривожига ҳақида. Ўзбек тили ва адабиёти, 2003, 4.
69. Юсупов Б. Ҳаёт тақозаси // Ўзбекистон санъати ва адабиёти. 1984, 13-ноябрь.
70. Ўзбек орфографияси ва пунктуациясининг асосий қоидалари// Ўқитувчилар газетаси. 1981, 8-август.
71. Ўзбек орфографияси ва пунктуациясининг асосий қоидалари// Ўқитувчилар газетаси. 1988, 30-январь.
72. Xudoyberganov R.Y. Antroponimik polindromlar xususida // Filologik tadqiqotlar. – Toshkent, 2007.
73. Xudoyberganov R.Y. Ismlarning erkalash-kichraytirish variantlari // Ilm sarchashmalari. 2006, 1-son.
74. Xudoyberganov R.Y. O‘zbek antroponimikasidagi sinonimlar xususida // Filologik tadqiqotlar. – Toshkent, 2006.
75. Xudoyberganov R.Y. Onomastik parallellar haqida // O‘zbek tili va adabiyoti. 5-son, 2007.
76. Xudoyberganov R.Y. Variantdorlik tushunchasiga doir // Filologik tadqiqotlar. – Toshkent, 2003

V. Internet sahifalari.

77. Uz/ru/library/book/779/libid/20703.
78. www.dissertant.uz
79. www.aim.uz
80. www.ziyonet.uz.
81. www.ziyo.uz.
82. Kitob.uz
83. Uza.uz